

Morrining seshanba darslari

Muallif: Mich Elbom

*Ingliz tilidan Maqsud Salomov va Gulsanam Roziqova tarjima
qildi.*

OGOHLANTIRISH: Mazkur kitobdan tijoriy maqsadlarda foydalanish taqiqlanadi. Tarjimonlar ushbu tarjima uchun mualliflik huquqini o'zlarida saqlab qoladilar.

Kitobning kirill yozuvidagi variantini quyidagi havola orqali yuklab olishingiz mumkin: <https://t.me/maksudkhon/337>

Tarjima qilingan manba havolasi: <https://www.stcs.org/view/7786.pdf>.

Maqsud Salomovning telegramdagi shaxsiy blogi:

<https://t.me/maksudkhon>

Muallif haqida



Mich Elbom (to'liq ismi – Mitchel Devid Elbom) – AQSHlik jurnalist, yozuvchi, kinodramaturg, musiqachi va suxandon. 1958-yil, 23-may kuni AQSHning Nyu-Jersey shtatida tug'ilgan. "Morrining seshanba darslari", "Siz Jannatda uchratuvchi besh inson", "Yana bir kunga", "Jannatdan dastlabki qo'ng'iroq" va boshqa bir qancha kitoblar muallifi. Kitoblari dunyo bo'ylab 39 milliondan ortiq nusxada sotilgan.

Uning eng mashhur kitoblaridan biri bo'lmish "Morrining seshanba darslari" hozirda 45 tilga tarjima qilingan va oliygohlar darslari, mustaqil o'qish va turli seminarlarda foydalaniladi.

MUNDARIJA

O'quv dasturi	4
O'quv rejasi.....	6
Talaba	13
Ko'rgazmali qurollar	16
Uchrashuv.....	21
Sinxona	26
Davomat	32
Birinchi seshanba: borliq haqida suhbatlashamiz	38
Ikkinchi seshanba: O'z-o'ziga achinish haqida suhbatlashamiz	43
Uchinchi seshanba: pushaymonlik haqida suhbatlashamiz	47
Ko'rgazmali qurollar: ikkinchi qism	53
Professor.....	55
To'rtinchi seshanba: o'lim haqida suhbatlashamiz	60
Beshinchi seshanba: oila haqida suhbatlashamiz	67
Oltinchi seshanba: his-tuyg'ular haqida suhbatlashamiz	75
Professor: ikkinchi qism.....	81
Yettinchi seshanba: keksayishdan qo'rqish haqida suhbatlashamiz..	86
Sakkizinchi seshanba: pul haqida suhbatlashamiz	92
To'qqizinchi seshanba: mehr barhayot qolishi to'g'risida suhbatlashamiz	97
O'ninchi seshanba: oilaviy hayot haqida suhbatlashamiz.....	106
O'n birinchi seshanba: jamiyatimizda mavjud an'analar haqida suhbatlashamiz.....	113
Ko'rgazmali qurollar: uchinchi qism	119
O'n ikkinchi seshanba: kechirimlilik haqida suhbatlashamiz	122
O'n uchinchi seshanba: mukammal kun haqida suhbatlashamiz	127
O'n to'rtinchi seshanba: xayrlashamiz	134
Bitiruv oqshomi	139
Xotima.....	140

O'quv dasturi

Keksa professorim hayotining so'nggi darslari uning uyida, u mittigina hibiskus butasining pushti barglari to'kilishini tomosha qilishi mumkin bo'lgan kabinet derazasi yonida, haftada bir marta o'tilardi. Sinf seshanba kunlari yig'ilardi. Dars nonushtadan keyin boshlanardi. Fanimiz "Hayot mazmuni" deb atalardi. Unda professor boshdan kechirgan hayotiy saboqlar o'qitilardi.

Baho qo'yilmasdi, lekin har hafta og'zaki imtihonlar olinardi. Sizdan savollarga javob berishingiz va o'zingiz ham savollar tuzishingiz talab etilardi. O'qtin-o'qtin professorning boshini ko'tarib, yostiqa qulayroq joylashtirish yoki tushib ketgan ko'zoynagini burnining ustiga yaxshiroq qo'ndirish kabi jismoniy mashqlarni ham bajarishga to'g'ri kelardi. Xayrlashuv chog'ida uni o'pib qo'yish orqali qo'shimcha ball ishlab olish mumkin edi.

Hech qanday o'quv qo'llanmalaridan foydalanilmasa-da, muhabbat, ish, jamiyat, oila, keksayish, kechirimlilik va nihoyat, o'lim kabi ko'plab mavzular muhokama qilinaridi. So'nggi ma'ruza lo'ndagina, bor-yo'g'i bir nechta so'zdan iborat bo'ldi.

Bitiruv oqshomi o'rniga dafn marosimi o'tkazildi.

Yakuniy nazorat imtihonlari olinmasa-da, berilgan saboqlar xususida uzun maqola yozish talab etilardi. Quyida o'sha maqola bilan tanishasiz.

Keksa professorim hayotining so'nggi darslarida bor-yo'g'i bir nafar talaba qatnashgandi.

O'sha talaba men edim.

1979-yilning kech bahori, issiq va dim shanba oqshomi. Yuzlab talabalar bosh kampusning maysazoriga qator qilib terilgan yig'ma yog'och kursilarda yonma-yon o'tiribmiz. Moviy neylon ridolarni kiyib

olganmiz. Uzundan-uzoq nutqlarni sabrsizlik bilan tinglaymiz. Marosim yakunlangach, bosh kiyimlarimizni osmonga uloqtirishimiz bilan rasman oliygoh – Massachusetts shtati Uoltham shahri Brandeys universitetining oxirgi bosqich bitiruvchilariga aylanamiz. Ko'pchiligimiz uchun hozirgina bolalik davri o'z nihoyasiga yetdi.

Marosimdan keyin sevimli professorim Morri Shvarsni topib, uni ota-onam bilan tanishtiraman. U, go'yoki kuchli shamol istalgan paytda osmonga uchirib ketadigandek, mayda qadamlar bilan yuradigan kichik jussali kishi. Bitiruv oqshomi ridosida u injil payg'ambari va Mavlud elfi qiyofalari qorishmasidan hosil bo'lgan ko'rinishda edi. Uning ko'zlari ko'kish-yashil rangda, siyraklashib borayotgan kumushrang sochlari peshonasiga tushib turar, quloqlari katta, burni uchburchak shaklga ega, tutam-tutam qoshlari esa oqara boshlagan. Tishlari egri, pastki tishlari, go'yoki kimdir mushti bilan ularni ichkariga kirgizib yuborgandek orqa tomonga qiyshayganligiga qaramasdan, u kulganda, o'zingizni unga yer yuzidagi ilk hazilni aytib bergandek his qilaisiz.

U ota-onamga uning barcha darslariga qoldirmay qatnashganimni aytadi. "Ajoyib o'g'lingiz bor, boshqalarga o'xshamaydi", — deydi professorim ularga. Uyalganimdan yerga qarayman. Ketishimizdan oldin professorga atalgan sovg'amni beraman: old tomoniga professor ism-sharifining bosh harflari tushirilgan jigarrang portfel. Sovg'ani bir kun oldin savdo markazidan xarid qilganman. Professorni unutib yuborishni xohlamasdim. Balki u meni unutishini xohlamagandirman.

"Mich, sen yaxshi insonsan", — deydi u, portfelni mamnuniyat bilan ko'zdan kechirarkan. Keyin u meni bag'riga bosadi. Belimda uning nimjon qo'llarini his qilaman. Bo'yim unikidan novcharoq bo'lgani sababli u meni bag'riga bosganda, o'zimni g'alati, undan kattaroq sezaman, go'yoki men ota, u esa farzandimdek tuyuladi. U mendan xabarlashib turasanmi deb so'raydi, men hech ikkilanmasdan:

“Albatta”, — deb javob qaytaraman.

U orqaga tisarilganda, ko‘zlari yoshlanganini ko‘raman.

O‘quv rejasi

U 1994-yilning yozida o‘limga mahkum etilganidan xabar topdi. O‘tmishga nazar tashlar ekan, Morri qandaydir ko‘ngilsizlik yaqinlashayotganini ancha oldin sezganini yodga oladi. Buni raqs tushishni to‘xtatgan kuniyoq anglab yetgandi.

Keksa professorim doim raqs tushishga ishtiyoqmand bo‘lgan. Unga qanday musiqa qo‘yilishining farqi yo‘q edi. Rok-n-rol, big bend, blyuz. Hammasi yoqardi. U ko‘zlarini yumar va mas‘ud tabassum ila xayolidagi maqomga monand yo‘rg‘alay boshlardi. Harakatlari har doim ham chiroyli ko‘rinmasdi. Morri sherikka muhtojlik sezmasdi. U yolg‘iz raqs tushardi.

Har chorshanba oqshom u Garvard maydonidagi cherkovda uyushtiriladigan “Bepul raqsga tush” nomli qandaydir kechaga borardi. Oq futbolka va qora ishton kiyib, bo‘yniga sochiqcha tashlab olgan Morri miltiroq chiroqlar va ovoz kuchaytirgichlar bilan jihozlangan, asosan talabalar bilan gavjum xonada aylanib yurar va qanday musiqa qo‘yilsa, shunisiga o‘ynab ketaverardi. U Jimi Hendriks ashulasi qo‘yilsa, lindi raqsi harakatlarini bajarardi. Amfetamindan kayfi oshib qolgan dirijordek qo‘llarini silkitar, jiqqa terga botmagunicha eshilib-bukilardi. U yerda hech kim uning yillab tajribaga ega universitet professori va bir nechta e‘tiborga molik kitoblar yozgan atoqli jamiyatshunoslik fanlari doktori ekanini bilmasdi. Shunchaki, esi og‘ib qolgan chol deb o‘ylashardi.

Bir kuni u o‘zi ko‘tarib kelgan tango musiqasi yozilgan kassetani qo‘ydirdi. Keyin esa davrani egallab, ehtirosli ispan oshig‘idek xona bo‘ylab xirom aylay boshladi. U raqsini yakunlaganda, hamma

qarsak chalib yubordi. U shu lahzalarda bir umr qolishni istardi!
Biroq tez orada raqs tushishdan voz kechishiga to'g'ri keldi.

Morri oltmishdan oshganda ko'ksov kasalligini orttirib oldi. Nafas olishi qiyinlashdi. Bir kuni Charlz daryosi bo'yida sayr qilib yurganida, to'satdan turgan sovuq shamoldan nafasi qaytib, bo'g'ilib qoldi. Uni zudlik bilan shifoxonaga olib ketib, adrenalin ukoli yordamida qutqarib qolishdi.

Bir necha yildan so'ng yurishi ham qiyinlashdi. Bir do'stining tug'ilgan kun bazmida besabab qoqilib, yiqilib tushdi. Boshqa bir kechada teatr zinapoyasidan yiqilib, yonida turganlarni cho'chitib yubordi.

– Unga havo yetishmayapti! Havo kerak! – deya baqirib yubordi kimdir.

Bu paytga kelib u yetmish yoshni urib qo'ygandi, shu sababli odamlar “Qarilik-da...” deb shivirlagancha, uning oyoqqa turishiga ko'maklashishdi. Ammo ichki a'zolarining holatini bizdan ko'ra yaxshiroq his qilgan Morri muammo qarilikda emasligini bilardi. Qarilikdan tashqari yana nimadir bor edi. U o'zini muntazam horg'in sezar, uxlashga qiynalardi. Tushlarida o'layotganini ko'rib chiqardi.

Morri shifokorlarga qatnay boshladi. Ko'p shifokorlarga uchradi. Ular Morrining qonini tekshirishdi. Peshobidan namunalar olishdi. Orqa teshigidan mo'ralab, ichaklarini ko'zdan kechirishdi. Oxir-oqibat hech narsa topilmagach, bir shifokor Morrining boldiridan kichkina bo'lakcha kesib olib, mushaklar biopsiyasiga yubordi. Tahlil natijalari nevrologik muammo borligini ko'rsatdi. Morrini yana yangitdan tekshiruvlar o'tkazishga olib ketishdi. Shunday ko'riklarning birida Morrini elektr kursiga o'xshash maxsus moslamaga o'tqizib, elektr toki yuborish orqali uning nevrologik reaksiyalarini o'rganishdi.

– Chuqurroq tekshirishimiz kerak, – dedi shifokor, natijalarga ko'z yugurtirarkan.

– Nega? - so'radi Morri. – Nima dard ekan o'zi?

– Hali aniq bilmaymiz. Reaksiyalaringiz sust.

Reaksiyasi sust? Bu nima degani bo'ldi?

Va nihoyat, 1994-yil, issiq va nam avgust kunlarining birida Morri xotini Sharlotta bilan nevrolog huzuriga tashrif buyurdi. Shifokor yangilikni aytishdan avval ulardan o'tirib olishlarini so'radi: Morrinda yon amiotrofik skleroz (ALS), asab tizimining beshafqat xastaligi – Lu Gerig kassaligi aniqlanibdi.

Hali bu kasallikning davosi topilmagandi.

– Bu dardni qanday orttirdim? – so'radi Morri. Hech kim buni bilmasdi.

– Kasallik o'limga olib boradimi?

– Ha.

– Demak, o'laman?

– Ha, – dedi shifokor. – Juda ham afsusdaman.

U deyarli ikki soat davomida sabr bilan Morri va Sharlottaning savollariga javob berdi. Xayrlashish chog'ida shifokor ularga ALS haqida ma'lumotlar yozilgan mitti broshyuralarni berdi. Ular bankda hisob raqami ochishda taqdim etiladigan broshyuralarni eslatardi. Tashqarida quyosh charaqlar, odamlar o'z tashvishlari bilan yugurib yurardi. Ana, bir ayol avtoturargoh hisoblagichiga tanga tashlashga oshiqmoqda. Boshqasi esa bozor-o'charini yelkalab olgan. Sharlottaning xayolida minglab o'ylar g'ujg'on o'ynardi: “Qancha vaqtimiz qoldi ekan? Endi nima qilamiz? Qanday kun ko'ramiz?”

Keksa professorim esa bu paytda atrofda hayot bir maromda davom etayotganidan hayratda edi. “Hayot to'xtab qolishi kerakmasmidi? Nahotki odamlar menga nima bo'lganidan bexabar bo'lishsa?”

Biroq hayot to'xtab qolmadi, u Morrining ahvoliga e'tibor ham bergani yo'q. Morri madorsiz qo'llari bilan mashina eshigini ochar ekan, o'zini tubsizlik qa'riga qulayotgandek his qildi.

– Endi nima bo'ladi? - o'yladi u.

Keksa professorim savollariga javob izlar ekan, kasallik uni tobora yengib borardi: kundan-kun, haftama-hafta... Bir kuni ertalab mashinasini garajdan olib chiqayotib, tormoz pedalini bosishni zo'rg'a uddaladi. Shu bilan mashina haydashdan ham voz kechildi. Hadeb qoqilavergach, hassa sotib oldi. Shu tarzda mustaqil yurishga ham yakun yasaldi.

U muntazam Yosh nasroniyalar jamiyatiga suzishga qatnardi, lekin endi mustaqil yechinishni ham eplolmay qoldi. Ilk marta shaxsiy yordamchi yollashiga to'g'ri keldi – Toni ismli ilohiyot fanlari talabasi uning suv havzasiga tushib-chiqishi va suzish kiyimini kiyib-yechishiga yordam beradigan bo'ldi. Yechinish xonasidagi suzuvchilar o'zlarini ularga qaramayotgandek tutar, biroq bari bir tomosha qilishdan tiyila olmasdi. Shu bilan hayotini begona ko'zlardan yashirish imkoni ham boy berildi.

1994-yilning kuzida Morri Brandeys kampusiga universitetdagi so'nggi kursini o'tib berishga keldi. Kelmasa ham bo'lardi. Universitetdagilar tushunishardi. Shuncha odamning ko'z o'ngida azob chekib nima qilasan? Uyda o'tir. Bitmagan ishlaringni yakuniga yetkaz. Ammo Morri ishdan ketishni xayoliga ham keltirmasdi.

Morri o'ttiz yildan ortiq unga ikkinchi uy vazifasini o'tagan auditoriyaga oqsoqlanib kirib keldi. Hassa yordamida yurgani sababli kursisiga yetib olishga bir muncha vaqt ketdi. Va nihoyat kursiga joylashib oldi; ko'zoynagini tushirib, unga jimgina tikilib o'tirgan yosh chehralarga qaradi.

– Do'stlarim, barchangiz bu yerga ijtimoiy psixologiya fanini o'rganish uchun yig'ilgansiz degan fikrdaman. Men yigirma yildan beri shu fandan dars berib kelaman va bugun birinchi marta bu kursga yozilish tavakkalchilik ekanini aytib qo'yishni lozim topdim, chunki tuzalmas dardga chalinganman. Umrim semestri yakunlashga yetmay qolishi mumkin. Buni muammo deb

hisoblaganlarning darslarimga qatnashishdan voz kechish istagi bo'lsa, tushunaman.

U jilmaydi.

Shu bilan uning dardga chalingani ham ortiq sir bo'lmay qoldi.

ALS yonayotgan shamga o'xshaydi: asab tolalaringizni eritib, tanangizni bir uyum mum holiga keltiradi. Ko'pincha, u ishni oyoqlardan boshlaydi va sekin-asta yuqorilab boradi. Avvaliga son mushaklaringiz o'zingizga bo'ysunmay qo'yadi va tik turish qobiliyatidan mahrum bo'lasiz. Keyin esa butun tana mushaklaringiz nazoratini yo'qotasiz va o'tirish baxtidan ham mosuvo bo'lasiz. Alaloqibat, agar shunda ham tirik bo'lsangiz, tomog'ingizni teshib o'rnatilgan naycha orqali nafas olasiz, hali mutlaqo uyg'oq ruhingiz esa, o'z tanasi ichida qotib qolgan ilmiy-fantastik film qahramonlari kabi, kiprik qoqish yoki tilni qimirlatishga zo'rg'a yaraydigan majruh qobiq ichida tutqunlikda qoladi. Mazkur dardga yo'liqqaningizdan besh yil o'tar-o'tmas, shu holatga tushasiz.

Shifokorlar Morrining yana ikki yilcha umri qolganini taxmin qilishdi. Morri esa ikki yildan kamroq vaqti qolganini bilardi.

Keksa professorim qat'iy qarorga kelgan, bu qaror, u o'limi muqarrarligidan xabar topib, shifokor qabulidan chiqayotganidayoq yetila boshlagandi. "Jimgina so'lib, yo'q bo'lib ketaveramanmi yoki qolgan vaqtimdan unumli foydalanib qolamanmi?" – deya o'ziga savol berdi.

U so'lmaydi. U o'layotganidan uyalmaydi.

Aksincha, o'lim uning so'nggi loyihasi – qolgan sanoqli kunlarining markaziy nuqtasi bo'ladi. O'lim hammaning ham boshida bor ekan, uning tajribasi boshqalar uchun o'ta ahamiyatli bo'lishi mumkin, shunday emasmi? Uning o'zi tadqiqot obyekti bo'ladi. Jonli o'quv qo'llanmasi. *Sekin-asta so'nib borishimni tadqiq qiling. Menga nimalar bo'layotganini kuzating. Birgalikda o'rganamiz.*

Morri hayot va mamot o'rtasidagi ko'prikn bosib o'tarkan, so'nggi

safari haqida hikoya qilib borishga qaror qildi.

Kuzgi semestr bir nafasda o'tib ketdi. Dorilar soni ko'paydi. Muolajalar esa kundalik hayotning bir qismiga aylandi. Hamshiralar professorning uyiga qatnay boshladi. Mushaklar faolligi yo'qolmasligi uchun uning jonsizlanib borayotgan oyoqlarini harakatlantirish, quduqdan suv tortayotgandek, ko'tarib-tushirish, bukish mashqlarini bajartirish zarur edi. Uqalash mutaxassislari uni muntazam azoblayotgan mushaklar uvushishidan xalos etish uchun haftada bir marta tashrif buyurardi. U meditatsiya murabbiylari bilan uchrashar, ko'zlarini yumib, butun borlig'i faqatgina nafas olishga qaratilmagunicha, xayolidagi o'ylarni birma-bir o'chirib chiqardi: nafas olamiz-chiqaramiz, olamiz-chiqaramiz.

Bir kuni Morri hassasi yordamida trotuarga chiqaman deb, yo'l yuziga yiqilib tushdi. Shundan so'ng, hassa to'rt oyoqli tirgak bilan almashtirildi. Tanasi zaiflashib borarkan, hojatxonaga borib kelish ham uning tinka-madorini quritadigan bo'ldi. Morri tuvakka o'tirishga odatlandi. Biroq shuni ham mustaqil bajarishga holi yo'q edi – kimdir unga tuvakni tutib turishiga to'g'ri kelardi.

Ko'pchiligimiz bunday ishlardan xijolat chekkan bo'lardik, ayniqsa, Morrining yoshida. Ammo Morri ko'pchiligimizga o'xshamasdi. Yaqin hamkasblari uni ko'rgani kelganda, Morri ulardan: "Menga qara, siyishim kerak. Yordamlashib yubormaysanmi? Malol kelmaydimi?" - deb so'rardi.

Mehmonlar, ko'pincha, ularga bu ish malol kelmasligidan o'zlari ham hayron qolardi.

Uni ko'rgani keluvchilar oqimi oshib borar, u esa mehmonlar ko'nglini ovlashdan mamnun edi. O'lim, uning asl mohiyati, jamiyat o'limning nima ekanini anglamasdan, azaldan undan qo'rqib yashagani borasida fikr yuritish uchun muhokama guruhlari tuzib olgandi. Morri do'stlaridan, agar ular chindan ham yordam

bermoqchi bo'lsalar, unga achinish ko'zi bilan qaramasliklarini, aksincha, tashriflari, telefon suhbatlari, odatdagidek, muammolarini Morri bilan bo'lishish orqali uni xursand qilishlarini so'radi, chunki u har doim ajoyib tinglovchi bo'lgan.

Dard kuchayib borayotganiga qaramasdan, uning jarangdor ovozi hali ham o'ziga tortar, xayolida esa minglab o'ylar charx urardi. "O'lim" tushunchasi "keraksiz" so'zi bilan ma'nodosh emasligini isbotlashga bel bog'lagandi.

Yangi yil ham o'tdi. Hali hech kimga aytmagan bo'lsa-da, Morri bu yil umrining so'nggi yili ekanini bilib turardi. Bu paytga kelib, u nogironlar aravachasiga mixlangan, qadrlı insonlarining barchasiga aytishi lozim bo'lgan gaplarni aytib qolishga ulgurish uchun vaqt bilan kurashayotgandi. Brandeysdagi hamkasblaridan biri kutilmaganda yurak xurujidan vafot etganda, Morri uning dafn marosimiga bordi. Uyga tushkun holda qaytdi.

– Esiz, – dedi u. – Kelganlar u haqida shuncha yaxshi gaplarni aytsa-yu, Irv bularning hech birini eshitmasa.

Kutilmaganda Morrining xayoliga ajoyib fikr keldi. U bir nechta do'stlariga qo'ng'iroq qildi. Kerakli sanani tanladi. Sovuq yakshanba kunlarining birida "jonli dafn marosimi"ni o'tkazish uchun unikida oila a'zolari va do'stlaridan iborat kichik jamoa to'plandi. Ularning har biri so'zga chiqib, keksa professorimga o'z hurmatini izhor qildi. Ba'zilar ko'ziga yosh oldi. Kulganlar ham bo'ldi. Bir ayol she'r o'qidi:

Sevimli va aziz jigarim...

Hayot so'qmoqlari oralab,
Zamon osha kezarsan tanho.

Abadiy navqiron yuraging –
Barhayot sekvoyyadir go'yo.

Morri ham ularga qo'shilib kuldi, yig'ladi. Odatda aziz insonlarimizga aytishga jur'atimiz yetmay, qalbimiz tubida qolib ketadigan gaplarning hammasini aytib oldi o'sha kuni. Uning "jonli dafn

marosimi” muvaffaqiyatli o‘tdi.

Faqat... Morri hali hayot edi.

Buning ustiga, professor hayotining eng hayratlanarli davri endi boshlanayotgandi.

Talaba

Shu yerda men uchun qadrli va dono professorimni oxirgi marta bag‘rimga bosgan va u bilan xabarlashib turishga va‘da bergan kunimdan beri boshdan kechirganlarimni hikoya qilib beraman.

Undan qaytib xabar olmadim.

Aslida esa, universitetda men bilgan kishilarning aksariyati, jumladan, pivoxo‘r hamshishalarim va ilk marta tongda qo‘ynimda uyg‘ongan ayol bilan ham aloqalarimiz uzildi. Bitiruv oqshomidan so‘ng, men o‘z iste‘dodini dunyoga namoyish etish maqsadida Nyu-Yorkka yo‘l olgan takabbur bitiruvchi yigitchadan, yillar davomida toblanib, butunlay boshqa insonga aylangandim.

Biroq men kashf etgan dunyo iste‘dodimga zarracha qiziqish bildirmadi. Endigina yigirma yoshdan oshgan yillarim ijara haqini to‘lash, ish haqidagi e‘lonlarni o‘qish hamda omad menga kulib boqmayotganligi sabablari haqida bosh qotirish bilan o‘tdi. Mening orzum mashhur musiqachi bo‘lish edi (pianino chalardim), biroq zimziyo va bo‘m-bo‘sh tungi klublarda o‘tgan bir necha yillar davomida quruq va‘dalar, nuqul tarqab ketaveradigan musiqiy guruhlar va mendan boshqa hammaga qiziqish bildiradigan prodyuserlar tufayli orzum o‘z ahamiyatini yo‘qotdi. Umrimda birinchi marta muvaffaqiyatsizlikka yuz tutayotgandim.

Aynan shu davrda, birinchi marta jiddiy ravishda o‘lim tushunchasi bilan yuzma-yuz keldim. Musiqaga mehr qo‘yishimga sababchi bo‘lgan, menga mashina haydashni o‘rgatgan, nuqul qizlar haqidagi

hazillari bilan jig'imga tegadigan, meni futbolga olib kirgan suyuqli tog'am – onamning ukasi qirq to'rt yoshida oshqozon osti bezi saratonidan vafot etdi. Men bolaligimdan unga taqlid qilib, "Katta bo'lsam xuddi u kabi bo'laman" deb ahd qilgandim. U qalin mo'ylovi o'ziga yarashgan, past bo'yli, xushbichim kishi edi. Men u bilan bir uyda, shundoqqina u yashaydigan xonadonning pastki qavatida turganim sababli hayotining so'nggi yillarida uning yonida bo'ldim. Men uning baquvvat jismi avvaliga turshakdek qotib, keyin esa pufakdek shishib borishini kuzatar, har tun azob chekishini, kechki ovqat ustida kuchli og'riqdan lablari burishib, ko'zlari yumuq holda oshqozonini changallagancha bukchayib qolishiga guvoh bo'lardim. "Ey, Xudoyiim", — ingrardi u. "Ey, Xudo!". Qolganlar – kelinoyim, ularning ikki nafar o'g'ilchasi va men – ko'zimizni undan olib qochib, jimgina ovqatimizni yeyishda davom etardik.

Hech qachon o'zimni o'sha vaqtdagidek ojiz his qilmaganman. May oyi tunlaridan birida men va tog'am uning balkonida o'tirgandik. Iliq shabada esib turardi. U ufqqa termilganча, bo'g'iq ovozdа keyingi yil farzandlarining maktabga chiqishini ko'ra olmasligini aytdi. Mendan "bolalarimdan ko'z-quloq bo'lib turasan, a?" deb so'radi. Men undan bunday tushkun gaplarni gapirmasligini so'radim. U menga g'amgin tikilib qoldi.

Bir necha haftadan keyin u olamdan o'tdi.

Dafn marosimidan so'ng hayotim butunlay o'zgardi. Birdaniga vaqt jo'mrakdan oqib tushayotgan suv kabi bebaho ne'matga aylangan, men esa uni isrof qilmaslikka jon-jahdim bilan harakat qilishim kerakligini anglab yetgandim. Yarim bo'sh tungi klublarda musiqa chalishni to'xtatdim. Bari bir hech kim eshitmaydigan qo'shiqlarni yozishni yig'ishtirdim. Jurnalistika sohasida magistrlik darajasini qo'lga kiritishim bilan ilk ish taklifini qabul qilib, sport muxbiri sifatida faoliyat yurita boshladim. Mashhurlikka intilishdan voz kechib, shon-shuhrat ortidan quvib yurgan sportchilar hayotini yoritardim. Bir

paytning o'zida ham gazetalarda ishlar, ham jurnallar uchun maqolalar yozib turardim. Vaqt va me'yorni unutib, aqlga sig'mas shiddat bilan mehnat qilardim. Tongda uyg'onishim bilan tishimni yuvar va kiyimlarimni ham almashtirmasdan yozuv mashinkasi oldiga o'tirardim. Tog'am umr bo'yi bir korporatsiyada ishlagan va kunlari bir xil o'tgani uchun ishidan nafratlanardi. Mening qismatim unikidek yakun topmaydi, deya ahd qilgandim.

Nyu-York va Florida o'rtasida sargardon yurishdan charchab, Detroytga ko'chib o'tdim va "Detriot Free Press" nashrida kolumnist sifatida ishlay boshladim. Shaharning sportga bo'lgan qiziqishi cheksiz edi. U yerda professional futbol, basketbol, beyzbol va xokkey jamoalari borligi shuhratparastlikka bo'lgan chanqog'imni bemalol qondirardi. Bir necha yildan keyin men nafaqat gazetaga maqola yozayotgandim, balki bir nechta sportga oid kitoblar va radioeshittirishlar muallifiga aylangandim hamda televideniyedagi muntazam chiqishlarimda boy futbolchilar va ikkiyuzlamachi universitet sport dasturlari haqidagi fikrlarimni bildirib borardim. Men hozirda mamlakatni qamrab olgan ommaviy axborot vositalari bo'ronining bir qismiga aylangandim. Ijodimga talab yuqori edi.

Ijarama-ijara yurishlarim nihoyasiga yetdi. Orqa-oldimga qaramay hamma narsani sotib ola boshladim. Tepalikda joylashgan uy oldim. Mashinalar xarid qildim. Birja aksiyalariga sarmoya kiritib, qimmatli qog'ozlar egasiga aylandim. Eng yuqori tezlikni yoqib olgandim, qiladigan ishlarimning barchasi uchun muddat belgilar va shu muddat ichida tugatardim. Telbalarcha jismoniy mashqlar bilan shug'ullanar, mashinani uchirib haydardim. Buncha ko'p pul topishim tushimga ham kirmagan. Janin ismli qora soch ayolni uchratdim, u tig'iz kun tartibim va deyarli uyda bo'lmasligimga qaramasdan, negadir meni sevardi. Yetti yil uchrashib yurganimizdan keyin turmush qurdik. To'ydan bir hafta o'tib ishga qaytdim. Men Janinni, shu bilan birga o'zimni ham, kuni kelib u orzu

qilgan farzandlarni dunyoga keltirishimiz va risoladagidek oila qurishimizga ishontirdim. Ammo bu kun hech kelay demasdi.

Yuqoriroq marralarni zabt etish uchun yana ishga sho'ng'idim. Erishgan yutuqlarim menga hamma narsani nazoratda ushlab imkonini berishiga ishonardim: tog'am kabi xastalikka yuz tutib, narigi dunyoga rihlat qilishdan oldin hayotdan borini olishim, baxtning so'nggi tomchilarini ham siqib ichishga ulgurishim kerak edi. O'lim bu qismat ekanini tushunib yetgandim.

“Morri-chi?” deyayotgandirsiz, a? Ba'zi-ba'zida xayolim unga ketar, “odamiylik” va “o'zgalar haqida qayg'urish” kabi tushunchalarni menga singdirganini eslardim, ammo bularning bari uzoq o'tmishda qolib ketgan, xuddi boshqa hayotda sodir bo'lgandek tuyulardi. Ushbu yillar davomida Brandeys universitetidan kelgan barcha xatlarni to'g'ri axlat chelagiga uloqtirardim, o'zimcha, ularga mendan faqat pul kerak, deb hisoblardim. Shu sababli, Morrining xastaligidan bexabar qoldim. U haqida menga xabar berishi mumkin bo'lgan kishilar allaqachon unutilgan, ularning telefon raqamlari cherdakdagi keraksiz buyumlar solingan qutilarda chang bosib yotardi.

Bir tun televideniye kanallarini almashtirayotganimda qulog'imga chalingan ovoz e'tiborimni tortmaganida, barchasi o'z holicha davom etavergan bo'lardi...

Ko'rgazmali qurollar

1995-yilning martida, ABC TV kanalining “Tungi xabarlar” ko'rsatuvi boshlovchisi Ted Koppel o'tirgan limuzin Massachusetts shtatining G'arbiy Nyuton shaharchasida joylashgan uy oldida, qor bosgan yo'lakda to'xtadi.

Bu paytga kelib Morri butunlay nogironlar aravachasiga mixlangan,

shaxsiy yordamchilarining uni og'ir qopdek ko'tarib, yotoqdan aravachaga va aravachadan yotoqqa olib o'tishlariga o'rganayotgandi. Ovqatlanayotganda uni yo'tal tutar, og'zidagi narsani chaynash ham og'ir ishga aylangandi. Oyoqlari tamoman ishdan chiqqan, endilikda umuman yura olmasdi.

Shunday bo'lsa-da, u tushkunlikka tushishdan bosh tortardi. Morri fikrlar o'chog'iga aylandi. Fikrlar quyulib kelar, Morri ularni to'g'ri kelgan joyga yozib ketaverardi: yon daftarchalar, konvertlar, papkalar, qog'oz bo'laklari uning yozuvlariga to'lib ketgandi. O'lim ko'lankasi ostidagi hayot haqida falsafiy mulohazalarini yozib borardi: "Ba'zi ishlar imkoniyatingizdan tashqarida ekanini, hamma narsa ham qo'lingizdan kelmasligini tan oling", "O'tmishni o'tmishligicha qabul qiling: uni rad etishga yoki o'zgartirishga urinmang", "O'zingizni ham, boshqalarni ham kechirishga o'rganing", "Hech qachon biror ishni boshlashga kech qoldim deb hisoblamang".

Morri faqat do'stlari bilan bo'lishadigan bunday "hikmatli so'zlar"ning soni tez orada ellikdan oshdi. Ulardan juda ta'sirlangan Brandeys universitetidagi hamkasblaridan biri, Mori Shteyn, "hikmatli so'zlar"ni "Boston Gloub" nashri muxbiriga yubordi. Muxbir Morri bilan uchrashib, u haqida katta maqola yozdi. Maqola "Professorning so'nggi ma'ruzalari o'z o'limi haqida bo'ladi" sarlavhasi ostida chop etildi.

Maqola "Tungi xabarlar" ko'rsatuvi prodyuserlaridan birining e'tiborini tortdi va u Koppelga ko'rsatish uchun gazetani Vashington D.C.ga ko'tarib keldi.

– Mana buni bir ko'rgin, - dedi prodyuser.

Hash-pash deguncha, Morrining xonasi operatorlar bilan to'lgan, Koppelning limuzini esa uy tashqarisida turardi.

Morrining oila a'zolari va do'stlaridan bir nechtasi Koppel bilan uchrashish uchun unikida to'planishdi. Ushbu mashhur inson uyga

kirib kelganida, xonada hayajonli g'ala-g'ovur ko'tarildi, faqat Morrigena xotirjamlikni yo'qotmay, aravachasida Koppelning oldiga chiqib, chimirilgan qoshlari ostidan unga qaradi. Uning baland va jarangdor ovozi shovqin-suronni bo'ldi:

– Ted, bu suhbatga rozilik berishdan avval seni bir sinab ko'rishim kerak.

Bir muddat xonaga o'ng'aysiz jimlik cho'kdi. Keyin esa ikkalasi kabinet tomon yo'l oldi. Eshik mahkam yopildi.

– Urdi Xudo, – shivirladi eshik tashqarisida qolgan do'stlardan biri boshqasiga. – Ishqilib, Ted Morrigena yumshoqroq munosabatda bo'lsin-da.

– Aksincha, Morri Tedga shafqat qilsin, ishqilib, – dedi ikkinchisi. Kabinetga kirgach, Morri Tedga kursiga o'tirishni ishora qildi. Qovushtirilgan qo'llarini tizzasiga qo'yib, tabassum qildi.

– Siz qalbingiz tubida asraydigan narsalar haqida gapirib bering.

– Qalbim tubida?

Koppel qariyaga sinovchan nigoh tashladi.

– Mayli, – dedi u ehtiyotkorona va farzandlari haqida so'zlay boshladi.

Axir farzandlari doim qalbidaku, shunday emasmi?

– Yaxshi, -- dedi Morri. – Endi menga e'tiqodingiz to'g'risida gapirib bering.

Koppel bir oz o'ng'aysizlandi.

– Odatda men bunday mavzularni endigina tanishgan odamlarim bilan muhokama qilmayman.

– Ted, men o'lyapman, – dedi Morri, ko'zoynak ustidan unga tikilib.

– Juda kam vaqtim qolgan.

Koppel kulib yubordi. Mayli. Demak, e'tiqod. U Avreliy Markdan o'zining qarashlarini aks ettiradigan parcha o'qib berdi. Morri jimgina bosh irg'atdi.

– Endi men savol bersam, – dedi Koppel. – Hech men olib

boradigan ko'rsatuvni tomosha qilganmisiz o'zi?

Morri yelkasini uchirdi.

– Adashmasam, ikki marta.

– Ikki marta? Ikki martaginami?

– Ranjishga shoshilmang. “Opra”ni bir martagina ko'rganman.

– Xo'p, ko'rsatuvimni ikki marta ko'rganingizda qanday xulosaga kelgansiz?

Morri bir oz sukut saqladi.

– Rostini aytaymi?

– Ha?

– O'ziga bino qo'ygan odamdek ko'ringansiz menga.

Koppel qahqaha otib kulib yubordi.

– O'zimga bino qo'yish uchun juda badbashaalik qilaman, – dedi keyin.

Tez orada mehmonxonadagi kamin oldida suratga olish jarayoni boshlandi. Koppel astoydil dazmollangan ko'k kostyum-shimda, Morri esa keng kulrang sviter kiyib olgandi. U suhbat uchun ust-boshini chiroylisiga almashtirishdan ham, pardozi qildirishdan ham bosh tortdi. Uning falsafasiga ko'ra, o'lim uyaladigan narsa emasdi, demak, yuziga upa surishga ham hojat yo'q.

Morri nogironlar aravachasida o'tirganligi sababli uning jonsiz oyoqlari kameraga tushmadi. Hali qo'llarini harakatlantira olgani uchun, Morri doim qo'llarini silkitib gapirardi, qanday qilib o'limni mardonavor qarshi olish mumkinligi haqida ehtirosiga to'lib so'zlashini ko'rishimiz mumkin edi.

– Ted, – deb gap boshladi u. – Men bu g'alvalar boshlangandayoq o'zimga o'zim savol berdim: “Boshqalarga o'xshab tarki dunyo qilaymi yoki imkoni boricha hayotdan bahra olib yashaymi?” va yashashga qaror qildim. Hech bo'lmaganda, qadr-qimmat, jasorat, yaxshi kayfiyat va xotirjamlikni saqlagan holda o'zim istagandek yashashga urinib ko'rishga ahd qildim. Yig'lab uyg'ongan tonglarim

ham bo'lib turadi. O'zinga o'zim aza tutib, ko'z-yosh to'kaman. Ba'zida esa g'azabga to'lib uyg'onaman. Lekin bunday holatlar uzoq davom etmaydi. O'zinga bir oz achinib olganimdan so'ng o'rnimdan turib, "Men yashashni istayman" deya ta'kidlayman. Hozircha, buni uddalayapman. Yana shunday davom etish qo'limdan keladimi? Buni bilmayman. Menimcha, qo'limdan keladi.

Koppel uni butun vujudi bilan tinglardi. "O'limning yaqinligi odamni kamtarlikka undaydimi?" – deb savol berdi u.

– Qanday tushuntirsam ekan senga buni, Fred, – deb yubordi to'satdan Morri va tezgina xatosini to'g'riladi, - Ted demoqchi edim...

– *Mana buni kamtarlikka undash desa bo'ladi*, – dedi Koppel, kulib. Ular o'limdan keyingi hayot to'g'risida suhbatlashishdi. Morrining tobora boshqalar yordamiga muhtoj bo'lib borayotgani haqida gapirishdi. Unga ovqatlanish, o'tirish, bir joydan ikkinchi joyga o'tish uchun ham kimningdir yordami zarur edi.

– Sezdirmasdan, sekinlik bilan jisingizni yemirib borayotgan jarayonning siz uchun qo'rqinchli jihati nimada? – so'radi Koppel.

Morri bir oz jim qoldi. Keyin esa, bu narsa haqida televideniye orqali gapirish o'rinlimikan, deb so'radi.

– Albatta, gapiravering, – undadi Koppel.

Morri Amerikadagi eng taniqli teleboshlovchining ko'zlariga tik qaradi.

– Nima ham derdim, yaqin kunlarda kimdir orqamni artib qo'yishiga ham muhtoj bo'lishim aniq.

Ko'rsatuv juma kuni tunda efirga uzatildi. Uni Vashingtonda yozuv stoli oldida o'tirgan Ted Koppelning zalvorli ovozi boshlab berdi.

– Morri Shvarts kim? Va nima sababdan oqshom yakuniga qadar ko'pchiligingiz u haqida yaqin insoningizdek qayg'ura boshlaysiz?

Vashingtondan minglab chaqirim uzoqlikda, tepalikdagi uyimda odatdagidek kanallarni almashtirib o'tirardim. Televizor qutisidan

jaranglagan “Morri Shvarts kim?” degan so‘zlarni eshitib, qotib qoldim.

1976-yilning bahori, Morri bizga o‘tgan birinchi dars. Morrining keng xonasiga kirishim bilan devor bo‘ylab joylashtirilgan javonlarning tokchalari sanoqsiz kitoblarga to‘lib yotgani diqqatimni tortadi. Jamiyatshunoslik, falsafa, din va ruhshunoslikka oid kitoblar. Xonaning parket poliga katta gilam to‘shalgan, derazadan kampus yo‘lagi ko‘rinib turibdi. Sinfda o‘n ikkitacha talaba darslar rejasi va daftarlarini titkilab o‘tirishibdi. Ko‘pchiligining ustida jinsi shim va katakli flanel ko‘ylak, oyoqlarida esa mallarang poyabzal. Guruhdagi talabalarning hammasi shu bo‘lsa, dars qoldirish oson bo‘lmaydi, degan fikr xayolimdan o‘tadi. Balki bu fandan voz kechganim yaxshidir.

– Mitchel, – deydi davomat varaqasini o‘qiyotgan Morri. Qo‘limni ko‘taraman.

– Mich deb chaqiraveraymi yoki Mitchel yaxshiroqmi?

Hali biror marta o‘qituvchilar menga bunday savol bermagan. Bo‘yni uzun sariq jemper va chiyduxoba shim kiyib olgan, kumushrang sochlari peshonasiga tushib turgan odamchaga diqqat bilan tikilaman. U jilmayadi.

– Mich, – deb javob qaytaraman. – Do‘stlarim meni shunday chaqiradi.

– Mayli, Mich bo‘laqolsin unda, – deydi Morri, go‘yoki kelishuvni yakunlayotgan kishidek. – Aytganча, Mich?

– Labbay?

– Biror kun meni ham do‘st deb bilasan degan umiddaman.

Uchrashuv

Boston tashqarisida joylashgan sokin G‘arbiy Nyuton shaharchasida

ijaraga olingan mashinani Morrining ko'chasiga burar ekanman, bir qo'limda qahva finjonini tutib, quloq va yelkam orasiga esa qo'l telefonimni qistirib olgandim. Telefon orqali prodyuser bilan televideniye uchun birgalikda tayyorlayotgan ko'rsatuvimiz haqida gaplashayotgandim. Bir ko'zim mashinaning raqamli soatida (bir necha soatdan keyin ortga uchishim zarur edi), ikkinchisi esa ikki chetiga qator daraxtlar ekilgan ko'cha bo'ylab tizilgan pochta qutilarining raqamlarida edi. Mashina radiosi yangiliklar to'liqliniga sozlangandi. Hayotim shu tarzda kechardi: bir vaqtning o'zida beshta ishni bajarardim.

– Tasmani orqaga aylantir, — dedim prodyuserga. — Shu qismini yana bir eshitib ko'rishim kerak.

– Hozir, — javob berdi u. — Bir soniya.

Kutilmaganda, Morrining uyiga yetib kelganimni angladim. Tormozni keskin bosganimdan, tizzamga qahva to'kildi. Mashina to'xtar ekan, baland qizil zarang daraxti va uning yaqinidagi yo'lakda o'tirgan uch kishiga ko'zim tushdi. Yosh yigitcha va o'rta yoshlardagi ayol nogironlar aravachasidagi qariyaning ikki yonida o'tirishardi. Morri.

Nigohim keksa professorimga tushishi bilan muzlab qoldim.

– Allo? — qulog'imda prodyuserning ovozi jaranglardi. — Qayerga yo'qolib qolding?

Uni o'n olti yildan beri ko'rmagandim. Yuzlari so'lg'in, sochlari siyraklashib, oqlari ko'payibdi. Birdaniga hali u bilan uchrashishga tayyor emasligimni angladim. Birinchidan, telefondagi ishimni hal qilishim zarur edi. Ikkinchidan, Morri kelganimni sezmedi degan umidda shu atrofdagi mahallada bir-ikki aylanish qilib, ishlarimni bitirib olmoqchi, bahonada, ruhan uchrashuvga ham tayyorgarlik ko'rmog'chi edim. Biroq Morri – men bir vaqtlar yaqindan tanigan odamning so'nib borayotgan nusxasi mashinaga qarab jilmayar, qovushtirilgan qo'llarini tizzasiga qo'yib, mashinadan chiqishimni kutardi.

– Hoy? — chaqirdi prodyuser yana. — Shu yerdamisan?

Birga o'tgan damlarimiz, yosh paytim Morrining menga ko'rsatgan mehri va yaxshiliklari hurmati uchun ham telefonni o'chirib, mashinadan chiqishim, yugurib borib quchoqlashib ko'rishishim kerak edi. Buning o'rniga esa motorni o'chirib, xuddi nimanidir izlayotgandek o'rindiqli ostiga engashdim.

– Ha, ha, shu yerdaman, — shivirladim men va to ishimiz yakunlanmaguncha prodyuser bilan gaplashishda davom etdim.

Yana oxirgi yillarda usta bo'lib ketgan hunarimni ko'rsatdim: ishimni hamma narsadan ustun qo'ydim, hatto umri tugab borayotgan professorimning maysazorda meni intizor kutib turgani ham meni bundan qaytara olmadi. Hozir bu qilmishimdan juda uyalaman, albatta, lekin o'sha kuni o'zimni aynan shunday tutdim.

Besh daqiqalardan so'ng, Morri meni quchoqlab ko'rishayotgan, siyraklashib qolgan sochlari yuzimga tegib turar edi. "Tushib ketgan kalitimni qidirayotgandim, shunga mashinadan chiqishim qiyin bo'ldi" deb aytdim va uni mahkamroq bag'rimga bosdim, xuddi shu bilan kichkina yolg'onimni ezg'ilab tashlay oladigandek. Bahor quyoshi iliq nur taratib turgan bo'lsa ham, Morri ustiga yengil kurtka kiyib, oyoqlarini yopinchiq bilan o'rab olgandi. Undan bir oz achqimtil hid kelardi, odatda, kuni dori-ukol bilan o'tayotgan kishilardan shunday hid taraladi. Yuzi yuzimga yaqin kelganida, uning nafas olishi ham qiyinlashib qolganini sezdim.

– Qarddon do'stim, — shivirladi u. — Va nihoyat qaytding, a!

Morri tomon egilib turarkanman, u meni hech qo'yib yuborgisi kelmas, bilaklarimdan tutib ohista chayqalardi. Shuncha yillar o'tib ketgan bo'lsa ham professorning meni bunchalik iliq qarshi olishidan bir oz shoshib qoldim: o'tmishim va hozirim o'rtasiga qurilgan tosh devor tufayli bir paytlar qanchalik yaqin bo'lganimizni butunlay unutib yuborgandim. Bitiruv oqshomi, charm portfel, xayrlashayotganimizda uning ko'zlari yoshlangani yodimga tushdi

va bo'g'zimga nimadir tiqilgandek yutib qo'ydim, chunki men ortiq u bilgan sodda, iqtidorli talaba yigitcha emasligimni ich-ichimdan his etib turardim.

Yaqin bir necha soat ichida u o'zgarib ketganimni payqamaydi deb umid qilardim.

Uyga kiringach, ovqatlanish xonasidagi yong'oq daraxtidan bo'lgan stol yoniga o'tirdik. Derazadan qo'shnining uyi ko'rinib turibdi. Morri aravachasida tipirchilab, qulayroq joylashib olishga urindi. Odatdagidek, u meni taom bilan siylamoqchi bo'ldi, yo'q deya olmadim. Yordamchilaridan biri, Konni ismli baquvvat italyan ayol nonni kesib, pomidor to'g'rab berdi. Bir nechta idishda tovuqli salat, xumus va tabuli keltirdi. Keyin esa bir qancha hapdorilarni olib keldi. Morri dorilarga qarab, chuqur xo'rsindi. Uning ko'zlari ancha cho'kkani, ozib ketganidan yonoq suyaklari bo'rtib qolgani e'tiborimni tortdi. Bu o'zgarishlar uni yanada qariroq va dag'alroq qilib ko'rsatardi. Faqat u tabassum qilganida, osilib qolgan yonoqlari pardadek yig'ilib, dag'allik qayergadir yo'qolardi.

– Mich, — dedi u. — O'layotganimdan xabaring bor, deb o'ylayman. Albatta, bundan boxabar edim.

– Nima ham derdim, — Morri hapdorilarni yutib, qog'oz stakanni stolga qo'ydi va chuqur tin oldi. — Senga bu haqida gapirib beraymi?

– Nima haqida? O'lish qandayligi haqidami?

– Ha, — dedi u.

Shu tarzda professor bilan so'nggi fandan darslarimiz boshlangan, faqat hali men bundan bexabar edim.

Universitetda birinchi kursman. Morrining yoshi universitetimiz professorlarining ko'pchiligidan ulug'roq, meniki esa, maktabni bir yil ertaroq bitirganim uchun, kursdoshlarimnikidan kichikroq. Yoshimni yashirish maqsadida eski kulrang jemferlar kiyaman, sportzalda boks bilan shug'ullanaman, chekmasam-da, doim

labimga yoqilmagan sigaret qistirib yuraman. To'kilib qolgan "Merkuriy Kugar" mashinamning oynalarini tushirib, musiqani baland qo'yib haydayman. Men o'zligimni dag'allikdan izlasam-da, Morrining yumshoqfe'lligi meni o'ziga tortadi. U menga yosh boladek munosabatda bo'lmagani uchunmi, uning yonida o'zimni xotirjam sezaman: kattaroq ko'rinishga urinmayman.

U bizga dars bergan fan nihoyasiga yetgach, men yana u dars beradigan boshqa fanga yozilaman. Morridan baho olish oson, chunki ballar uni qiziqtirmaydi. Aytishlaricha, u bir yili – Vetnam urushi davrida barcha erkak talabalarga A baho qo'yib, ularni armiya chaqiruvidan qutqarib qolgan ekan.

Men Morriga "Murabbiy" deb murojaat qila boshladim, maktabda jismoniy tarbiya o'qituvchimni shunday chaqirardim. Morriga bu laqab yoqdi.

– Murabbiy — takrorlaydi u. — Nima ham derdim, endi murabbiyning bo'laman. Sen esa mening o'yinchim bo'lasan. Hayotning men qarilik qiladigan mo'jizakor jabhalarida o'rnimga to'p surishing mumkin.

Ba'zida universitet oshxonasida birga ovqatlanamiz. Morrining mendan battar palpisligi ko'nglimga taskin beradi. U chaynashni o'rniga jag'i tinmay gapiradi, og'zini katta-katta ochib kuladi, tuxumli salatga to'la og'zi bilan jo'shqin nutqlar so'zlaydi, bu paytda tishlari orasidan sarg'ish tuxum bo'lakchalari har yoqqa sochilayotganiga zarracha e'tibor bersa qani.

Uning bu qiliqlari juda g'ashimni keltiradi. Tanishganimizdan beri meni nuqul ikki istak taqib qiladi: uni quchoqlab olish va qo'lga sochiqcha tutqizish.

Sinxona

Ovqatlanish xonasi derazasidan tushayotgan quyosh nurlari parket polni yoritib turardi. Biz deyarli ikki soatdan beri suhbatlashayotgandik. Telefon qayta-qayta jiringladi va Morri yordamchisi Konnidan go'shakni ko'tarishini so'radi. U Morrining qora rangli kichik uchrashuv qaydlari daftarchasiga qo'ng'iroq qiluvchilarning ismlarini yozayotgandi. Do'stlari. Meditatsiya murabbiylari. Muhokama guruhi. Uning suratini jurnalida chiqarmoqchi bo'lgan muxbir. Keksa professorimdan xabar olishga oshiqayotgan bitta men emasligim ayon bo'ldi: "Tungi xabarlar"dagi suhbat uni mashhur qilib yuborgandi. Biroq Morrining bunchalik serdo'stligi meni hayratga soldi, balki bir oz hasad ham qilgandirman. Talabalik yillarimizda atrofimda girdikapalak bo'lgan "oshna"larimni esladim. Qani hozir ular?

– Bilasanmi, Mich, o'lim to'shagiga mixlanganimdan beri odamlar menga ko'proq qiziqish bildirib qoldi.

– Siz har doim qiziqarli inson bo'lgansiz.

– O, — jilmaydi Morri. — Juda iltifotlisan.

"Hecham iltifotli emasman", — xayolimdan o'tkazdim.

– Gap shundaki, — davom etdi Morri, — odamlar menga ko'prik sifatida qarashadi. Hozirgi ahvolimda meni tirik deb atash qiyin, lekin hali o'lganim ham yo'q. Na u yoqlik va na bu yoqlikman.

Uni yo'tal tutdi, so'ng yana yuziga tabassum yugurdi.

– Men buyuk safarga otlandim, odamlar esa so'nggi yo'lga nimalarni hozirlash zarurligini aytib ketishimni kutishyapti.

Yana telefon jiringladi.

– Morri, gaplasha olasizmi, — so'radi Konni.

– Bandman, eski qadrdonim meni ko'rgani kelgan, — ta'kidladi u, — keyinroq qo'ng'iroq qilishsin.

U meni bunchalik iliq kutib olganining sababi menga qorong'i.

Menda uni o'n olti yil oldin tark etgan istiqboli porloq talabadan asar ham qolmagan. "Tungi xabarlar" ko'rsatuvi bo'lmaganida, Morri men bilan qayta ko'rishmasdan o'lib ketgan bo'larmidi. O'zimni oqlash uchun zamonamizning barcha vakillari keltirishi mumkin bo'lgan yagona bahona bor edi: o'zimning ham tashvishlarim boshimdan oshib-toshib yotgandi. Juda band edim.

"Menga nima bo'ldi?", — savol berdim o'zimga. Morrining baland va bo'g'iq ovozi meni boylar – zolim, ko'ylak va bo'yinbog' – qamoqxona liboslari, tongda o'ringdan turgach mototsiklda yuzingni shamolga tutib Parij ko'chalari bo'ylab uchish yoki Tibetga yo'l olish erkinligidan mosuvo hayot – hayot emas, deb yurgan talabalik yillarimga qaytardi. *Menga nima bo'ldi?*

Saksoninchi yillar keldi. Keyin to'qsoninchi yillar. O'lim va xastalik nimaligini ko'rdim, semirdim, sochlarim to'kila boshladi. Sanoqsiz orzularimni kattaroq maoshga almashdim, qizig'i, nimalardan voz kechayotganimni anglab yetganim ham yo'q. Yonimda o'tirgan Morri esa, go'yoki men uzoq ta'tildan qaytgandek, hali ham universitet yillaridagidek dunyoga hayrat bilan boqardi.

- Qalbingni tortiq qilishga arziqli insonni topdingmi? — so'radi u.
- Odamlarga yaxshilik qilyapsanmi?
- Qalbing xotirjammi?
- Qo'lingdan kelganicha insoniylikka intilyapsanmi?

Yillar davomida o'zimni aynan shu savollar ustida chuqur bosh qotirgandek ko'rsatishga urinib, yolg'on ketidan yolg'on qalashtirdim. *Menga nima bo'ldi?* Hech qachon pul uchun ishlamayman, Tinchlik Korpusiga qo'shilaman, dunyoning go'zal va ilhombaxsh yerlarida hayot kechiraman deb o'zimga va'da bergandim-ku.

Aslida esa, mana o'n yildirki, faqat bir joyda – Detroytda ishlayman, faqat bitta bank xizmatlaridan foydalanaman va faqat bitta sataroshga qatnayman. Yoshim o'ttiz yettida; kompyuter, modem va mobil telefonlar asiriga aylanganman, mehnat samaradorligim

universitet davridagidan ko'ra ancha yuqori. Men kabi kishilarni nazariga ham ilmaydigan badavlat sportchilar haqida maqolalar yozaman. Endi yoshim atrofimdagilardan kichik ham emas, ortiq kulrang jemferlar kiyib olib, yoqilmagan sigaretni labimga qistirish orqali kattaroq ko'rinishga urinmayman ham. Tuxum salatli sendvich tanavvul qilish bahonasida hayot mazmuni haqida oxiri yo'q muhokamalarga kirishmayman.

Ish ko'pligidan nafas olishga ham vaqtim bo'lmasa-da, negadir hayotdan qoniqmaslik hissi meni ta'qib qilaveradi.

Menga nima bo'ldi?

– Murabbiy, — deb yubordim beixtiyor uning eski laqabi yodimga tushib.

Morrining yuziga nur yugurdi.

– Shunday. Men hali ham murabbiyingman.

U jilmayib qo'ydi va qirq daqiqa oldin boshlagan taomini yeyishda davom etdi. Men uning ovqatlanishini tomosha qildim: qo'llari shu qadar ehtiyotkorona harakatlanardiki, ko'rgan kishi Morri endigina qo'llaridan foydalanishni o'rganyapti deb o'ylardi. U pichoqni mahkam tuta olmasdi: barmoqlari qaltirardi. Har bir tishlam uning uchun butun bir kurash edi: yutishdan oldin luqmasini maydalab chaynardi. Ba'zan chaynagani og'iz chetlaridan oqib tushar, u esa sochiqcha bilan labini artish uchun qo'lidagini qo'yishga majbur bo'lardi. Terisi bilagidan mushtigacha qarilik dog'lari bilan qoplangan va sho'rvadagi tovuqning terisidek osilib qolgandi.

Biz – xasta qariya va yosh hamda sog'lom erkak bir oz muddat xona sukunatiga g'arq bo'lib, shu taxlit ovqatlandik. Xonadagi jimlik o'ng'aysiz edi, lekin bu o'ng'aysizlikni faqat men his qilayotgandek edim.

– O'lim, — dedi to'satdan Morri, — qayg'u chekishga arzigulik yagona narsa, Mich. Baxtsiz hayot kechirish umuman boshqa masala. Mendan xabar olgani kelganlarning ko'pchiligi baxtsiz.

– Nega?

– Xo'sh, birinchidan, mavjud qarashlarimiz odamlarga o'zlaridan qoniqish hosil qilish imkonini bermaydi. Biz yoshlarga yanglish qadriyatlarini singdiramiz. Jamiyatda mavjud qarashlar hayotingni zaharlasa, ularga amal qilma, deyish uchun jasorat kerak. Bunday hollarda o'z qarashlaringni yarat. Bu narsa aksariyat kishilarning qo'lidan kelmaydi. Ular mendan ham baxtsizroq, hattoki hozirgi ahvolimda ham. Men o'layotgan bo'lishim mumkindir, lekin meni yaxshi ko'radigan, mehribon yaqinlarim yonimda. Bunday deya oladiganlarning soni nechta deb o'ylaysan?

Men uning zarracha ham o'ziga achinmayotganidan lol qoldim. Raqs tushish, suzish, yuvinish va hattoki yurish baxtidan mosuvo Morri; eshigi taqillasa, borib javob bera olmaydigan, yuvinib chiqqach, artinishni eplay olmaydigan, yotoqda mustaqil boshqa tomonga o'girilib yotishga ham yaramaydigan Morri. Qanday qilib shuncha narsani bu qadar xotirjam qabul qilish mumkin? Uning sanchqini zo'rg'a ishlatayotganini kuzatdim: pomidor bo'lagini olishga urindi, dastlabki ikki urinishda uddasidan chiqa olmadi – qanday achinarli holat; shunga qaramasdan, Morrining yonimda ekanligi, xuddi talabalik yillarimdagidek, menga qandaydir osoyishtalik baxsh etganini inkor etolmayman.

Qo'l soatimga ko'z tashladim, tarki odat – amri mahol, jo'nash vaqtim yaqinlashib qolgandi, uyga qaytish parvozim vaqtini o'zgartirishimga to'g'ri keladi, menimcha.

– Bilasanmi, men qanday o'laman? — so'radi u.

Unga hayratlanib qaradim.

– Bo'g'ilib o'laman. Ko'ksov tufayli o'pkam xastalikka dosh berolmaydi. ALS tobora yuqorilab boryapti. Allaqachon oyoqlarimni ishdan chiqargan. U tez orada bilaklarim va qo'llarimga yetib keladi. Va navbat o'pkamga kelganida, — yelka qisib qo'ydi u, — umrim nihoyasiga yetadi.

Unga nima deyishni bilmasdim.

– Bilasizmi...Oldindan biror narsa deb bo'lmaydi, — dedim kalovlanib.

Morri ko'zlarini yumdi.

– Men bilaman, Mich. Lekin sen qo'rqma. Yaxshi umr kechirdim, o'lim haqligini esa hammamiz bilamiz. Yana to'rt-besh oycha vaqtim qolgan bo'lsa kerak.

– Qo'ysangiz-chi, — dedim asabiylashib, — Hech kim anig'ini bilmaydi...

– Men bilaman, — mayin ovozda javob qaytardi Morri. — Buni aniqlash mumkin bo'lgan kichik test ham bor. Menga shifokor ko'rsatgandi.

– Test?

– Bir necha marta nafas ol.

Uning aytganini bajardim.

– Yana bir marta nafas ol, faqat bu safar nafas chiqarayotganingda yana nafas olishdan oldin ulgurganingcha sana.

Nafas chiqarar ekanman, tez sanay boshladim.

– Bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti, sakkiz...

Nafasim tugashidan avval yetmishgacha sanashga ulgurdim.

– Yaxshi, — dedi Morri. — O'pkang sog'lom. Endi meni kuzat.

U nafas oldi va past, qaltiroq ovozda sanay boshladi.

– Bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to'qqiz, o'n, o'n bir, o'n ikki, o'n uch, o'n to'rt, o'n besh, o'n olti, o'n yetti, o'n sakkiz...

Shundan so'ng to'xtab, yutoqib nafas oldi.

– Shifokor birinchi marta bu mashqni qilishimni so'raganida, yigirma uchgacha sanagan edim. Hozir esa o'n sakkizgacha.

U ko'zini yumdi va bosh chayqadi:

– Yonilg'i bakim deyarli bo'shab qolgan.

Asablarim taranglashganidan sonimga mushtladim. Ko'rganlarim bir kun uchun yetarli edi.

Morri bilan quchoqlashib xayrlashdim.

– Keksa professoringni yana ko'rgani kel.

Oxirgi xayrlashuvimizda bergan shu kabi va'damni eslamaslikka harakat qilib, undan yana xabar olgani kelishga so'z berdim.

Morri bizga o'qishni buyurgan kitoblarni universitetdagi kitob do'konidan xarid qilaman. Avvallari men mavjudligini ham bilmagan kitoblarni sotib olaman: "Yoshlik: shaxsiyat va inqiroz", "Men va sen", "Shaxsning ikkilanishi".

Universitetga kirishdan oldin inson munosabatlarini o'rganish alohida fan hisoblanishi mumkinligini tasavvurimga ham sig'dira olmasdim. Morrini uchratgunimcha, bunday narsalarga ishonmasdim.

Uning kitoblarga bo'lgan ishtiyoqi shu qadar cheksizki, yuqtirib olmaslikni iloji yo'q. Ba'zan darsdan keyin, sinfxona bo'shagach, jiddiy suhbatga kirishamiz. U menga hayotim to'g'risida savollar beradi, keyin esa Erix Fromm, Martin Buber, Erik Eriksondan iqtiboslar keltiradi. Maslahat berar ekan, o'zi ham aynan shunday fikrdaligi aniq bo'lsa-da, ko'p hollarda ularning fikrlarini keltirib o'tadi. Aynan shu lahzalarda men uning shunchaki "amaki" emas, haqiqiy professor ekanligini tushunib yetganman. Kunlarning birida mening yoshimda jamiyat mendan nimalarni kutishi va o'zim nimani xohlashimni aniq farqlab olish qiyinligidan shikoyat qildim.

– Senga qarama-qarshiliklar tortishuvi haqida aytganmanmi? — so'radi u.

– Qarama-qarshiliklar tortishuvi?

– Hayot tortishuvlar ketma-ketligidan iborat: goh oldinga, goh orqaga. Sen nimanidir qilishni xohlaysan, lekin butunlay boshqa narsani qilishga to'g'ri keladi. O'zing uchun mutlaqo bezarar deb o'ylagan narsang seni jarohatlaydi. Hech narsa o'z-o'zidan bo'lmasligini bilsang ham ma'lum narsalarga ular bor bo'lishi shartdek qaraysan. Qarama-qarshiliklar tortishuvi rezina bog'ichni

tarang tortganingdagi holatga o'xshaydi. Ko'pchiligimiz esa shu bog'ichning o'rtasida yashaymiz.

– Kurash musobaqasini eslatarkan, — deyman men.

– Kurash musobaqasi, — kuladi u. — Ha, hayotni shunday tasvirlasa ham bo'ladi.

– Xo'sh, bu kurashda kim g'olib chiqadi? — so'rayman men.

– Kim g'olib chiqadi? — jilmayadi u egri tishlarini ko'rsatib. Ko'zlari atrofidagi ajinlar yig'iladi. — Muhabbat g'olib chiqadi. Har doim muhabbat g'alaba qozonadi.

Davomat

Bir necha haftadan so'ng Londonga uchdim. Uimblon turnirini yoritib borishim kerak edi. Dunyoning eng nufuzli tennis musobaqasi – tomoshabinlar o'yinchilarning ruhini tushirish uchun baqirmaydigan va avtoturargohda mast-alast yurmaydigan kam sonli tadbirlardan biri. Bunday tadbirlarni kam uchrataman. Angliyada havo iliq va bulutli edi, har tong tennis kortlariga yaqin ikki cheti qator daraxtlar bilan qoplangan ko'cha bo'ylab sayrga chiqardim. Yo'limda sotilmay qolgan chiptalar uchun navbatda turgan o'smirlar, qaymoq va qulupnay sotib yurgan chayqovchilarga duch kelardim. Darvoza yoniga ilingan yangiliklar peshtaxtasida yarim-yalang'och ayollarning rasmlari, qirollik oilasining paparatsilar olgan suratlari, munajjimlar bashorati, sport xabarlari, lotereya o'yinlari va oz-moz haqiqiy yangiliklar ham chop etilgan bir qancha sariq matbuot ro'znomalari sotilardi. Kunning eng muhim yangiligi yangi keltirilgan gazetalar taxlamiga suyab qo'yilgan kichik bo'rdoskaga yozib qo'yilar va odatda: "Diana va Charlz janjali!" yoki "Gazza jamoasiga: Menga millionlar kerak!" kabi sarlavhalardan iborat bo'lardi.

Odamlar mazkur ro'znomalarni bir pasda bitta qoldirmay sotib olishar, ularda berilgan g'iybatlarni maroq bilan o'qishar edi; oldingi Angliya safarlarida men ham hech ulardan qolishmasdim. Endi esa har gal biror ahmoqona yoki yengil-yelpi xabarni o'qiganimda, negadir Morri yodimga tushardi. Xayolimda u hovlisida qizil zarang daraxti qad ko'tarib turgan parket polli uyda nafasini sanab, qolgan har bir daqiqasini yaqinlari davrasida o'tkazayotgan holda gavdalanardi. Men esa bu paytda soatlab vaqtimni o'zim uchun zarracha ahamiyati bo'lmagan narsalarga sovurardim: kino yulduzlari, supermodellar, Jon Kennedining o'g'li, Madonna yoki Malika Di hayotidagi so'nggi mojarolar. Qanchalik g'alati tuyulmasin, Morrining vaqti tobora kamayib borayotganiga achinsam-da, u bu vaqtni mendan ko'ra mazmunliroq o'tkazayotganiga hasad qilardim. Nega biz vaqtimizni bunday bema'ni xabarlarga sarflaymiz? O'sha paytda AQShda O. J. Simpson ustidan borayotgan sud jarayoni ayni qizg'in pallaga kelgan, aksariyat kishilar tushlikka ajratilgan soatlarini to'laligicha mazkur jarayonni tomosha qilishga sovurar, ulgurmay qolgan qismini esa tunda ko'rish maqsadida tasmaga yozib olardi. Ularning hech biri O. J. Simpson bilan tanish emasdi. Sud ishiga aloqador kishilar bilan ham. Ammo ular bari bir boshqa birovning fojiasiga mukkasidan ketib, kunlab, haftalab umrini qurbon qilardi.

Morrining oxirgi suhbatimizda aytganlari yodimga tushdi: *“Mavjud qarashlarimiz odamlarga o'zlaridan qoniqish hosil qilish imkonini bermaydi. Jamiyatda mavjud qarashlar hayotingni zaharlasa, ularga amal qilma, deyish uchun jasorat kerak”*.

Shu so'zlarga amal qilgan Morri xastalikka chalinishidan ancha oldin o'z qarashlarini yaratgan edi. Muhokama guruhlari, do'stlar bilan sayrga chiqish, Garvard maydonidagi cherkovda o'z musiqasiga raqs tushish. Morri nochor odamlarga bepul ruhiy xastaliklarni davolash xizmatlarini ko'rsatuvchi “Issiqxona” nomli loyihaga asos

solgandi. U darslari uchun yangi g'oyalar topish maqsadida kitoblar o'qir, hamkasblari bilan uchrashar, sobiq talabalari bilan xabarlashib turar, uzoqdagi do'stlari bilan xat yozishar edi. U bir daqiqasini ham teleseriallar yoki "Hafta filmlari" tomoshasiga sovrmas, bo'sh vaqtini ko'proq ovqat va tabiatdan bahra olishga sarflardi. Morri suhbat, muloqot va mehr-oqibatdan iborat mashg'ulotlar to'plamini yaratgan va shu bilan uning hayoti sho'rvaga limmo-lim to'la kosadek to'lib turardi.

Men ham o'z qadriyatimni yaratgandim: ish. Fokus ko'rsatayotgan masxaraboz kabi Angliyada matbuot uchun bir vaqtning o'zida to'rt-beshta vazifani bajarardim. Hikoyalarimni AQSHga yuborish uchun har kuni sakkiz soat vaqtimni kompyuter oldida o'tkazardim. Bundan tashqari, televideniye uchun reportajlar tayyorlash maqsadida suratga olish guruhi bilan Londonning turli qismlarini kezardim. Shuningdek, har kuni tongda va tushdan keyin telefon orqali radio reportajlarda ishtirok etardim. Shunday sur'atda ishlashga ko'nikib qolgandim. Yillar davomida ish mening eng yaqin hamrohimga aylangan, ishdan boshqa barcha narsani bir chetga surib qo'ygandim.

Uimblonda paytim mittigina yog'ochli ish kabinamda ovqatlanar va buni tabiiydek qabul qilardim. O'ta tig'iz kunlarning birida, bir to'da muxbirlar Andre Agasse va uning mashhur ma'shuqasi Bruk Shilds ortidan quvib ketayotib, bo'yniga katta fotoapparat osib olgan ingliz muxbirlaridan biri meni turtib yubordi – yerga quladim; u esa zo'rg'a "kechirasiz" deyishga ulgurar-ulgurmas, halloslab yo'lida davom etdi. O'shanda Morrining boshqa bir gapi yodimga tushdi: *"Qanchadan-qancha kishilar mazmunsiz hayot kechiradi. Ular hatto o'zlari muhim deb o'ylagan mashg'ulotlarni ham mudroq holatda bajarayotgandek tuyuladi. Chunki ular yanglish narsalar ortidan quvishadi. Hayotingga mazmun olib kirish uchun o'zingni boshqalarga mehr berish, jamiyatga hissa qo'shish hamda senga*

maqsad va mazmun taqdim etuvchi nimanidir yaratishga bag'ishlashing kerak".

Uning haq ekanini bilardim. Lekin amal qilmasang, bilganingdan nima naf?

Turnir oxiriga yetdi, u bilan birga meni oyoqda tutib turgan tuganmas qahvaxo'rlk ham nihoyasiga yetdi. Kompyuterimni yopdim, ish kabinamni tozalab, narsalarimni ketishga hozirlash uchun xonamga qaytdim. Juda kech bo'lib qolgandi. Hatto televideniye dasturlarining uzatilish vaqti ham tugagandi.

Detroytga uchdim, kun oxirlaganda qo'ndik, zo'rg'a uyimga yetib oldim va uxlashga yotdim. Uyg'onganimga meni qarshi olgan yangilikdan esankirab qoldim: men ishlaydigan gazeting kasaba uyushmasi a'zolari ish tashlash e'lon qilindi. Ishxona yopilgandi. Asosiy kirish eshigining oldi piketchilar bilan to'lgan, namoyishchilar ko'chani u boshidan bu boshiga yurib, o'z noroziliklarini bildirishayotgandi. Kasaba uyushmasi a'zosi bo'lganim uchun o'zga choram yo'q edi: kutilmaganda, umrimda birinchi marta ishsiz, maoshsiz va ish beruvchilarimga qarshi kurash holatida qolib ketgandim. Sobiq muharrirlarimning aksariyati bilan do'st edim. Kasaba uyushmasi yetakchilari uyimga qo'ng'iroq qilib, ular bilan hech qanday muloqotga kirishmasligimni, birortasi men bilan aloqaga chiqib, murosa qilishga urinsa, go'shakni qo'yib qo'yishim kerakligini uqtirishdi.

– G'alaba qozongunimizcha kurashamiz! – xuddi askarlardek qasamyod qilishdi kasaba uyushmasi yetakchilari.

Sarosima va tushkunlik ichida qoldim. Radio va televideniyaedagi ishlarim yaxshigina qo'shimcha daromad keltirsa-da, gazeta men uchun hayot manbai, suv va havodek muhim edi. Har tong nashrdan chiqqan maqolalarimni ko'rishim hech bo'lmaganda bir jabhada tirik ekanimni bildirib turardi.

Endi esa undan mahrum bo'ldim. Birinchi kun o'tdi, keyin ikkinchi,

uchinchi kun... Ish tashlash davom etarkan, u oylab cho'zilishi mumkinligi haqida xavotirli qo'ng'iroqlar bo'lar, turli mish-mishlar yurardi. Hayotim ostin-ustun bo'lib ketdi. Har oqshom sport tadbirlari o'tkazilardi, odatda ularni yoritib borish uchun hech biridan qolmasdim. Endi esa uyda o'tirib, ularni televizorda tomosha qilardim. O'quvchilar mening maqola va reportajlarimga muhtoj degan xayol miyamga o'rnashib qolgandi. Hayot mensiz ham bir maromda davom etayotgani tasavvurimga sig'masdi.

Bir haftadan so'ng telefonni olib, Morrigan sim qoqdim. Konni uni telefon yoniga olib keldi.

– Meni ko'rgani kelyapsan, a, – dedi u. Uning gapi savoldan ko'ra, ko'proq tasdiq ohangida yangradi.

– Ha. Borsam maylimi?

– Xo'o'p, seshanba kuniga nima deysan?

– Seshanba to'g'ri keladi, – javob qaytardim men. – Seshanba men uchun ham qulay.

Ikkinchi kursda u dars beradigan yana ikkita fanga qatnasha boshladim. Vaqti-vaqti bilan shunchaki suhbat qurish uchun sinfxonadan tashqarida ham uchrashadigan bo'ldik. Avvallari qarindoshim bo'lmagan katta yoshli kishilar bilan hech qachon biror yerda o'tirmaganman, shunday bo'lsa-da, Morri bilan biror yerga borishdan tortinmayman, u ham vaqt ajratishga og'rinmaydi.

– Bugun qayerga boramiz? – quvnoq ovozdada so'raydi u ofisiga kirishim bilan.

Bahorda Jamiyatshunoslik fakulteti binosining tashqarisidagi daraxtlar ostida o'tiramiz, qishni esa uning kabinetidagi yozuv stoli yonida o'tkazamiz – men kulrang jemfer va "Adidas" krossovkada, u esa Rokport charm poyabzali va chiyduxoba shimda. Har galgi suhbatimizda u mening bir bog'dan bir tog'dan kelib, bir nimalarni vaysashimga quloq tutadi, keyin esa menga hayotiy tajribalaridan saboq berishga urinadi. Universitetda keng tarqalgan qarashlarga

qarshi o'laroq, pul hayotda eng muhim narsa emasligini uqtiradi. "Tom ma'nodagi insoniylik"ka intilishim zarurligini aytadi. U yoshlarning o'z qobig'iga o'ralib olishga moyilligi hamda inson jamiyatga "qo'shilib" yashashga ehtiyojmand ekani haqida gapiradi. Uning aytganlaridan ayrimlarini tushunaman, ayrimlarini esa yo'q. Lekin bu ahamiyatsiz. Suhbatlarimiz men uchun Morri bilan gaplashishga bir bahona. Huquqshunos bo'lishimni istagan dadam bilan Morri kabi ota-boladek suhbat qura olmayman.

Morri huquqshunoslarni xushlamaydi.

– O'qishni tamomlaganingdan keyin nima qilmoqchisan? – so'raydi u.

– Musiqachi bo'lishni xohlayman, – javob qaytaraman men. – Pianinochi.

– Ajoyib, – deydi u, – lekin mashaqqatli yo'lni tanlabsan.

– Ha.

– Nahanglari ko'p.

– Men ham shunday deb eshitganman.

– Lekin bari bir, – davom etadi u, – buni chin dildan xohlasang, orzuyingni amalga oshira olasan.

Bu so'zlari uchun uni bag'rimga bosib, minnatdorchilik bildirgim keladi, lekin tabiatan tortinchoqman. Shunchaki, bosh irg'atib qo'ya qolaman.

– Garov o'ynashim mumkin, sen pianinoni zavq-shavq bilan chalasan, – deydi u.

Men kulaman:

– Zavq-shavq?

U ham jilmayadi:

– Ha, zavq-shavq bilan. Nima bo'пти? Hozir hech kim bu so'zni ishlatmaydimi?

Birinchi seshanba: borliq haqida suhbatlashamiz

Konni eshikni ochib, meni ichkariga taklif qildi. Morri oshxona stoli yonida nogironlar aravachasida o'tirar, keng paxta ko'ylak va undan ham kengroq ishton kiyib olgandi. Morrining oyoqlari qurib, soni ikki kaft ichiga sig'adigan darajada ozib ketganligi sababli uning ishtoni haddan tashqari keng bo'lib ko'rinardi. Agar tik tura olganda edi, bo'yi besh futdan oshmas, oltinchi sinf bolasining jinsi shimi unga bemalol sig'gan bo'lardi.

– Sizga bir narsa keltirdim, — jigarrang qog'oz qopchani qo'limda tutganча e'lon qildim men. Aeroportdan kelishimda yo'l yoqasidagi do'konda to'xtab, bir oz kurka go'shti, kartoshka salat, makaron salat va bir nechta kulcha non sotib olgandim. Uyda yetarlicha oziq-ovqat borligini bilardim, shunday bo'lsa-da, nimadir hadya qilishni xohladim. Boshqa usulda yordam berishga o'jiz edim. Bundan tashqari, Morrining ovqatxo'rliги ham yodimda edi.

– Ehhe, shuncha yegulik, — Morrining yuziga xursandchilik yugurdi. — Lekin endi bularni birga yeyishmasang bo'lmaydi.

Atrofi to'qima kursilar bilan o'ralgan oshxona stoli yoniga o'tirdik. Bu safar o'n olti yillik ayriliqning o'rnini to'ldirishga ehtiyoj bo'lmagani sababli bir pasda universitet davridagi mavzularimiz muhokamasiga sho'ng'idik. Morri menga savollar beradi, javoblarimni tinglaydi va ora-orada to'xtatib, tajribali oshpaz taom ta'mini yaxshilash uchun unga ziravor qo'shgani kabi men aytishni esdan chiqargan yoki mening xayolimga kelmagan fikrlar bilan mulohazalarimni to'ldirib turadi. U nashriyotimizdagi ish tashlash haqida so'radi va kutilganidek nima sababdan ikkala tomon oddiygina muloqotga kirishib, muammolarini hal qilib qo'ya qolmasligi uning mantig'iga sig'masdi. Unga hamma ham u kabi dono emasligini aytdim.

Vaqtivaqti bilan hojatxonaga borish uchun tanaffus qilishimizga to'g'ri kelardi: bu jarayon anchagina vaqt olardi. Konni uni

aravachasida hojatxonagacha surib borar, keyin turishga yordamlashib, tuvakka hojatini chiqarguncha suyab turardi. Har safar hojatxonadan qaytganda sillasi qurigani ko'rinib turardi.

– Ted Koppelga yaqin orada kimdir orqamni ham artib qo'yishiga to'g'ri kelishini aytganim, esingdami? — so'radi u.

Men kuldim. Bunday gaplar osonlikcha esdan chiqmaydi.

– Xullas, o'sha kun yaqinlashyapti. Shu narsa meni xavotirga soladi.

– Nega?

– Chunki bu qaramlikning yaqqol belgisi. Kimdir tagingni artib qo'yishi. Lekin buni ustida ishlayapman. Shu jarayondan ham zavq olishga urinyapman.

– Zavq olishga?

– Ha. Bundoq o'ylab qaragam, yana bolalikka qaytish imkonim bor ekan.

– Bu jarayonga o'zgacha nigoh bilan qarash.

– Endi hayotga o'zgacha nigoh bilan boqishga majburman. Tan olaylik: bozor-o'charga chiqolmayman, to'lovlarni amalga oshirish uchun bankka borolmayman, chiqindilarni tashlab kelishga ham yaramayman. Ammo shu yerda qolgan kunlarimni sanab, hayotda o'zim uchun muhim deb o'ylagan narsalarimni kuzatib o'tirish qo'limdan keladi. Buning uchun menda sabab ham bor, vaqtim ham bermalol.

– Demak, — dedim men ham javobimda uning sinik kayfiyatini aks ettirib, — hayot mazmunini topishning siri uydagi chiqindilarni tashqariga chiqarmaslikda ekan-da?

Uning gaplarimdan kulganini ko'rib yengil tortdim.

Konni ovqatdan bo'shagan idishlarni olib chiqib ketarkan, ko'zim gazetalar to'plamiga tushdi. Ular men kelishimdan oldin o'qilgani ko'rinib turardi.

– Yangiliklarni kuzatib borasizmi? — so'radim men.

– Ha, — dedi Morri. — Bu senga g'alati tuyulyaptimi? O'lyapman

deb dunyoda nimalar sodir bo'layotganiga qiziqmasligim kerakmi?

– Balki.

U xo'rsindi.

– Balki sen haqdirsan. Ehtimol, bu narsalar meni qiziqtirmasligi kerakdir. Bari bir ular qanday yakun topishini ko'rishga ulgurmasam. Lekin buni tushuntirish qiyin, Mich. Hozir o'zim azob chekayotganim uchun boshqa azoblanayotganlarning dardini oldingidan-da yaxshiroq his qilaman. Yaqinda televizordan Bosniyada ko'chani yugurib kesib o'tayotgan odamlar o'qqa tutilganini, o'ldirilganini ko'rsatishdi. Begunoh qurbonlarni ko'rib, ko'zimga yosh keldi. Ular chekayotgan azob-uqubatlarni o'z boshimdan kechirayotgandek his qildim. U odamlarning hech birini tanimayman. Ammo... Qanday tushuntirsam ekan? Meni...ular bilan qandaydir rishta bog'lab turgandek tuyuladi.

Uning ko'zlari namlandi, men esa mavzuni o'zgartirishga urindim, biroq u yuzini artib, qo'lini siltadi.

– Salga yig'laydigan bo'lib qolganman, — dedi u. — E'tibor berma.

“Taajjub” ichimda o'ylayman men. O'zim yangiliklar sohasida ishlardim. O'lganlar haqidagi voqealarni yoritardim. Motam tutayotgan oila a'zolari bilan suhbatlashardim. Hatto dafn marosimlarida ham ishtirok etardim. Lekin hech yig'lamagandim. Morri esa dunyoning narigi yarmida yashayotgan insonlarning azoblanishini ko'rib ko'z-yosh to'kayotgandi. Qiziq, odam umri oxirlaganda shu holatga tushib qolarmikan? Balki o'lim oxir-oqibat mutlaqo begonalarni ham bir-biriga achinib, ko'z-yosh to'kadigan qilib qo'yuvchi ulkan langarcho'pdir.

Morri sochiqchaga burnini qoqdi.

– Sen bu narsani to'g'ri tushunasan, a? Erkaklar ham yig'lashini?

– Albatta, — deb, javob qaytardim tezda.

U jilmaydi.

– Eh, Mich, men bilan ko'ngli bo'sh insonga aylanasan. Kuni kelib,

yig'lash normal holat ekanini isbotlayman senga.

– Ha, ha, — dedim men.

– Ha, ha, — dedi u ham.

Ikkimiz ham kulib yubordik, chunki Morrining yigirma yilcha oldin shu gapni ko'p takrorlash odati bor edi. Asosan, seshanba kunlari. Aslida, seshanba har doim birgalikda o'tkazadigan kunimiz bo'lgan. Morrining men qatnashgan darslari seshanbada bo'lardi, uning qabul soatlari seshanba kunlariga belgilangandi, va nihoyat, men Morri tavsiya qilgan mavzuda diplom ishini yozayotganimda ham boshidanoq Morri bilan seshanba kunlari goh uning kabinetida, goh universitet oshxonasida, gohida esa Perlman Xoll korpusining zinapoyalarida birga o'tirib mavzu ustida ishlardik.

Shu sababli hovlisida qizil zarang daraxti qad ko'targan uydagi uchrashuvlarimizni ham seshanbadan boshqa kuni o'tkazib bo'lmaydigandek tuyulardi. Ketishga hozirlanayotib, Morriga shu haqida eslatdim.

– Biz seshanba odamlarimiz, — dedi u.

– Seshanba odamlari, — takrorladim men.

Morri jilmaydi.

– Mich, sen o'zim tanimagan insonlar haqida ham qayg'urishim to'g'risida so'raganding. Lekin shu xastalik tufayli o'zim anglab yetgan eng muhim narsa nimaligini aytaymi?

– Nima ekan?

– Hayotda eng muhim narsa bu — o'zgalarga mehr ulashish va uni o'zing ham qabul qilishni o'rganish.

Uning ovozi pasayib, shivirlab gapini davom ettirdi.

– Mehrni qabul qila bilish. O'zimizni mehr-muhabbatga noloyiq deb o'ylaymiz; unga qalbizni ochsak, o'ta ko'ngilchan bo'lib qolamiz deb o'ylaymiz. Ammo Levin ismli bir dono kishi to'g'ri aytgan: “Mehr-muhabbat — bu yagona oqilona amal”.

Ta'sirli chiqishi uchun bir oz tin olib, keyin yana takrorladi: “Mehr-

muhabbat — bu yagona oqilona amal”.

Men odobli talaba kabi bosh irg‘ab, tasdiqladim va u beholgina nafas chiqardi. Men uni bag‘rimga bosish uchun egildim. Keyin esa o‘zimga xos bo‘lmagan ishni qilib, uning yuzidan o‘pib qo‘ydim. Uning siyraklashib borayotgan soqol mo‘ylari yuzimga botib, bemajol qo‘llarini qo‘llarimga tegganini his qildim.

– Demak, keyingi seshanba kelasan, a? — shivirlab so‘radi u.

U sinfga kirib, bir so‘z aytmadan kursisiga borib o‘tiradi. Indamay bizga qaraydi, biz unga qaraymiz. Avvaliga bir-ikki burchakdan qiqirlab kulgan ovoz eshitiladi, biroq Morri faqat yelkasini uchirib qo‘yadi, xolos. Oxir-oqibat, sinfni chuqur sukunat egallaydi va biz eng past tovushlarni ham ilg‘ay boshlaymiz: xona burchagidagi isitish radiatorining g‘uvullashi, baqaloq talabalardan birining pishillab nafas olishi.

Ba‘zilarimiz asabiylasha boshlaymiz. Qachon u biror gap aytarkan? Tipirchilab, qo‘l soatlarimizni tekshiramiz. Ba‘zi talabalar o‘zlarini bularning barchasidan yuqoriroq turadigandek tutib, derazadan tashqarini tomosha qiladi. O‘n besh daqiqacha davom etgan jimjitlikdan so‘ng Morri pichirlab, sukunatni buzadi.

– Bu yerda nima bo‘lyapti?

Sekin-asta Morri ko‘zlaganidek sukunatning inson munosabatlariga ta‘sirini muhokama qila boshlaymiz. Nega jimjitlikdan xijolat chekamiz? Shovqin-suron bizga qanday tasalli beradi?

Sukunat menga xalal bermaydi. Do‘stlarim bilan tinimsiz chug‘urlashsam-da, odamlar oldida his-tuyg‘ularim haqida gapirishdan tortinaman, ayniqsa, ular kursdoshim bo‘lmasa. Agar darsda shu talab qilinsa, men soatlab jimjitlikda o‘tirishim mumkin.

Sinfdan chiqayotganimda Morri meni to‘xtatadi.

– Bugun kam gapirding, — deydi u.

– Bilmasam. Qo‘shimcha qilishga arziqli fikr kelmadi.

– Menimcha, senda qo‘shimcha qilishga fikrlar ko‘p. Rostini aytsam,

menga yoshligida sen kabi o'ylarini ichida saqlashni xush ko'rgan bir kishini eslatasan, Mich.

– *Kimni?*

– *Meni.*

Ikkinchi seshanba: O'z-o'ziga achinish haqida suhbatlashamiz

Keyingi seshanba yana Morrini ko'rgani bordim. Undan keyingi seshanba kunlari ham. Ushbu tashriflarni siz o'ylaganingizdan-da ko'proq intiqib kutardim, o'layotgan odamning boshida o'tirish uchun har hafta yetti yuz mil masofadan uchib borganimdan ham bilib olavering. Morrining yonidaligimda o'zimni boshqa davrga tushib qolgandik his qilardim va o'sha davrdagi men o'zimga ko'proq yoqardi. Aeroportdan manzilgacha bo'lgan masofani bosib o'tishda foydalanish uchun ijaraga mobil telefon olishni to'xtatdim. “Kerak bo'lsa, kutishadi”, - ta'kidlardim o'zimga, Morriga taqlid qilib.

Detroytda nashriyot bilan bog'liq mojaro tinchimadi. Aksincha, yanada avj oldi. Ish tashlovchilar va ularning o'rniga ishga olinganlar o'rtasida keskin to'qnashuvlar sodir bo'la boshladi; yuk mashinalari qatnovini to'sib, yo'lga yotib olganlar kaltaklanar va hibsga olinardi.

Shu voqealar ta'siri ostida, Morri bilan o'tkazilgan uchrashuvlarim menga inson mehri yordamida poklanishdek tuyulardi. Biz hayot haqida, muhabbat haqida suhbatlashardik. Morrining sevimli mavzularidan biri – rahmdillik va jamiyatimizda uning taqchilligi sabablari haqida ham suhbatlashdik. Uchinchi tashrifimdan oldin “Non va tomosha” deb nomlangan do'konda to'xtab o'tdim – Morrining uyida ularning yorlig'i tushirilgan paketlarga ko'zim tushgandi, Morri ularning mahsulotlarini yoqtirsa kerak deb o'yladim, – plastik idishga qadoqlangan sabzavotli vermishel, sabzi sho'rva va

pahlava kabi bir qancha mahsulotlardan ko'pgina xarid qildim.

Morrining kabinetiga kira solib, xuddi hozirgina bankni tunab qaytgandek, qo'limdagi pakatlarni tepaga ko'tardim.

– Oziq-ovqat yetkazib berish xizmati! – qichqirdim men.

Morri ko'z qorachiqlarini aylantirib, jilmaydi.

Men esa kasallik rivojlanishining yangi belgilari paydo bo'lmadimikan deb uni zimdan ko'zdan kechiraman. Barmoqlari qalam ushlab yoki ko'zoynagini tutib turish kabi vazifalarni yaxshi bajarayotgandi, lekin u qo'llarini ko'krigidan yuqoriga ko'tara olmasdi. U kundan kunga oshxona va mehmonxonada kamroq vaqt o'tkazib, ko'proq kabinetidagi yostiqlar, yopinchiqlar va qurib qolgan oyoqlari uchun maxsus yasalgan penoplast tirgaklar bilan yasatilgan yumshoq kresloda yotardi. Uning yonida qo'ng'iroqcha turardi va yostiqni to'g'rilab qo'yish yoki, uning tili bilan aytganda, “tashqariga chiqib kelish” zarur bo'lganda, qo'ng'iroqni chalib, shaxsiy qarovchilari armiyasidagilardan biri – Konni, Toni, Berta yoki Eymini yordamga chaqirardi. Morri uchun qo'ng'iroqni ko'tarish har doim ham oson kechmasdi va buni uddalay olmagan paytlari o'zidan hafsalasi pir bo'lardi.

Morridan “o'zingizga achinasizmi?” deb so'radim.

– Ba'zan, ertablari, – javob berdi u, – odatda aynan shu vaqtda motam tutaman. Uyg'onib, butun tanamni paypaslayman: qo'llarim, barmoqlarim va boshqa nimaiki a'zolarim ishlayotgan bo'lsa, hammasini qimirlatib ko'raman va ishdan chiqqan tana a'zolarimga aza tutaman. O'lim meni sekin-asta, makkorona yo'l bilan mahv etayotganidan chuqur qayg'uga botaman. Keyin esa birdaniga zorlanishni to'xtataman.

– Shunday osongina-ya?

– Yig'lagim kelsa, yaxshigina yig'lab olaman. Lekin keyin diqqatimni meni hali tark etmagan ijobiy narsalarga qarataman. Mendan xabar olgani kelayotgan odamlarga. Ulardan eshitadigan hikoyalarga.

Agar seshanba bo'lsa, senga. Chunki biz seshanba odamlarimiz. Men jilmaydim. Seshanba odamlari.

– Mich, shundan ortiq o'zingga achinishim mumkin emas. Har tong oz-ozdan, bir-ikki tomchi ko'z-yosh to'kaman, bo'ldi.

Men tonglari soatlab o'z qadriga achinib o'tiradigan tanishlarimni yodga olaman. O'zingga achinishning kunlik miqdoriga cheklov qo'yish qanchalar foydali bo'lardi. Bir necha daqiqa ko'z yosh to'kasan, keyin yana kundalik hayotingni davom ettiraverasan. Agar shunday dahshatli xastalikka chalingan Morri buni uddalayotgan bo'lsa...

– Xastaligimni dahshatli deb hisoblasanggina, u dahshat soladi, – dedi Morri. – Jismim qovjirab, yo'q bo'lib ketayotganini kuzatish dahshatli. Boshqa tomondan, u menga hamma bilan xayrlashish uchun vaqt berayotgani quvonarli, – jilmaydi u. – Hamma ham menchalik omadli emas.

Men uni diqqat bilan kuzatdim: o'rnidan turish, yuvinish va hatto shimini ko'tarib qo'yishni ham eplolmaydi. Shumi omad? Nahotki u buni chindan ham omad deb bilsa?

Tanaffus paytida – Morri hojatxonaga chiqqanida, uning kursisi yonida yotgan Boston gazetasini varaqladim. Unda bir kichik shaharchada ikki nafar o'smir qiz ular bilan do'stlashgan yetmish uch yoshli qariyani qiynab o'ldirib, keyin uning uy-vagonida do'stlariga bazm uyushtirib, murdani kelganlarga ko'z-ko'z qilib, qilgan ishlaridan maqtangani haqidagi maqolaga ko'zim tushdi. Boshqa maqolada bir erkak unga teleko'rsatuv orqali sevgi izhor qilgan gey kishini o'ldirgani va tez orada uning ishi sudda ko'rilishi haqida hikoya qilingandi.

Gazetani joyiga qo'ydim. Har doimgidek yuzidan tabassum arimaydigan Morrini xonaga surib olib kirishdi, Konni uni ko'tarib, nogironlar aravachasidan yumshoq kresloga o'tqazib qo'yish uchun egildi.

– Istasangiz, men o‘tqazib qo‘yaman? – dedim men.

Oraga bir lahza jimlik cho‘kdi, nega to‘satdan bunday taklif bildirganimni o‘zim ham bilmasdim. Biroq Morri Konniga qaradi va:

– Qanday qilishni unga ko‘rsatib yuborasanmi? – deb so‘radi.

– Albatta, – javob qildi Konni.

Uning ko‘rsatmalariga amal qilgan holda ikki qo‘limni Morrining qo‘ltiqlari ostidan o‘tkazib birlashtirdim va katta bolorni tagidan ushlab ko‘targandek uni o‘zimga tortdim. Keyin esa qaddimni tiklab, uni ko‘tardim. Odatda biror kishini ko‘targaningizda, ularning yiqilmaslik uchun qo‘llari bilan bo‘yningizdan quchoqlab olishini kutasiz, ammo Morri bunday qilolmasdi. U jonsiz yukdek tuyulardi, uni ko‘targanimda boshi ohista yelkamga urildi, tanasi o‘ta yumshoq ulkan nondek shalvirab qolgandi.

– Aaaahhh, – sekin ingradi Morri.

– Tutib turibman sizni, tutib turibman, – dedim men.

Uni mana shunday bag‘rimga bosib, tutib turganimda, qalbidamda uyg‘ongan his-tuyg‘ularni ta‘riflab berolmayman. Uning so‘lib borayotgan tanasida o‘lim urug‘lari nish urayotganini his qildim. Uni kursiga yotqizib, yostiqni boshiga to‘g‘rilab qo‘yar ekanman, achchiq haqiqatni – vaqtimiz tugab borayotganini angladim.

Nimadir qilishim shart edi.

1978-yil, universitetda uchinchi kurs talabasiman. Disko musiqasi va “Rokki” filmi rosa urf bo‘lgan paytlar. Brandeysda jamiyatshunoslik fanidan Morrining “Guruhlardagi jarayon” nomli noodatiy darsida o‘tiribmiz. Har hafta guruhimizdagi talabalarning o‘zaro munosabatlarini o‘rganamiz, ular jahl, rashk va e‘tiborga qanday javob bildirishlarini kuzatamiz. Biz – odam qiyofasidagi tajriba kalamushlarimiz. Aksariyat hollarda birortamiz yig‘lab yuboramiz. Men jamiyatshunoslik darslariga “ta‘sirchan va ko‘ngilchan” deb nom qo‘yib olganman. Morri meni teran fikrli bo‘lishga chaqiradi.

Shu kuni Morri biz uchun mashq tayyorlab qo‘yganini aytadi.

O'rnimizdan turib, bir kursdoshimizga orqa burishimiz va u bizni tutib qolishiga ishonib, ortga yiqilishimiz so'raladi. Ko'pchilik ichida o'ng'aysizlanadi, orqaga bir-ikki dyuym og'ib, keyin yiqilishdan o'zini to'xtatib qoladi. Xijolat ichida kulamiz. Va nihoyat, ozg'in, kamgap, qora sochli, deyarli har doim baliqchinikidek keng oq jemferlar kiyib yuradigan qiz qo'llarini ko'ksiga chalishtirib, ko'zlarini yumgancha o'zini orqaga tashlaydi, xuddi Lipton choyi reklamasidagi model qiz o'zini suvga tashlagandek.

Bir soniya u yerga gursillab tushadigandek tuyuladi menga. So'nggi lahzalarda sherigi uning boshi va yelkalaridan tutib qolib, yuqoriga itaradi.

– Uxxxx, – baqirib yuboradi bir nechta talaba. Ba'zilar qarsak chaladi. Morri tabassum qiladi.

– Ko'rdingmi, – deydi u qizga, – sen ko'zingni yumding. Boshqalardan farqing shunda edi. Ba'zida ko'zimiz bilan ko'rib turgan narsalarimizga ishonolmaymiz, shunda ichki tuyg'ularimizga suyanishga to'g'ri keladi. O'zgalar sizga ishonishini xohlasangiz, o'zingiz ham ularga ishona olishingizni his qilishingiz kerak: ko'zingizni chirt yumuq bo'lsa ham, hatto qulayotgan paytingizda ham.

Uchinchi seshanba: pushaymonlik haqida suhbatlashamiz

Keyingi seshanba kuni odatdagidek bozor-o'char qilib keldim: makkajo'xorili makaron, kartoshkali salat, olмали pirog. Yana Sony magnitofonini ham ko'tarib keldim.

– Nimalar haqida suhbatlashganimizni eslab qolishni xohlayman, — dedim Morriga. — Ovozingizni yozib olishni istayman...keyinroq ham tinglash imkonim bo'ladi.

– Men o'lganimdan keyin demoqchisan-da.

– Unday demang.

U kuldi.

– Mich, men o'lyapman. Keyinroq emas, aksincha, tez orada.

Keyin u yangi texnikaga ishora qilib:

– Buncha katta bo'lmasa, — dedi.

Bezbet muxbirdek his qildim o'zimni shu payt. Do'st hisoblangan ikki inson orasida magnitofon begona o't yoki sun'iy quloqdek ortiqchalik qiladi, degan o'y o'tdi xayolimdan. Buning ustiga shuncha odam Morrining e'tiboriga mushtoqligini hisobga olsak, men bu seshanbalarda haddan ortiq ko'p narsalarga ulgurib qolishga urinayotgan bo'lgandirman.

– Menga qarang, — dedim magnitofonni qo'limga olib, — Buni ishlatishimiz shartmas. Agar bu narsa sizga noqulaylik tug'dirsa.

Morri ko'rsatkich barmog'i bilan tergagandek ishora qilib, meni to'xtatdi va ko'zoynagini yechgan edi, u bo'ynidagi ipga ulab qo'yilgani uchun ko'ksida osilib, bir muncha vaqt tebranib turdi. U ko'zlarimga tik qarab:

– Joyiga qo'y, — dedi.

Men magnitofonni joyiga qaytarib qo'ydim.

– Mich, — davom etdi u yumshoqroq ohangda, — sen tushunmayapsan. Men senga o'z hayotimni gapirib bermoqchiman.

Tildan qolmasimdan, aytib qolay deyapman.

Uning ovozi pasayib, shivirlashga o'tdi.

– Kimdir mening hikoyamga quloq tutsa deyman. Sen tinglaysan, a? Bosh irg'atdim.

Bir lahza jim qoldik.

– Xo'sh, — dedi u, — matohing yoqiqmi?

Rostini aytganda, magnitofonning vazifasi faqat xotiralarni muhrlab qolish emasdi. Men Morridan ayrilib qolayotgandim, biz hammamiz uni yo'qotayotgandik: uning oilasi, do'stlari, sobiq shogirdlari, hamkasb professorlar, siyosiy muhokamalar uchun tuzilgan jonajon

guruhlaridagi oshnalari, sobiq raqqos sheriklari, umuman, barchamiz. Magnitofon tasmlari esa suratlar va video-yozuvlar kabi o'lim xurjunidan hech qursa nimadir o'marib qolishga bo'lgan besamar urinish edi.

Biroq Morrining jasurligi, yumorga boyligi, sabri va samimiyligiga guvoh bo'lish orqali men uning hayotga tamomila boshqacha nigoh bilan qarayotganini tobora ravshanroq anglab borayotgandim. Men tanigan insonlarning hech biri hayotga bunday qaramasdi. Sog'lomroq nigoh edi u. Teranroq nigoh. U esa o'lim yoqasida edi.

Agar taqdirga tan berib, o'linga tik boqqanimizda fikrlarimiz sirli ravishda ravshan tortadigan bo'lsa, unda Morri bu hodisa haqida boshqalarga gapirib berish istagida ekanini bilardim. Va men bu narsani qo'limdan kelgancha uzoqroq xotiramda saqlab qolishni xohlardim.

Birinchi marta Morrini "Tungi xabarlar" da ko'rganimda, u o'limi muqarrarligini bilgach, biror ishidan pushaymon bo'lganmikan deb qiziqqandim. Yo'qotilgan do'stlari uchun achchiq-achchiq ko'z-yosh to'kdimikan? Agar imkoni bo'lganda, boshqacha hayot kechirgan bo'larmidi? Xudbinlarcha "Agar men uning o'rnida bo'lganimda, amalga oshirilmagan ishlarim, havoga sovurilgan imkoniyatlarim haqidagi qayg'uli o'ylarga g'arq bo'larmidim?" deb o'zimni savolga tuta boshladim. Ichimda saqlab kelgan sirlar yashirin qolib ketayotganidan afsuslanarmidim?

Men shu haqida Morridan so'raganimda, u boshini irg'adi.

– Hammani shu savol qiynaydi, shunday emasmi? Bugun umrimning so'nggi kuni bo'lsa-chi?

U yuzimga tikilib turib, ikkilanish, parishonlik alomatlarini o'qigan bo'lsa ajab emas. Xayolimda bir kuni ish stolim yonida yozayotgan maqolamni yakuniga yetkazishga ham ulgurmay gup etib yiqilib, jon berishim va tibbiy tez yordam xodimlari murdamni olib chiqib ketayotgan bir paytda muharrirlarim chala qolgan maqolamga

ochko'zlarcha yopishishlarini tasavvur qildim.

– Mich? — chaqirdi Morri.

Men boshimni silkib tashlab, hech nima deb javob qilmadim. Biroq Morri mendagi parishonlikni sezdi.

– Mich, — dedi u. — Jamiyatimiz o'lim to'shagiga mixlanmaguningcha bunday narsalar haqida fikr yuritishga yo'q qo'ymaydi. Biz shaxsiy manfaatlarimiz domiga tushib qolganmiz: mansab, oila, pul topish, ipoteka qarzlarini qaytarish, yangi mashina olish, buzilgan isitish radiatorimizni tuzatish – bo'sh qolmaslik uchun millionlab mayda-chuyda ishlarga ko'milib yashayveramiz. Bir nafas tin olib, hayotimizga tashqaridan nazar tashlab, o'z-o'zimizga savol berishga odatlanmaganmiz: “Bor-yo'g'i shumi? Men istagan narsalarning bari shumi? Nimadir yetishmayotganmikan?”

U bir oz jim qoldi.

– Bu yo'nalishda fikrlash uchun kimdir senga turtki bo'lishi kerak. Bu o'z-o'zidan sodir bo'ladigan jarayonmas.

Men uning nima demoqchi bo'layotganini bilardim. Bu hayotda hammamiz ustozga muhtojmiz. Meniki qarshimda o'tirardi.

“Bo'pti, — o'yladim men, — talaba bo'lish peshonamga bitilgan ekan, imkonim yetgancha yaxshi talaba bo'lishga harakat qilaman”.

O'sha kuni samolyotda uyga qaytar ekanman, sariq yon daftarchamga ichimizda barchamizni qiynaydigan masalalar ro'yxatini yozib chiqdim: baxt, keksayish, farzandli bo'lishdan boshlab to o'limgacha. Albatta, o'z-o'zimizni anglash uchun ushbu mavzularda minglab kitoblar yozilgan, bir dunyo teleko'rsatuvlar bor, soati 9 dollar turuvchi maslahat darslari mavjud. Amerika o'z-o'ziga yordam berish sohasida naq fors bozoriga aylangan.

Shunday bo'lsa-da, aniq-tiniq javoblar yo'q edi. Atrofingdagilar haqida qayg'urishing kerakmi yoki “ichingdagi bolakay” parvarishiga e'tibor berishing lozimmi? An'anaviy qadriyatlarga qaytish lozimmi yoki urf-odatlarni befoyda chiqarib, ulardan voz kechish kerakmi?

Muvaffaqiyatga intilish kerakmi yoki oddiylikkami? Shunchaki, “Yo‘q” deyishni o‘rgangan yaxshimi yoki gap-so‘zlarni yig‘ishtirib, ishga kirishgan afzalroqmi? Men bir narsani aniq bilardim: keksa professorim Morri o‘z-o‘ziga yordam berish biznesida emasdi. U relsda turib, o‘lim parovozining hushtagini tinglar va hayotdagi ahamiyatli narsalar haqida aniq tasavvurga ega edi.

Menga shu aniqlik zarur edi. Yo‘lini yo‘qotgan va shubha-gumonlar girdobida azoblanib yurgan qablarning har biri shu aniqlikka muhtoj edi.

– Istagan mavzuingda savol ber, — derdi Morri doim.

Shu sababli quyidagi ro‘yxatni tuzdim:

O‘lim

Qo‘rquv

Keksayish

Nafs

Nikoh

Oila

Jamiyat

Kechirimlilik

Mazmunli umr

Avgust oxirlari, seshanba kuni G‘arbiy Nyutonga to‘rtinchi bor kelayotganimda sumkamda shu ro‘yxat yotardi. O‘sha kuni Logan aeroportida konditsioner buzilgan ekan, odamlar yelpinib, jahl bilan peshonalaridan oqayotgan terni artishar va kimga ko‘zim tushmasin, hammasining yuz ifodasidan kimnidir bo‘g‘izlab qo‘yishga tayyorligi bilinib turardi.

To‘rtinchi kurs boshiga kelib, men jamiyatshunoslik fanidan shu qadar ko‘p darslarga qatnashdimki, diplom olishim uchun faqat bir necha kredit yetmayotgan edi xolos. Buni ko‘rgan Morri a‘lo darajali diplom olish uchun qiyinroq diplom ishi yozishni taklif etadi.

– Men, a? — so‘rayman undan, — nima haqida yozaman?

– Qaysu mavzu sen uchun qiziq? — deydi u.

Bir dunyo g'oyalarni ko'rib chiqib, mavzu qurib qolgandek, sportga to'xtalamiz. Men "Futbol qanday qilib Amerikada xalq uchun afyun, ya'ni sal kam din darajasidagi muhim udumga aylangan?" degan mavzuda bir yillik diplom ishimni boshlayman. Bu narsa bo'lajak kasbim uchun tayyorlov kursi ekani xayolimga ham kelmaydi. Bilganim, shu narsa menga Morri bilan har haftalik suhbatlarimizni davom ettirishga imkon beradi.

Bahor kelishiga uning yordamida izlanishlarim natijalari, iqtiboslar va dalillar bilan hujjatlashtirilgan hamda qora charm muqovaga yaxshilab tikilgan 112 varaqlik diplom ishimni tugataman. Ilk marta gol urgan yosh futbolchidek, uni faxr bilan Morriga ko'rsataman.

– Tabriklayman, — deydi Morri.

U ishimni varaqlar ekan, men yuzimda masrur tabassum bilan uning xonasidagi narsalarga nazar solaman. Kitob javonlari, parket pol, gilam, divan. Ichimda "Xonaning qay nuqtasida o'tirish imkoni bo'lsa, hammasida o'tirib chiqqanman" deyman o'zimga.

– Biror nima deyishga tilim ojiz, Mich, — o'ychan holda ko'zoynagini to'g'rilaydi Morri, — bunday yaxshi yozilgan ish bilan seni magistrlikka olib qolmasak gunoh bo'ladi.

– Bo'lmasam-chi, — deyman men.

Miyig'imda kulib qo'ysam-da, u aytgan fikr menga moydek yoqib tushadi. Bir tomondan, universitetni tark etishni o'ylasam, qo'rquvga tushaman. Boshqa tomondan esa tezroq jo'nab qolsam deyman. Qarama-qarshiliklar tortishuvi. Diplom ishimni o'qiyotgan Morrini kuzata turib, katta hayotga qadam qo'yish qanday bo'lishi haqida xayol suraman.

Ko'rgazmali qurollar: ikkinchi qism

Morri intervyu bergan birinchi ko'rsatuv katta muvaffaqiyat qozongani sababli "Tungi xabarlar" uning ikkinchi qismini ham olishga qaror qildi. Bu safar eshikdan kirib kelgan operator va prodyuserlar o'zlarini Morrining oila a'zolaridek his qilardi. Koppel ham o'zini oldingidan ko'ra ancha do'stona tutardi. Sinov jarayoni ham, suhbatdan oldingi suhbat ham bo'lmadi. Gap gapga qovushishi uchun avvaliga Morri va Koppel bolalik xotiralari bilan bo'lishishdi: Koppel Angliyada tug'ilib-o'sganini gapirib berdi, Morri esa Bronksda katta bo'lgani haqida so'zladi. Morri doim sovuq qotardi, hatto tashqarida to'qson daraja issiq bo'lsa ham, shuning uchun uzun yengli ko'k ko'ylak kiyib olgandi. Biroq Koppel kostyumini yechib qo'yib, suhbatni ko'ylak va bo'yinbog'da o'tkazdi. Morri uni sekin-asta, birma-bir quolsizlantirayotganga o'xshardi.

– Ko'rinishingiz chakkimas, — dedi Koppel, kamera tasmalari aylana boshlagach.

– Hamma shunday deydi, — javob qaytardi Morri.

– Gapirishingiz ham tetik.

– Hamma shunday deydi.

– Unda sog'lig'ingiz orqaga ketayotganini qayerdan bilasiz?

Morri xo'rsindi.

– O'zimdan boshqa hech kim buni bilolmaydi, Ted. Faqat o'zim bilaman.

Morri gapida davom etarkan, hammasi oydinlashib borardi. U o'z fikrini yetkazish uchun qo'llarini birinchi suhbatdagichalik bemaol silkitmayotgandi. Ma'lum bir so'zlarni talaffuz qilishga qiynalar, "L" tovushi uning bo'g'zida qolib ketayotgandek edi. Yana bir-ikki oydan keyin u mutlaqo tildan qolishi mumkin edi.

– Kayfiyatimga kelsak, — dedi Morri Koppelga, — tanishlarim va do'stlarim yonimda bo'lganda, o'zimni juda yaxshi his qilaman.

Mehrga to'la munosabatlar menga madad beradi. Ammo tushkunlikka tushgan kunlarim ham bo'ladi. Sizni aldab nima qildim. Sodir bo'layotgan ma'lum o'zgarishlarni ko'rib, dahshatga tushaman. Qo'llarimsiz qanday yashayman? Tildan qolsam nima bo'ladi? Ovqatni yuta olmay qolish meni unchalik bezovta qilmaydi, chunki u holatda meni, shunchaki, naycha orqali boqishadi, tamom, nima bo'пти shunga? Biroq, ovozim? Qo'llarim? Ular tanamning o'ta ahamiyatli qismlari. Ovozim bor ekan, gapiraman. Qo'llarim ishlab turarkan, fikrimni turli harakatlar, ishoralar orqali yetkazaman. Bular men uchun odamlar bilan muloqot vositalari.

– Tildan qolganingizda qanday muloqot qilasiz? — so'radi Koppel.

Morri yelka qisdi.

– Balki hammadan menga faqat javobi “Ha” yoki “Yo'q” bo'lgan savollar berishni so'rarman.

Javob shu qadar oddiy ediki, Koppel beixtiyor jilmaydi. U Morridan jimjitlik haqida so'radi. U Morrining hikmatli so'zlarini ilk marta “Boston Gloub” nashriga yuborgan hamkasb qadrdon do'sti Mori Shteynni yodga oldi. Ular Brandeydsda 60-yillar boshlaridan beri birga ishlardi. Hozirda Shteyn sekin-asta eshitish qobiliyatidan ayrilayotgandi. Koppel biri tildan qolgan, boshqasi esa eshitish qobiliyatini yo'qotgan ikki kishining uchrashuvini tasavvur qildi. Uchrashuv qanday o'tarkan?

– Bir-birimizning qo'limizni tutib o'tiramiz, — dedi Morri. — Va o'rtamizda cheksiz mehr-muhabbat oqimi suzadi. Ted, bizning o'ttiz besh yillik do'stligimiz bor. Buni his qilish uchun so'z ham, eshitish ham shart emas.

Ko'rsatuv tugashidan oldin Morri olgan xatlaridan birini Koppelga o'qib berdi. “Tungi xabarlar”dagi birinchi suhbatdan keyin unga juda ko'p xat kelardi. Bir xat Pensilvaniyada ota-onasidan birining o'limini boshidan kechirgan to'qqizta bolakaydan iborat maxsus sinfga dars beruvchi o'qituvchidan kelibdi.

– Mana unga yozgan javobim, — dedi Morri Koppelga, ko‘zoynagini burniga ehtiyotkorona qo‘ndirarkan. — Qadrli Barbara...Xatingizdan juda ta’sirlandim. Ota-onasidan birini yo‘qotgan bolalar bilan ishlayotganingiz katta ahamiyatga molik deb o‘ylayman. Men ham onamdan juda erta ajralib qolganman...

Birdaniga, hali ham g‘uvillab aylanib turgan kameralar qarshisida, Morri ko‘zoynagini to‘g‘riladi. Bir oz jimib qoldi, labini tishladi va bo‘g‘ziga tiqilib kelgan tugundan xalos bo‘lish uchun yutina boshladi. Ko‘zlaridan yosh dumaladi.

– Bolaligimda onamni yo‘qotganman... Bu men uchun qattiq zarba bo‘lgan...O‘shanda men ham siznikidek qayg‘ularim bilan bo‘lisha oladigan guruhda o‘qiganimda edi. Men, albatta, guruhingizga qo‘shilgan bo‘lardim chunki...

Uning ovozi titrab ketdi.

– Chunki men shu qadar yolg‘iz edimki...

– Morri, — dedi Koppel. — Onangiz vafot etganiga yetmish yil bo‘ldi. Hali ham qayg‘udan azob chekasizmi?

– Bo‘lmasam-chi, — shivirladi Morri.

Professor

U sakkiz yoshda edi. Shifoxonadan telegramma keldi. Rus muhojiri bo‘lgan otasi ingliz tilida o‘qiy olmaganligi sababli yangilikni Morrining o‘zi ma’lum qilishiga to‘g‘ri keldi. U onasining o‘limi haqidagi xabarnomani doskaga chiqarilgan o‘quvchidek tutilib-tutilib o‘qidi. “Chuqur hamdardligimizni bildirgan holda, sizga shuni ma’lum qilamizki...” — o‘qishni boshladi Morri. Dafn marosimi kuni tongda Morrining qarindoshlari Manxettenning quyi sharqiy qismidagi qashshoq mavzeda joylashgan ko‘p qavatli binoning zinalaridan birma-bir tushib keldi. Erkaklar qora kostyum-shimda, ayollar esa

boshlariga qora to'r yopinchiq tashlab olgandi. Maktabga yo'l olgan qo'shni bolalar ularning yonidan o'tganda Morri yerga qarab olar, chunki sinfdoshlari uni bu ahvolda ko'rib qolishlaridan uyalar edi. Morrining xolalaridan biri – to'lachadan kelgan ayol uni bag'riga bosib, sannay ketdi:

– Onasiz qolgan bolaginam, endi nima qilasan? Shu kunlar ham bormidi boshingda? Holing ne kechadi endi?

Morri ho'ngrab yig'lab yubordi. Sinfdoshlari esa qochib ketdi.

Qabristonda Morri onasining qabrini tuproq bilan ko'mishlarini tomosha qilib turdi. U hayotligida birga o'tkazgan baxtiyor onlarni eslashga urindi. Onasi betob bo'lib, yotib qolishidan avval shirinliklar do'konini yuritardi. Xastalikka chalinganidan keyin esa ko'p vaqtini uxlash yoki derazadan tashqariga termilib o'tirish bilan o'tkazardi; deraza yonida u juda nimjon va oriq ko'rinardi. Ba'zan u o'g'liga dorilarini keltirishni aytib qichqirardi, ko'chada to'p changitib yurgan kichkina Morri o'zini eshitmaganlikka solardi. Xayolida, kasallikka e'tibor bermasa, u o'z-o'zidan yo'qolib ketadigandek tuyulardi.

Bolakay boshqa qanday usulda xastalikka qarshi turishi mumkin?

Morrining otasini hamma Charli deb chaqirardi. U Rus armiyasida xizmat qilishdan qochib, Amerikaga kelib qolgandi. U mo'ynachilik sohasida ishlar, ammo tez-tez ishsiz qolardi. Tayinli o'qimagan, ingliz tilida bazo'r gapiradigan otasi nihoyatda qashshoq kishi bo'lib, oila asosan davlat tomonidan beriladigan moddiy yordam hisobiga kun kechirardi. Ular shirinliklar do'konining orqa tomonida joylashgan qorong'i, tor va zimiston uyda yashardi. Pul faqat ro'zg'ordagi eng kerakli narsalarga yetardi, xolos. Mashinali bo'lish ular uchun orzu edi. Ba'zan bir oz pul ishlab olish maqsadida Morri ukasi Devid bilan odamlarning uyi oldidagi zinalarni besh sentga yuvib berishardi.

Onasining vafotidan so'ng bolakaylarni Konnektikut o'rmonlarida joylashgan kichkina mehmonxonaga yuborishdi. Mehmonxona katta

yog'och uy bo'lib, u yerda bir nechta oila ijarada turar va umumiy oshxonadan foydalanar edi. Qarindosh-urug'lar bolalar uchun toza havo foydali bo'ladi degan to'xtamga kelgandi. Morri va Devid umrlari bino bo'lib, buncha ko'p o'simliklarni ko'rmaganliklari sababli kun bo'yi daladan beri kelmay yugurib, o'ynab yurishardi. Bir kuni kechki ovqatdan keyin ular sayrga chiqishgandi – yomg'ir sharros quyib yubordi. Lekin ular uyga qaytish o'rniga, soatlab yomg'irda chopqillab, jiqqa ho'l bo'lishdi.

Ertasi kuni uyg'onishganda, Morri yotog'idan sakrab turdi.

– Bo'laqol, tur o'rningdan, — dedi u ukasiga.

– Turolmayman.

– Bu nima deganing?

Devidning yuzini vahima egalladi.

– Men...qimirlayolmayapman.

U poliomiyelet kasalligiga chalingandi.

Albatta, xastalikning sababchisi yomg'ir emasdi. Biroq Morrining yoshidagi bolakay qayerdan ham buni tushunsin. Ancha vaqtgacha ukasining uy va ixtisoslashtirilgan shifoxona o'rtasida sargardon qatnashi va oyoqlariga maxsus moslama taqib yurishga majbur bo'lganidan oqsoqlana boshlaganini ko'rib, Morri o'zini aybdor his qilardi.

Mazkur voqealar ta'sirida Morri ertalablari sinagogaga qatnay boshladi. Otasi xudojo'y kishi bo'lmagani sababli ibodat qilishga bir o'zi borardi. Uzun qora paltoli kishilar safida turib, Xudodan marhuma onasi va betob ukasini o'z panohida asrashini so'rardi.

Tushdan keyin esa metroning kirish eshigida jurnal sotib, topgan-tutganini oziq-ovqat olish uchun oilasiga keltirib berardi.

Kechki payt jimgina ovqatini yeyayotgan otasini kuzatar, uning biror bir shirin so'z aytishi, mehr, e'tibor ko'rsatishidan behuda umidvor bo'lardi.

To'qqiz yoshida yelkasida tog'dek yukni ko'tarib yurgandek sezardi

o'zini.

Keyingi yil Morrining hayotiga xaloskor inson kirib keldi: o'gay onasi Iva. U ruminiyalik muhojir bo'lib, past bo'yli, jingalak sochli, ko'rimsiz ayol edi. Kamida ikkita ayolning g'ayrati bor edi unda. Ayol uyda ota yaratgan bo'g'iq muhitga iliq nur olib kirdi. Er jim qolganda, ayol uni gapga solar, tunlari esa bolalarga qo'shiq kuylab berardi. Uning tinchlantiruvchi ovozi, uy vazifalarini bajarishga yordamlashishi, o'jar tabiati Morrining ko'ngliga malham bo'lardi. Hali ham oyog'iga maxsus moslama kiyib yurgan ukasi shifoxonadan qaytganida, ikkalasi oshxonadagi yig'ma karavotda birga uxlaydigan bo'lishdi. Iva har tun uyquga ketishdan oldin ularga xayrli tun tilab, o'pib qo'ygani kirardi. Morri ushbu o'pichlarni kuchukcha sutini kutgani kabi oshiqib kutar, qalbining tub-tubida yana onalik bo'lgandek his qilardi o'zini.

Ammo qashshoqlik ularni hech tark etay demasdi. Endilikda ular Bronksga ko'chib o'tib, Tremon Avenyudagi pishiq g'ishtdan qurilgan ko'p qavatli uyning bir xonali xonadonida istiqomat qilishardi. Uy yaqinida usti ochiq italyan qovoqxonasi joylashgan bo'lib, u yerda qari kishilar yoz oqshomlarini bochchi o'ynash bilan o'tkazishardi. Buyuk iqtisodiy inqiroz sababli Morrining otasiga mo'ynachilik bozorida ish topish yanada qiyinlashdi. Ba'zan oila kechki ovqatga o'tirganda, Iva dasturxonga qo'ygani nondan boshqa narsa topmasdi.

– Yana nima bor yegani? — so'rardi Devid.

– Boshqa hech narsa yo'q, — javob qaytarardi Iva.

Morri va Devidni uxlashga yotqizayotib, Iva ularga yahudiy tilida ashula aytib berardi. Hatto qo'shiqlar ham g'amgin va g'arib edi. Sigaret sotishga urinayotgan qizcha haqidagisi bo'lardi:

Sigaretlardan olib qoling,

Ular quruq: yomg'irda ivimagan.

Yetimchaga rahmingiz kelsin.

Og'ir oilaviy sharoitga qaramasdan, Morri odamlarga mehr berish va o'zgalari haqida qayg'urishga o'rgatilgandi. Va ilm olishga ham. Ivani faqat a'lo baholar qoniqtirardi, chunki u ta'limni qashshoqlikdan qutulishning yagona chorasi deb bilardi. Uning o'zi ham ingliz tilini yaxshiroq o'rganish uchun tungi maktabga qatnardi. Ivaning mehnatlari tufayli Morri bilimga chanqoq bo'lib o'sdi.

U tunlari oshxona stolida, chiroq yorug'ida dars qilardi. Ertalablari esa onasi uchun marhumlar haqqiga o'qiladigan duo – Izkor aytgani sinagogaga qatnardi. Qanchalik ishonish qiyin bo'lmasin, otasi unga marhuma onasini tilga olishni taqiqlab qo'ygandi. Charli yosh Devidning Ivani o'z onasidek ko'rishini xohlardi.

Morri uchun bu o'ta og'ir yuk edi. Yillar davomida onasidan qolgan yagona yodgorlik uning o'limi haqidagi telegramma edi. U telegrammani kelgan kuniyoq yashirib qo'ygandi.

Morri uni butun umr yonida saqladi.

Morri o'smirlik yoshiga yetganda, otasi uni o'zi ishlaydigan mo'yna fabrikasiga olib bordi. Buyuk iqtisodiy inqiroz yillari edi. Otasi Morrigan ish topib berish maqsadida yurardi.

U fabrikaga qadam qo'yishi bilan devorlar uni to'rt tomondan qurshab olgandek bo'ldi. Xona qorong'i va issiq, deraza oynalari kirlanib yotar, bir-biriga tiqib o'rnatilgan mashinalar poyezd g'ildiraklaridek taraqlab ishlardi. Havoda uchib yurgan mo'yna tolalari nafas olishni og'irlashtirar, ishchilar igna ustida bukchaygancha mo'yna bo'laklarini bir-biriga yo'rmalab ulashar, xo'jayin esa qatorma-qator yurib, ularni tezroq ishlashga chaqirardi. Morri zo'rg'a nafas olardi. U otasining yonida yuragini hovuchlab turar, xo'jayin unga ham baqirib qolishi mumkinligidan dahshatga tushardi.

Tushlik payti otasi Morrini xo'jayinning oldiga olib bordi. Bolani oldinga itarib, unga biror ish topilarmikan deb so'radi. Ammo kattalarga ham deyarli ish yo'q edi, bor ishchilar esa fabrikani tark

etish niyatida emasdi.

Shu holat Morriganajot bo'ldi. U bu jirkanch joyni tezroq tark etishni xohlardi. Morri shu onda o'zicha qasam ichdi va umrining oxirigacha unga sodiq qoldi: u hech qachon insonlar ekspluatatsiya qilinadigan ishda ishlamaydi va boshqalarning peshona teri evaziga pul topmaydi.

– Kim bo'lmoqchisan unda? — so'rardi Iva.

– Bilmadim, — javob qaytarardi Morri. U huquqshunoslikni ro'yxatdan o'chirib tashlagandi, chunki huquqshunoslarni yomon ko'rardi. Shuningdek, tibbiyotni ham ro'yxatdan chiqarishga to'g'ri keldi, chunki qondan qo'rqardi.

Kim bo'lmoqchisan?

Hayotimda uchratgan eng yaxshi professor tasodifan o'qituvchilikni tanlagandi.

“O'qituvchi abadiyatga ta'sir ko'rsata oladi, uning ta'siri qayerda tugashini hech qachon bilib bo'lmaydi”.

Genri Adams

To'rtinchi seshanba: o'lim haqida suhbatlashamiz

– Kel, mana bu fikrdan boshlaymiz, — dedi Morri, — hamma qachondir o'lishini biladi, lekin hech kim bunga ishonmaydi.

Bu seshanba Morri to'g'ri maqsadga o'tdi. Suhbatimiz mavzusi o'lim – ro'yxatimdagi birinchi masala edi. Men yetib kelgunimcha, Morri unutilib qo'ymaslik uchun ba'zi fikrlarini bir nechta mayda oq qog'oz bo'laklariga yozib qo'yibdi. Yozayotganda qo'li qaltirar, qing'ir-qiyshiq husnixatini endilikda o'zidan boshqa hech kim tushunmasdi. Mehnat kuni yaqinlashib qolgan, kabinet derazasidan orqa hovlidagi ismaloqrang devordaraxt ko'rinib turar va maktab boshlanishidan oldin erkinlikdagi so'nggi haftada ko'cha changitib o'ynayotgan

bolalarning qiyqirig'i eshilib turardi.

Detroytda esa nashriyot ish tashlovchilari rahbariyatga qarshi kurashda kasaba uyushmasi bilan hamjihat ekanliklarini bildirish maqsadida bayram kuniga yirik namoyish tayyorlayotgandi. Parvoz vaqtida, uxlab yotgan turmush o'rtog'i va ikki nafar qizini otib o'ldirgan va bu ishni ularni "yomon odamlardan" himoya qilish uchun qilganini ta'kidlagan ayol haqida o'qidim. Kaliforniyada O. J. Simpsoning huquqshunoslari naq mashhur yulduzlarga aylanib borayotgandi.

Bu yerda – Morrining kabinetida esa hayot tamomila o'zgacha ruhda davom etardi: o'tayotgan har bir kun bebaho edi. Uyni to'ldirib turgan eng yangi uskuna – kislorod uzatuvchi qurilmadan bir-ikki fut masofada yonma-yon o'tirardik. Kichkinagina ko'chma qurilmaning balandligi tizzagacha kelardi. Ba'zan tunlari Morri yetarlicha havo yutolmay qolganida, qurilmaning uzun plastik naychalarini burniga zulukdek mahkamlab qo'yardi. Morrining biror uskunaga ulab qo'yilgani haqidagi fikrning o'ziyoq menga tinchlik bermagani sababli Morrining gaplariga quloq tutar ekanman, qurilmaga qaramaslikka urinardim.

– Hamma qachondir o'lishini biladi, – takrorladi u, – lekin hech kim bunga ishonmaydi. Agar ishonganimizda edi, butunlay boshqacha hayot kechirgan bo'lardik.

– Demak, biz o'lim borasida o'zimizni aldaymiz, – dedim men.

– Ha. Lekin bundan yaxshiroq yondashuv ham mavjud. O'lishingni anglash va istalgan payt o'lishga tayyor bo'lish. Shunisi afzalroq. Mazkur yondashuv senga o'z hayotingda sodir bo'layotgan jarayonlarda faolroq qatnashish imkonini beradi.

– Lekin qanday qilib o'limga tayyor bo'lish mumkin?

– Buddistlar kabi yasha. Har kuni sendan: "O'sha kun bugunmi? Tayyormanmi? Bajarishim zarur bo'lgan barcha ishlarni qilyapmanmi? O'zim xohlagan inson bo'la olyapmanmi?", deb

so'raydigan qushcha o'tirsin yelkangda.

Morri xuddi ayni paytda yelkasiga qushcha qo'nib turgandek boshini bir tomonga burdi.

– Bugun mening so'nggi kunimmi? – so'radi u.

Morri turli dinlardagi qarashlarni osongina o'zlashtirib olgandi. U yahudiy bo'lib dunyoga kelgan, biroq qisman bolaligida sodir bo'lgan voqealar sababli, o'smirlik davrida agnostga aylangandi. U buddizm va nasroniylikning ba'zi aqidalarini yoqtirsa-da, madaniy jihatdan Yahudiylik dinida o'zini uyidagidek erkin his etardi. Dinlar borasida kallavaramligi uni yillar davomida o'qitgan talabalarining fikrlariga bag'rikenglik bilan qarashiga imkon berardi. Umrining oxirgi oylarida gapirayotgan gaplari turli diniy tafovutlarning barchasidan yuqoriroq turadigandek tuyulardi. O'lim ko'p narsalarga qodir.

– Haqiqat shuki, Mich, – dedi u, – o'lishni o'rgangan kuning yashashni ham o'rganasan.

Men bosh irg'atdim.

– Yana takrorlayman, – ta'kidladi u, – o'lishni o'rgangan kuning yashashni ham o'rganasan.

U jilmaydi va men uning bu so'zlarni takrorlashdan maqsadi nima ekanini tushundim. Morri o'zimdand so'rab meni xijolat qilmasdan, uning so'zlarini anglaganimga ishonch hosil qilayotgandi. Aynan shu odati uni yaxshi o'qituvchiga aylantirgan xislatlardan biri edi.

– Betob bo'lib qolishingizdan oldin ham o'lim haqida ko'p o'ylarmidingiz? — so'radim undan.

– Yo'q, — jilmaydi Morri. — Men ham boshqalar kabi edim. G'ayratim ichimga sig'may ketgan kunlarning birida bir do'stinga: “Men sen umring davomida uchratgan eng sog'lom chol bo'laman!” — deb yuborganman.

– Nechchi yoshda edingiz o'shanda?

– Oltmishdan oshgandim.

– Nekbin bo'lgan ekansiz-da.

- Bo‘lmasam-chi? Aytdim-ku, hech kim o‘lishiga ishonmaydi.
- Lekin hammaning ham kimidir vafot etgan-ku, — dedim men. — Nega o‘lim haqida o‘ylash bu qadar mushkul?
- Chunki, — davom etdi Morri, — ko‘pchiligimiz uyquda yurgandek hayot kechiramiz. Dunyoni to‘laligicha his qilmaymiz, chunki yarim-uyquda yuramiz va ko‘p ishlarni odatlanib qolganimizdan bajarishimiz shartdek qabul qilamiz.
- Va o‘lim bilan yuzma-yuz kelish bu qarashlarimizni o‘zgartirib yuboradimi?
- Albatta. Keraksiz narsalarni irg‘itib tashlab, diqqatingni faqat o‘ta ahamiyatli narsalarga qaratasan. Yaqinda o‘lishingni anglab yetgan zahoting, hayotga boshqacha nigoh bilan qaray boshlaysan.
- U xo‘rsindi.
- O‘lishni o‘rgansang, yashashni ham o‘rganasan.
- U qo‘llarini qimirlatganda, ular qaltirayotganini sezdim. Ko‘zoynagi bo‘yniga osib qo‘yilgandi, uni taqish uchun ko‘ziga olib borgandi, ko‘zoynak bir necha bor chakkasidan sirpanib o‘tib ketaverardi; u ko‘zoynakni o‘ziga emas, qorong‘ida boshqa birovga taqib qo‘yishga urinayotgandek ko‘rinardi. Ko‘zoynak bandini qulog‘iga qo‘ndirishga yordamlashish uchun engashdim.
- Rahmat, – shivirladi Morri.
- Qo‘lim uning boshiga tegganida, yuziga tabassum yugurdi. Insonlarning arzimas darajada tegib ketishi ham unga xursandchilik bag‘ishlardi.
- Mich, senga bir narsa aytsam maylimi?
- Albatta, – dedim men.
- Bu senga yoqmasligi mumkin.
- Nega?
- Haqiqat shuki, agar chindan yelkangdagi qushchaga quloq solsang, agar chindan ham istalgan paytda jon berishing mumkinligini tan olsang, hozirgidek shuhratparast bo‘lmasliging

mumkin.

Men zo'rma-zo'raki jilmayib qo'ydim.

– Vaqtingning ko'p qismini sarflayotgan mashg'ulotlaring – qilayotgan ishing u qadar muhim bo'lib tuyulmasligi mumkin. Va, ehtimol, ma'naviy ozuqa uchun ham vaqt ajratishingga to'g'ri kelar.

– Ma'naviy ozuqa?

– “Ma'naviy” so'zini jining suymaydi, a? Buni ta'sirchanlik va ko'ngilchanlik mahsuli deb o'ylaysan.

– Shunaqaroq...

Morri ko'z qisib qo'yishga urindi, o'xshamadi; uning qiligidan o'zimni tutib turolmay kulib yubordim.

– Mich, – dedi u men bilan birga kular ekan, – hatto men ham “ma'naviy yuksalish” nima ekanligini tushunmayman. Lekin qusurlardan holi emasligimizni aniq bilaman. Biz moddiyatga haddan ortiq mukkasidan ketganmiz, lekin moddiyat barcha ehtiyojlarimizni qoniqtira olmaydi. Mehrli rishtalarni, atrofimizdagi borliqni o'z-o'zidan mavjud bo'lishi shartdek qabul qilamiz.

U quyosh nuri tushib turgan deraza tomonga ishora qilib bosh irg'atdi:

– Ko'ryapsanmi? Sen istalgan payt u yerga – tashqariga chiqishing mumkin. Ko'cha bo'ylab yugurishing va bundan telbalarcha zavq olishing mumkin. Men esa bunday qilolmayman. Tashqariga chiqa olmayman. Yugura olmayman. Har gal tashqariga chiqqanimda, “mazam qochib qoladi” degan qo'rquvdan yuragim titrab turadi. Lekin bilasanmi nima? Men shu derazani sendan ko'ra ko'proq qadrlayman.

– Derazani qadrlaysiz?

– Ha. Har kuni shu deraza orqali tashqarini tomosha qilaman. Daraxtlar o'zgarishini, shamolning qay darajada kuchli esayotganini ilg'ayman. Go'yoki men shu deraza oynasidan vaqt oqimini ko'ra oladigandekman. Men vaqt-soatim bitib qolganini bilaman, shu

sababli ham tabiat menga nihoyatda maftunkor bo‘lib tuyuladi, xuddi uni ilk marta ko‘rayotgandek.

Morri jimib qoldi. Bir muddat ikkimiz ham derazadan tashqariga tikilib turdik. Men u ko‘rayotgan narsalarni ko‘rishga urindim. Vaqt va fasllar almashinuvini, o‘zimga sezdirmay sekin-asta o‘tib ketayotgan umrimni ko‘rishga urindim. Morri boshini bir oz egib, yelkasi tomonga qayrildi.

– Qushcha, o‘sha kun bugunmi? – so‘radi u, – bugunmi o‘sha kun?

“Tungi xabarlar” teleko‘rsatuvidagi chiqishlari tufayli Morriganing dunyoning turli burchaklaridan maktublar kelishi davom etardi. Morri o‘zini yaxshi his qilgan paytlari uning do‘stlari va oila a‘zolari maktublarga javob yozishga ko‘maklashish uchun unikida yig‘ilar, Morri javob xatlari matnini ularga aytib turardi.

O‘g‘illari Rob va Jon ham uyda bo‘lgan yakshanba kunlarining birida hamma uy mehmonxonasiga to‘plandi. Ozg‘in oyoqlarini yopinchiq bilan o‘rab olgan Morri nogironlar aravachasida o‘tirardi. U sovuq yeya boshlashi bilan yordamchilardan biri yelkasiga neylon kurtka tashlab qo‘ydi.

– Birinchi maktub nima haqida? – so‘radi Morri.

Hamkasblaridan biri onasi ALS xastaligidan vafot etgan Nensi ismli ayolning xatini o‘qib berdi. U onasini yo‘qotganidan qanchalar azob chekkani hamda Morri qanday azoblarni boshdan kechirayotganini tushunishi haqida yozgandi.

– Yaxshi, – dedi Morri maktub o‘qib tugatilganda. So‘ng ko‘zlarini yumdi. – Keling, bunday boshlaymiz: “Qadrlı Nensi! Onangiz haqidagi hikoyangiz yuragimni larzaga soldi. Qanday og‘ir sinovlardan o‘tganingizni yaxshi tushunaman. Qayg‘u-azoblar hammaning ham boshida bor. Ammo g‘am-qayg‘ular men uchun xayrli bo‘ldi. Siz uchun ham xayrli bo‘ladi, deb umid qilaman”.

– Menimcha, oxirgi qatorni o‘zgartirganingiz yaxshi, – dedi Rob.

Morri bir lahza o'yg'a toldi.

– To'g'ri aytasan. Bunday desak-chi: “G'am-qayg'uda o'zingiz uchun malham bo'luvchi kuch topa olasiz, deb umid qilaman”. Bunisi yaxshiroqmi?

Rob bosh irg'atdi.

– “Tashakkur. Morri”, deb qo'shib qo'y, – ta'kidladi u.

Keyingi maktub Jeyn ismli ayoldan bo'lib, ayol Morrini “Tungi xabarlar”dagi chiqishlari bilan odamlarni ruhlantirgani uchun o'z minnatdorчилиgini izhor etgandi. U xatida Morrini payg'ambar deb atabdi.

– Bu juda yuksak e'tirof, – dedi Morrining hamkasbi. – Payg'ambar! Morrining yuzi burishdi. U o'ziga berilgan bahodan norozi ekani ko'rinib turardi.

– Unga iltifot uchun minnatdorligimni yozing. Va so'zlarim u uchun qandaydir ahamiyat kasb etganidan xursandligimni bildiring. “Tashakkur. Morri”, deb qo'shib qo'yishni ham unutmang.

Bir Angliyalik kishi xatida Morridan vafot etgan onasi bilan ruhlar olami orqali muloqot qilishga yordam berishini so'rabdi. Yana bir xat Bostonga uni ko'rgani kelish niyatida bo'lgan juftlikdan kelibdi. Universitetni tamomlaganidan keyingi hayotini tasvirlab yozgan sobiq talabadan kelgan uzundan-uzoq maktub ham bor edi. U qotillik haqida hikoya qilardi: xudkushlik va o'lik tug'ilgan uchta chaqaloq. ALS tufayli olamdan o'tgan onasi haqida yozibdi. Shuningdek, onasining qizi, ya'ni o'zi, ham shu xastalikka duchor bo'lishi mumkinligidan qo'rqishini bildiribdi. Maktub tugay demasdi. Ikki bet. Uch bet. To'rt bet.

Morri bu uzun va g'amgin xatni oxirigacha mijja qoqmay tingladi. Va nihoyat u yakunlangach, past ovozda so'radi:

– Xo'sh, nima deb javob beramiz?

O'rtaga jimlik cho'kdi. Oxiri Rob:

– Uzundan-uzoq maktubingiz uchun tashakkur, desak-chi? — dedi

Hamma kulib yubordi. Morri o'g'liga qarab kulimsiradi.

Uning kursisi yonida yotgan gazeta betiga hozirgina raqib jamoani yugurishdan mahrum qilib, koptokni tutib olgan Boston beyzbolchisining tabassum qilib tushgan surati bosilgan. Shuncha kasallik qolib, Morri aynan sportchining sharafiga nomlangan xastalikka uchrasa-ya, degan o'y o'tadi xayolimdan.

– Lu Gerig esingizdami? — so'rayman men.

– Stadiondagi xayrlashuv nutqini eslayman.

– Demak, o'sha mashhur gapi ham yodingizdadir?

– Qaysi biri?

– Qo'ysangiz-chi. Lu Gerig. “Yankilar iftixori”.

Ovozkuchaytirgichlardan aks-sado bilan jaranglagan nutqi-chi?

– Eslatib yubor menga, — deydi Morri. – O'sha nutqni so'zlab ber-chi.

Ochiq turgan derazadan axlat tashuvchi yuk mashinasining ovozi eshitiladi. Kun issiq bo'lsa-da, Morri oyoqlarini yopinchiq bilan o'rab, yengi uzun ko'ylak kiyib olgan. Rangi siniq. Dard uni butunlay mahv etgan.

Ovozimni balandlatib, so'zlari stadion devorlariga urilib, aks-sado bergan Gerigga taqlid qilaman:

– Buu-gunnn... Men o'zimni... yer yuzidagi... eng omadli inson deb bilaman.

Morri ko'zlarini yumib, ohista bosh irg'aydi.

– Ha, mayli, men bunday demaganman.

Beshinchi seshanba: oila haqida suhbatlashamiz

Sentyabrning birinchi haftasi edi. O'qish boshlanadigan hafta. O'ttiz besh yildan beri birinchi marta keksa professorimni kuzgi semestr darslari universitetga chorlamayotgandi. Boston talabalarga to'lib

ketdi: qaysi ko'chaga kirmang, yuklarini tushirayotgan yoshlarni ko'rish mumkin. Morri esa o'z kabinetida o'tirardi. Nafaqaga chiqqan futbolchilar birinchi yakshanba uyida o'tirib, o'yinni televizorda tomosha qilar ekan, "Hali ham ular kabi maydonda o'yin ko'rsatish qo'limdan kelardi-ku" degan xayollarga berilgani kabi Morrigha ham uyda o'tirishi qandaydir xatolikdek tuyulardi. Qariya sportchilar bilan ishlab ko'rganim uchun tajribamdan bilaman: o'yinlar mavsumi boshlanganda ularni holi qoldirgan ma'qul. Hech narsa demaslik kerak. Ammo Morrigha uning vaqti tugab borayotganini eslatishimga zarurat tug'ilmadi.

Tasmaga yozib olinayotgan suhbatlarimizda, Morri biror narsani uzoq tutib turishga qiynalayotgani sababli, qo'l mikrofonni o'rniga telesuxandonlar orasida ommalashgan to'g'nog'ich mikrofondan foydalana boshladik. Bu turdagi mikrofonlar kiyim yoqasi yoki kamzulning qaytarma yoqasiga qistirib qo'yiladi. Morri tobora ozib-to'zib borayotgan egniga doim mayin paxtali ko'ylaklar kiyar, ular nuqul shalvirab, osilib turgani sababli mikrofon goh qiyshayib, goh to'ntarilib qolar, men esa tez-tez cho'zilib, uni to'g'rilab qo'yishga majbur bo'lardim. Bunday paytlarda juda yaqin – quchoqlagulik masofada turib qolishimiz Morrigha yoqadigandek ko'rinardi. Dardga chalinganidan beri uning inson taftiga ehtiyojmandligi yanada kuchaygandi. Morri tomonga egilganimda, uning xirillab nafas olishi, zaifgina yo'talib qo'yishi, yutinishdan oldin labini yalashigacha eshitilardi.

– Xo'sh, do'stim, – dedi Morri, – bugun nima haqida suhbatlashamiz?

– Oila mavzusiga nima deysiz?

– Oila, – Morri bir muddat o'yga toldi. – Ko'rib turganingdek, mening oilam yonimda. – Boshi bilan kitob javonlari ustidagi suratlarga ishora qildi: kichkintoy Morri buvisi bilan; yigitcha Morri ukasi Devid bilan; Morri rafiqasi Sharlotta bilan; Morri ikki o'g'li: Tokyoda jurnalist

bo'lib ishlovchi Rob va Bostonda kompyuterlar bo'yicha mutaxassis Jon bilan.

– So'nggi haftalarda muhokama qilingan mavzular ta'sirida oila yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi, – dedi Morri. – Gap shundaki, hozirda oiladan o'zga inson qad ko'tarishi mumkin bo'lgan zamin – ishonchli poydevor mavjud emas. Xastalikka chalinganimdan beri bu narsani teranroq anglab yetdim. Oilang qo'llab-quvvatlashi, mehri, g'amxo'rligidan mahrum ekansan, biror arzirli tirgagim yo'q desang ham bo'ladi. Muhabbat – oliy ne'mat. Buyuk shoirimiz Oden aytganidek, “Bir-biringizga mehr-muhabbat ko'rsating, yo'qsa halokatga yuz tutasiz”.

“Bir-biringizga mehr-muhabbat ko'rsating, yo'qsa halokatga yuz tutasiz”, – yozib qo'ydim men.

– Buni Oden aytganmi?

– “Bir-biringizga mehr-muhabbat ko'rsating, yo'qsa halokatga yuz tutasiz”. Yaxshi gap, a? Juda to'g'ri aytilgan. Mehr-muhabbatsiz qanotlari singan qushga o'xshaymiz. Aytaylik, men ajrashgan, yolg'iz yoki befarzand bo'lganimda, bu dard – boshimga tushgan sinovlarni yengib o'tish ancha og'irroq bo'lardi. Menimcha, bardoshim yetmasdi. To'g'ri, odamlar mendan xabar olgani kelardi: hamkasblarim, shogirdlarim, ammo ular har doim sen bilan birga bo'luvchi yaqinlaringdek bo'lolmaydi. Senga ko'z-quloq bo'lib, doimo qarab turadigan kimingdir borligi bari bir boshqacha. Oilaning yana bir ahamiyati ham shu: faqat yaxshi ko'ribgina qolmay, boshqalarga ular haqida qayg'uradigan inson borligini bildirib turish. Onamning vafotidan keyin aynan shu narsani juda sog'inganman; men bu narsani “ruhiy xotirjamlik” deb atayman: oilang har doim sen uchun qayg'urishini bilish. Hech narsa buning o'rnini bosa olmaydi. Na boylik, na shon-shuhrat.

U menga bir qarab oldi-da:

– Na ish, — deb qo'shib qo'ydi.

Risoladagidek oila qurish qisqagina ro'yxatimdagi masalalardan biri edi: kech bo'lmasidan tartibga solinishi zarur bo'lgan ishlar ro'yxati. Morrigha bizning avlod farzand ko'rishga qattiq ikkilanayotgani, chunki farzandlar qo'l-oyog'imizga kishan bo'lishi va o'zimiz istamagan "ota-onalik" vazifalari bo'ynimizga ilib qo'yishidan hadiksirashimiz haqida aytdim. O'zimda ham shunday hadiksirash borligini tan oldim.

Biroq Morrigha qarab, o'zimga o'zim savol berardim: Agar men uning o'rnida – o'lim to'shagida yotgan bo'lsam va oilam, bola-chaqam bo'lmasa, ichki bo'm-bo'shlikka bardosh bera olarmidim? U ikki o'g'lini mehribon va g'amxo'r qilib tarbiyalagan va ikkalasi ham Morri kabi o'z mehrini namoyish etishdan tortinmasdi. Agar u xohlaganida, ikki o'g'il ham barcha ishini tashlab, so'nggi oylarning har lahzasini otasining yonida o'tkazgan bo'lardi. Ammo u buni xohlamasdi.

– Yashashdan to'xtamang, — dedi u o'g'illariga. – Aks holda, bu dard bir emas, uch kishining hayotini vayron qilgan bo'ladi.

Shu yo'sinda, u o'layotgan joyida ham farzandlarining o'z dunyosi borligini hurmat qilishini ko'rsatdi. Balki shu sabablidir, ular Morrining yonida bo'lganda, mehrlari daryodek oqishi, tinimsiz hazil qilishlari, krovat yonida o'tirib, uning qo'llaridan tutishlari va o'pib qo'yishlari odamni ko'p ham hayratga solmasdi.

– Odamlar mendan farzandli bo'lish yoki farzandsiz o'tish haqida qachon maslahat so'ramasin, men hech qachon ularga to'g'ridan-to'g'ri nima qilishni aytmayman, — dedi Morri to'ng'ich o'g'lining suratiga qarab. – Shunchaki, "Farzandli bo'lishdek buyuk ne'mat yo'q" deb javob beraman. Tamom. Buning o'rnini bosa oladigan narsa mavjud emas. Do'sting bilan ham, suyukliging bilan ham bu tuyg'uni boshdan kechira olmaysan. O'zingdan boshqa bir inson uchun to'liq mas'uliyatni zimmangga olish, unga cheksiz mehr berish va u bilan jon rishtasini bog'lash tuyg'usini his qilib ko'rging kelsa, unda farzand ko'rishing kerak.

– Demak, agar hayotingizni qaytadan yashash imkoni bo'lganda, yana farzand ko'rishni tanlarmidingiz? — so'radim men.

Suratga ko'z tashladim: Rob Morrining peshonasidan o'pib qo'yayotgan, Morri esa ko'zlarini yumgancha kulayotgan edi.

– Yana farzand ko'rishni tanlarmidim? — dedi u, hayrat bilan menga boqib, – Mich, men hech qachon bunday imkoniyatni qo'ldan chiqarmasdim. Garchi...

U bir yutinib olib, suratni tizzasiga qo'ydi.

– Garchi bu juda qimmatga tushsa ham, – dedi u.

– Chunki bari bir ularni tark etasiz.

– Chunki ularni tez orada tark etaman.

U lablarini qisib, ko'zini yumdi. Yanog'iga bir tomchi ko'z yosh yumalaganini ko'rdim.

– Endi esa, – shivirladi u, – sen gapirasan.

– Men?

– Oilang haqida. Ota-onangni bilaman. Ular bilan ancha yillar oldin – bitiruv oqshomida tanishganmiz. Oilangizda qiz farzand bor, a?

– Ha, – dedim men.

– Sendan katta, to'g'rimi?

– Ha, opam bor.

– Yana bitta o'g'il farzand ham bor, to'g'rimi?

Men bosh irg'atdim.

– Sendan kichikmi?

– Ha, ukam.

– Menga o'xsharkansan, – dedi Morri. – Mening ham ukam bor.

– O'xshash ekanmiz, – dedim men.

– U ham bitirish oqshomingga kelgandi-ya?

Men kiprik qoqdim. Bir lahza 16 yil oldingi hammamiz yig'ilgan kun ko'z oldimga keldi: quyoshli jazirama kun, moviy ridolar, quyosh nurlaridan ko'zimiz qisilgan, suratga tushish uchun bir-birmizning yelkamizdan quchoqlayapmiz, kimdir sanaydi “bir, ikki, uuuch...”

– Nima bo‘ldi? – so‘radi Morri, to‘satdan jimib qolganimni sezib. – Nimani o‘ylab qolding?

– Hech narsa, – javob qaytardim men va mavzuni o‘zgartirdim.

Chindan ham ukam bor – jigarrang ko‘zli mallasoch yigit, o‘zimdan ikki yosh kichik. U menga ham, qora sochli opamga ham umuman o‘xshamaydi; bolaligimizda “Seni begonalar eshigimiz ostonasiga tashlab ketgan” deb hazillashardik. “Bir kuni ular seni qaytarib olib ketadi”, – derdik biz. U bu gaplarimizni eshitib, yig‘lardi, biz esa takrorlayverardik.

Ukam barcha kenjatoylar kabi ulg‘aydi: hammaning erkatoyi, sevimlisi, ammo ruhan azobda. U aktyor yoki xonanda bo‘lishni orzu qilardi; kechki dasturxon atrofida butun boshli teleko‘rsatuvlarni ijro etib berar, labida baxtiyor tabassum bilan, hamma rolni bir o‘zi o‘ynardi. Men a‘lochi o‘quvchi edim, u esa ikkichi; men mo‘mingina bola edim, u esa quloqsiz; men giyohvand moddalar va ichkilikdan uzoq yurardim, u esa uchragan hamma narsani sinab ko‘rardi. U yuqori maktabni tugatganidan so‘ng, ko‘p o‘tmay Yevropaga ko‘chib ketdi, u yerning beg‘am hayot tarzini afzal ko‘rardi. Shunda ham u oilamizning erkatoyi bo‘lib qolaverdi. Uyga kelganida, uning hazilkash va beboshligi oldida o‘zimni cheklangan, konservativ odamdek his qilardim.

Bir-birimizga o‘xshamaganligimiz bois, balog‘atga yetganimizdan keyin taqdirlarimiz qarama-qarshi yo‘nalishda ketadi, deb hisoblardim. Hamma o‘ylarim to‘g‘ri bo‘lib chiqdi-yu, faqat bir narsada adashgan ekanman. Tog‘am olamdan o‘tgan kundan boshlab, meni ham xuddi shunday qismat kutayotgani, og‘ir dard tufayli bu dunyoni bemahal tark etishimga ishonardim. Shu sababli, jon-jahdim bilan ishga sho‘ng‘ib, ruhan o‘zimni saraton kasalligiga tayyorlardim. Uning nafasini his qilib turar, tez orada mening hayotimga ham tashrif buyurishini bilardim. Men saratonni o‘limga hukm qilingan kishi jallod kelishini kutgani kabi kutardim.

Men haq edim. U keldi.

Lekin menga tegmadi.

U ukamni mahv etdi.

Tog'amning boshiga yetgan saraton turi. Oshqozon osti bezi saratoni. Kamyob turi. Shunday qilib, jigarrang ko'zli mallasoch kenjatoyimiz kimyoterapiya va nur bilan davolash muolajalarini boshladi. Sochlari to'kilib, eti ustuxoniga yopishdi. "Bu men bo'lishim kerak edi-ku", – deb o'ylardim. Lekin ukam men ham, tog'am ham emasdi. U jangchi edi, bolaligidan shunday bo'lgan: yerto'lada kurash tushganimizda, men og'riqdan baqirib, uni qo'yib yubormagunimcha poyabzalim ustidan oyog'imni tishlab o'tiraverardi.

Shunday qilib, ukam jangga kirishdi. Bu paytda u Ispaniyada yashardi; o'sha vaqtlarda, hatto hozir ham AQSHda mavjud bo'lmagan, endi sinab ko'rilayotgan dorilar yordamida dard bilan kurashdi. Muolajalarni olish maqsadida butun Yevropani kezib chiqdi. Besh yillik muolajalardan keyin dorilar ta'sirida kasallik chekindi.

Bu xushxabar edi. Ko'ngilsiz xabar esa ukam uning yonida bo'lishimni xohlamasligi edi; nafaqat men, balki oilamizdan hech kimni ko'rishni istamasdi. Qanchalik ko'p qo'ng'iroq qilib, ko'rgani borishga urinmaylik, u xastalikni yolg'iz yengishi kerakligi aytib, oyoq tirab oldi va hech birimizni o'ziga yaqinlashtirmadi. Oylar davomida undan birorta ham xabar eshitmasdik. Telefoniga qoldirilgan ovozi xabarlarimiz javobsiz qolardi. Akalik burchimni bajara olmayotganimdan aybdorlik hissi yuragimni tilka-pora qilar, bizni unga g'amxo'rlik qilish huquqidan mahrum etayotganidan esa g'azabim qaynardi.

Natijada yana ishga sho'ng'idim. Ishimni nazorat qila olganim uchun ham ishga berildim. Ish samara keltirgani va ma'no kasb etgani uchun ham ishlardim. Har safar ukamning Ispaniyadagi uyiga

qo'ng'iroq qilib, telefon avtojavobbergichida uning ispancha gapirishini eshitganimda, qanchalik bir-birimizdan uzoqlashib ketganimizni anglar, go'shakni qo'yib, yana ishga sho'ng'irdim.

Balki Morriga bog'lanib qolishimning sabablaridan biri ham shudir. Morri menga ukam rad etgan g'amxo'rlikni unga ko'rsatishimga imkon berardi.

O'tmishga nazar tashlar ekanman, balki Morri bu haqida boshidanoq bilgandir, deb o'ylayman.

Bolaligimizdagi qish kunlaridan biri, shahardan tashqarida joylashgan mahallamizning tepaliklarini qalin qor qoplagan. Ukam bilan chanaga minib olganmiz: men oldinda, u orqada. Iyagini yelkamga tirab olgan, oyoqlari tizzalarimning orqa qismiga tegib turibdi.

Chana, yo'lakning muzli bo'laklaridan o'tayotganimizda, taraqlab ovoz chiqaradi. Qirdan pastga sirpanganimiz sari tezlik oshib boradi. – MASHINA!!! – baqiradi kimdir.

Ko'cha bo'ylab chap tomonimizdan kelayotgan mashinaga ko'zimiz tushadi. Biz qichqirgancha, chanani yonga burishga harakat qilamiz, biroq chana oyoqlari qimirlay demaydi. Haydovchi jon-jahdi bilan signal chalib, tormozni bosadi, biz esa bunday vaziyatlarda odatda bolalar qiladigan ishni qilamiz: chanadan pastga sakraymiz. Kapyushonli kurtkamizga o'ralib, sovuq, nam qorda g'o'ladek pastga dumalaymiz; xayolimizda esa mana-mana mashina g'ildiraklari ostida qoladigandek his qilamiz o'zimizni. "AAAAA" deb baqirib, qo'rquvdan titragancha pastga dumalashda davom etamiz: dunyo chirpirak bo'lib aylanadi – tepaga, pastga, tepaga, pastga.

Keyin esa...birdan hammasi tugaydi. Biz dumalashdan to'xtaymiz va nafas rostlab, yuzimizdan erib tushayotgan qorni artamiz. Haydovchi ko'cha oxirida burilib, tanbeh bergandek biz tomonga ko'rsatkich barmog'ini o'qtab, qo'lini silkiydi. Hech qanday shikast yemadik. Chanamiz qor uyumiga urilib, ohista g'irchillaydi;

do'stlarimiz yelkamizga qoqib, "Qoyil!", "O'lishlaring mumkin edi-ya!" deydi.

Men ukamga qarab tirjayaman, bolalarcha mag'rurlik bizni birlashtiradi.

– Unchalik ham qiyin emas ekan, – degan fikr o'tadi xayolimizdan, yana ajal bilan o'ynashishga tayyorlanar ekanmiz.

Oltinchi seshanba: his-tuyg'ular haqida suhbatlashamiz

Tog' dafnasi va yapon zarang daraxti yonidan o'tib, ko'kimtir tosh zinalardan Morrining uyiga ko'tarildim. Tom qirradi bo'ylab o'rnatilgan oq tarnov kirish eshigi ustida osilib, ayvoncha hosil qilgandi. Eshik qo'ng'irog'ini chaldim, lekin meni Konni emas, Morrining rafiqasi Sharlotta – allalovchi ohangda gapiradigan kulrang sochli go'zal ayol qarshi oldi. Men kelganimda, ko'pincha u uyda bo'lmasdi – Morri xohlagani uchun Massachusetts texnologiyalar institutida ishlashni davom ettirayotgandi; bu safar uni ko'rganimdan bir oz hayratlandim.

– Bugun Morrining ahvoli unchalik yaxshi emas, – dedi u. Bir lahza yelkam osha tashqariga tikilib turdi, keyin esa oshxonaga qarab yurdi.

– Afsusdaman, – dedim men.

– Yo'q, yo'q, u tashrifingizdan xursand bo'ladi, – tezda javob qaytardi u. – Albatta...

Gapini tugatmasdan jimib qoldi va boshini bir oz burib, nimanidir eshitishga urindi. So'ng gapida davom etdi:

– Albatta... shu yerdaligingizni eshitishi bilanoq o'ziga kelib qoladi.

Bozordan xarid qilgan narsalarim solingan paketlarni qo'limga oldim:

– Odatiy oziq-ovqat ta'minoti, – hazil aralash aytdim men.

Uning yuzida xavotir aralash tabassum paydo bo'ldi.

– Shundoq ham yegulik ko‘p edi. Oxirgi marta olib kelinganlaridan hech narsa yemadi hali.

Uning gapidan hayratga tushdim.

– Hech qaysini yemadimi? – so‘radim men.

U muzlatkichni ochgandi, tanish mahsulotlarga ko‘zim tushdi: tovuqli salat, vermishel, sabzavotlar, qovoq do‘lma – Morrigha atab olib kelganlarim. U hozirgina ko‘rganimdan ham ko‘proq yeguliklar to‘ldirilgan muzxonani ochdi.

– Morri bu ovqatlarning ko‘pini yeya olmaydi. Yutishga juda qiynalyapti. Endi u faqat yumshoq va suyuq mahsulotlarni yeyishi mumkin.

– Lekin u menga bu haqida hech og‘iz ochmagan, – dedim men.

Sharlotta jilmaydi:

– U sizni xafa qilishni xohlamaydi.

– Bu meni xafa qilmagan bo‘lardi. Shunchaki, qandaydir yordamim tegsa degandim. Unga nimadir olib kelsam degandim...

– *Nimadir* olib kelyapsiz. U tashrifingizni intizorlik bilan kutadi. Ushbu loyihani aynan siz bilan amalga oshirishi zarurligi, buning uchun diqqatini bir yerga jamlashi va alohida vaqt ajratishi kerakligi haqida gapiradi. Menimcha, bu Morrigha yashashidan maqsad borligini his qilishga yordam beryapti...

Uning nigohi yana uzoq-uzoqlarga tikilayotgandek qotib qoldi, xayolan boshqa yerda kezib yurgandek edi. Tunlari Morrining ahvoli yomonlashib borayotganini bilardim: kechasi uxlay olmasdi, demak, Sharlotta ham ko‘pincha mijja qoqmay chiqardi. Ba‘zida Morri soatlab yo‘talar, chunki tomog‘iga yopishgan balg‘amdan qutulish ancha vaqt olardi. Endi tibbiy xodimlar tuni bilan navbatchilik qilishar, kunduzi esa Morridan xabar olgani keluvchilarning keti uzilmasdi: sobiq talabalar, hamkasb professorlar, meditatsiya murabbiylari. Ayrim kunlari besh-olti kishi tashrif buyurar va ko‘pincha Sharlotta ishdan qaytganida, mehmonlar hali ham

professor bilan o'tirgan bo'lardi. Garchi begonalar Sharlottaning Morri bilan o'tkazishi mumkin bo'lgan qimmatli daqiqalarini o'g'irlayotgan bo'lsa-da, u barchasiga sabr bilan qarardi.

– ...maqsad borligini his qilish, – davom etdi Sharlotta. – Ha. Bilasizmi, bu foydali.

– Shunday deb umid qilaman, – dedim men.

Yangi keltirilgan yeguliklarni muzlatkichga joylashtirishga ko'maklashdim. Oshxona stolida turli qaydnomalar, xabarlar, ma'lumotlar va tibbiy ko'rsatmalar yozilgan qog'oz parchalari yotardi. Stol usti har doimgidan ham ko'proq dori-darmonlarga to'lib ketgandi: ko'ksov kasali uchun "Seleston", "Ativan" uyqu dorisi, infeksiyalarga qarshi kurashish uchun "Naproksen", sutli qorishma kukuni va surgi dorilar. Koridor oxirida eshik ochilgani eshitildi.

– Endi bo'shadi, shekilli... Borib qaray-chi.

Sharlotta yana men keltirgan yeguliklarga ko'z tashlagandi, birdaniga meni uyat hissi chulg'ab oldi. Bularning bari Morri endilikda lazzat olishdan mahrum bo'lgan narsalarni yodga solardi.

Morrining dardi og'irlashayotganini ko'rsatuvchi belgilar ko'payib borayotgandi. Va nihoyat, Morrining yoniga kirib o'tirganimda, u odatdagidan ko'proq yo'talayotganini sezdim: ko'krak qafasini larzaga keltirayotgan quruq, tomoqni qiruvchi yo'taldan boshi oldinga silkinib-silkinib ketardi. Navbatdagi yo'tal xurujidan keyin u to'xtab, ko'zlarini yumdi va chuqur nafas oldi. Uning o'ziga kelib olishini kutib, jimgina o'tirdim.

– Tasmaga yozib olyapsanmi? — to'satdan so'radi u, ko'zini ochmasdan.

– Ha, ha, — dedim men tezda, "Yoqish" va "Yozib olish" tugmalarini bosa turib.

– Men hozir, — davom etdi u ko'zlari yumuq holda, — voqelikdan uzilyapman.

– Uzilyapsiz?

– Ha. Uzilyapman. Bu nafaqat men kabi o'lim yoqasidagilar uchun, balki sendek tamomila sog'lom odamlar uchun ham muhim. Voqelikdan uzilishni o'rgan.

U ko'zlarini ochdi. Nafas chiqardi.

– Bilasanmi, buddistlar nima deydi? Buyumlarga bog'lanib qolmang, chunki hech biri boqiy emas.

– To'xtang, to'xtang, — dedim men. – Axir, doim hayotda hamma narsani tatib ko'rish kerak degan o'zingiz emasmi? Barcha yaxshi hislarni, yomonlarini ham.

– Ha.

– Xo'sh, agar voqelikdan uzilsangiz, qanday qilib tatib ko'rasiz?

– Hmm. Fikrlayapsan, Mich. Ammo uzilish bu voqelikning ichingga kirib borishiga monelik qilish degani emas. Aksincha, uning senga to'liq singib ketishiga imkon berish. Shundagina uni tark eta olasan.

– Hech vaqoni tushunmayapman.

– Istalgan tuyg'uni olaylik – xoh u ayolga muhabbat bo'lsin, xoh u yo'qotilgan suyukli insoning g'amida kuyish yoki men boshdan kechirayotgan hislar: og'riq va bedavo dard qo'rquvi bo'lsin. Agar hislaringni hadeb jilovlayversang, tuyg'ularingga erk bermasang, hech qachon ulardan qutila olmaysan, qo'rquv iskanjasida qolib ketasan. Og'riq, g'am seni dahshatga solaveradi. Muhabbat seni zaif qilib qo'yishidan qo'rqasan. Ammo o'zingni hech bir hadiklarsiz tuyg'ular ummoniga otib, unga tamoman g'arq bo'lgach, erkingni butunlay his-tuyg'ular ixtiyoriga topshirish orqaligina ularni to'laligicha his etasan. Og'riq nimaligini anglaysan. Muhabbat nimaligini anglaysan. Qayg'u nimaligini tushunib yetasan. Faqat shundan keyingina “Bo'ldi. Men bu tuyg'uni boshimdan kechirdim. Uni tanib oldim. Endi esa bir lahzaga bu tuyg'udan uzilishim kerak”, deya olasan.

Morri gapidan to'xtab, uning so'zlarini to'g'ri tushunayotganimga ishonch hosil qilish uchun menga sinovchan nigoh tashladi.

– Bilaman, gap faqat o‘lim haqida borayotgandek tuyulyapti senga,
– dedi u. – Lekin senga takror va takror ta’kidlaganimdek, o‘lishni o‘rgangan kuning yashashni ham o‘rganasan.

Morri boshidan o‘tgan eng qo‘rqinchli onlari haqida gapirib berdi: ko‘krak qafasi xurujlar iskanjasida qolib ketgandek yoki keyingi nafasi so‘nggisi bo‘lishi mumkindek tuyulgan paytlar.

– Dahshatli onlar, — dedi u. – Bunday paytda eng birinchi bo‘lib, qo‘rquv, vahima va sarosimaga tushib qolasan.

Biroq u ushbu hislarni, ularning tuzilishi, ta‘mi, etni jimirlatib, miyaga chaqmoqdek qaynoq qon yugurtirishini bilib olgach, o‘ziga “Yaxshi. Bu qo‘rquv. Undan chekinish kerak. Chekinish”, deya oladigan bo‘ldi.

Men bu kuch kundalik hayotda qanchalar asqatishi mumkinligi haqida o‘yladim. Ba‘zan o‘zimizni shunchalar yolg‘iz his qilamizki, o‘ksib yig‘lagimiz keladi; lekin yig‘lash uyat deb, ko‘z yoshlarimizni ichimizga yutamiz. Yoki umr yo‘ldoshimizga nisbatan mehrimiz jo‘shib ketgan paytlar ham, tuyg‘ularimizni izhor etish munosabatlarimizga aks ta‘sir o‘tkazishidan qo‘rqib, indamay qo‘ya qolamiz.

Morrining yondashuvi to‘laligicha buning aksi edi. Jo‘mrakni oxirigacha och. O‘zingni tuyg‘ular bilan pokla. Bu senga ozor bermaydi. Faqatgina yordami tegadi. Qo‘rquv ichingga kirib borishiga imkon berib, uni xuddi ko‘ylak kabi bemalol egningga ilib ketaveradigan bo‘lganingdagina, o‘zingga “Hammasi yaxshi, bu shunchaki qo‘rquv, xolos. U meni boshqarishiga imkon bermasligim kerak. Uning nimalarga qodirligini bilaman”, deya olasan.

Yolg‘izlik bilan ham xuddi shunday yo‘l tut: unga erk ber, yum-yum ko‘z-yosh to‘k. Keyin esa, “Mana, yolg‘izlik ta‘mini ham totib ko‘rdim. O‘zimni yolg‘iz sezishdan qo‘rqmayman, lekin endi uni bir chetga surib, bu olamning boshqa ko‘plab tuyg‘ulari bilan tanishib, ularni ham his qilib ko‘raman”, deyishga kuch top.

– Voqelikdan uzil, – takrorladi Morri.

U ko'zlarini yumib, yo'taldi. Keyin yana.

Uchinchisida yanada qattiqroq yo'taldi.

Bir payt u bo'g'ila boshladi: o'pkasida yig'ilib qolgan tiqin uni masxaralayotgandek yarim yo'lgacha ko'tarilib, keyin yana orqaga qaytar, nafas olishga imkon bermasdi. U tomog'iga nimadir tiqilib, o'tirgan joyida sakrab-sakrab tushar, qo'llarini oldinga uzatib, qattiq silkitardi. Ko'zlari yumuq holda qo'llarini silkitishidan vas-vas bo'lib qolgandek ko'rinardi. Peshonamni ter bosganini sezdim. Men beixtiyor uni o'zimga tortib, ikki kuragi o'rtasiga shapatiladim; u sochiqcha bilan og'zini berkitib, yo'taldi-da, balg'am xalqobini tupurib yubordi.

Yo'tal to'xtadi; Morri o'zining yumshoq yostiqlariga yastanib, yutoqib nafas oldi.

– Yaxshimisiz? O'zingizga keldingizmi? – so'radim men, qo'rquvimni yashirishga urinib.

– Ha... yaxshiman, – shivirladi Morri qaltirayotgan barmog'ini ko'tarib. – Hozir... Bir daqiqa.

Uning nafas olishi bir maromga tushgunicha jim o'tirdik. Boshim terlab ketganini his qildim. U derazani yopishimni so'radi – yengil shabadada ham sovuq yerd. Tashqarida havo 26 daraja issiqligini aytish esimdan chiqibdi.

– Qanday o'lishni xohlashimni bilaman, – va nihoyat shivirladi u.

Jimgina uning gapida davom etishini kutdim.

– Men xotirjam, osoyishta o'lim topishni xohlayman. Hozir ko'rganingdek emas. Mana qayerda voqelikdan uzila bilish qo'l keladi. Agar hozirgidek yo'tal tutganda jonim uzilsa, qo'rquvdan xalos bo'lib, "Vaqti-soatim yetdi", deya olishim zarur. Bu dunyoni yuragimda qo'rquv bilan tark etishni xohlamayman. Men nima sodir bo'layotganini anglash, holatni boricha qabul qilib, sokinlikda jon berishni xohlayman. Nima deyotganimni tushunyapsanmi?

Men bosh irg'atdim.

– Faqat hali ketmay turing, – shoshib qo'shib qo'ydim men.

Morri zo'rg'a jilmaydi:

– Yo'q. Hali erta. Hali qiladigan ishlarimiz bor.

– *Reinkarnatsiyaga ishonasizmi? – so'rayman men.*

– Qaydam.

– Nimaga aylanib qaytgan bo'lardingiz?

– Agar tanlash imkonim bo'lsa, ohuga.

– Ohu?

– Ha, ohu. Ular biram nazokatli. Biram uchqur.

– Ohu?

Morri menga qarab, jilmayadi:

– Senga tanlovim g'alati tuyulyaptimi?

Uning ozib-to'zib ketgan gavdasi, qopdek keng kiyimlari, qalin paypoq kiydirilib, g'alvirak rezina yostiq ustiga tashlab qo'yilgan, mahbusning temir kishan urilgan oyoqlari kabi qimirlashga ojiz oyoqlarini ko'zdan kechiraman. Sahroda shamoldek yelayotgan chopqir ohuni tasavvur qilaman.

– Yo'q, – deyman keyin. – Hecham g'alati emas.

Professor: ikkinchi qism

Men bilgan Morri, boshqa ko'plab insonlar bilgan Morri Vashington shahrining shundoq tashqarisida joylashgan, aldamchi osoyishta nomga ega “Kashtan uycha” ruhiy kasallar shifoxonasida ishlagan yillarisiz biz tanigan inson bo'la olmasdi. Bu Morrining Chikago universitetida magistrlik va PhD ilmiy darajalarini qo'lga kiritganidan keyingi dastlabki ish joylaridan biri edi. Tibbiyot, huquq va tadbirkorlikdan yuz o'g'irgach, Morri tadqiqot bilan mashg'ul bo'lishni boshqalarni ekspluatatsiya qilmasdan turib jamiyatga o'z hissasini

qo'sha oladigan soha deb topdi.

Morriga ruhiy xasta bemorlarni kuzatishi va ularning muolajalarini qayd etib borishi uchun grant ajratildi. Garchi bu hozirda odatiy bo'lib tuyulsa-da, elliginchi yillarning boshlarida yangi amaliyot hisoblanardi. Morri kun bo'yi baqirib chiqadigan bemorlarni ko'rdi. Tuni bilan yig'lab chiqadigan bemorlar. Ishtonini bulg'ab qo'yadigan bemorlar. Ovqat yeyishdan bosh tortgan bemorlarni qo'l-oyog'ini bog'lab, tomiriga dori-darmon yuborish orqali oziqlantirilgan bemorlarni kuzatdi.

Shifoxonadagi bemorlardan biri – o'rta yoshlardagi ayol har kuni xonasidan chiqib, koridorning kafelli poliga yuztuban yotib olib, soatlab shu holatda qolar, shifokor va hamshiralalar esa, shunchaki, uni chetlab o'tib ketaverardi. Morri uning harakatlarini qo'rquv bilan kuzatsa-da, kuzatuvlarini yon daftariga qayd qilib borardi – uning vazifasi ham shu edi. Bemor ayol har kuni shu harakatini takrorlard: tongda xonasidan chiqib kelib, polga yotib olar va to kechgacha shu holatda qolar, hech kim bilan gaplashmas, boshqalar ham unga e'tibor bermasdi. Morri unga achinardi. Morri uning yonida polda o'tirishni odat qildi; uni tushkunlikdan xalos qilishga urinar ekan, ba'zan unga qo'shilib polga yotib olardi. Oxir-oqibat uni o'tirishga va hatto xonasiga qaytishga ko'ndirdi. Ma'lum bo'lishicha, ayol ham aksariyat kishilar kabi boshqalar unga e'tibor qaratishlarini xohlagan ekan.

Morri "Kashtan uycha"da besh yil ishladi. Bemorlar bilan do'stlashish tavsiya etilmasa-da, Morri ularning bir nechtasi bilan yaqin bo'lib ketdi; ular orasida Morriga boy erining uni ushbu shifoxonaga joylashtirishiga qurbi yetganini o'zining omadi deb bilishini aytib hazillashuvchi ayol ham bor edi.

– Agar arzon ruhiy shifoxonalardan biriga joylashtirilganimda ahvolim ne kechardi? – derdi ayol.

Hammaning yuziga tupurib yuradigan boshqa bir ayol Morrini

yoqtirib qolgan, uni o'zining do'sti deb atardi. Ular har kuni suhbatlashar, shifoxonadagilar esa hech bo'lmasa bir kishi bu ayol bilan muloqotga kirisha olganidan mamnun edi. Biroq kunlarning birida ayol qochib ketdi va Morridan uni qaytarib olib kelishda yordam so'rashdi. Uni yaqindagi do'konlarning birida – omborxonada berkinib o'tirganini aniqlashdi. Morri kirib borganida, ayol unga g'azabnok nigohini qadadi.

– Sen ham ularning biri ekansan-da?! – qichqirdi u.

– Kimlarning biri? – so'radi Morri.

– Meni qamoqda saqlayotganlarning.

Morri aksariyat bemorlardan yaqinlari yuz o'g'irgani, ular boshqalar e'tiboridan mahrum ekanliklari va kishilarning munosabatidan o'zlarini bu hayotda umuman mavjud emasdek his qilishlariga guvoh bo'ldi. Ularga hamdardlik yetishmas, chunki shifoxona xodimlarida bu tuyg'u juda tez poyoniga yetardi. Bemorlarning ko'pchiligi badavlat, boy oilalardan bo'lib, boylik ularga baxt yoki hayotdan mamnunlik hissini bera olmagandi. Bu narsa Morri uchun unutilmas saboq edi.

Men Morriga oltmishinchi yillarda qolib ketgansiz, deb hazillashardim. U esa hozir yashayotgan davrimiz bilan solishtirganda oltmishinchi yillar u qadar yomon bo'lmaganini aytardi.

Morri Brandeysga ruhiy salomatlik sohasidagi ishidan keyin – oltmishinchi yillar arafasida kelgandi. Bir necha yil ichida universitet madaniy inqilob o'chog'iga aylandi. Giyohvand moddalar, jinsiy munosabatlar, irqchilik, Vetnam urushiga qarshi namoyishlar. Ebbi Xoffman Brandeysda tahsil olgan. Jerri Rubin va Anjela Devis ham. Morrining darslarida “radikal” talabalar ko'p edi.

Buning sabablaridan biri – Jamiyatshunoslik fakulteti o'qituvchilari oddiygina dars berishdan tashqari o'zlari ham ushbu jarayonlarga bosh qo'shgandi. Masalan, fakultet tish-tirnog'i bilan urushga qarshi

edi. Talabalar belgilangan o'rtacha ballni to'play olmasa, armiyaga chaqirilishi kechiktirilgani haqidagi hujjatlari bekor qilinishidan xabar topgan o'qituvchilar talabalarga umuman baho qo'ymaslikka qaror qilishdi. Universitet ma'muriyati agar baho qo'yilmasa, barcha talabalar imtihonlardan yiqilgan deb hisoblanishini aytganida, Morri ushbu muammoning yechimi topdi: "Keling, ularning hammasiga A (a'lo) baho qo'yamiz". Va hamma o'qituvchilar u aytganidek qildi.

Kampusga hurfikrlik olib kirgan oltmishinchi yillar Morrining bo'limida faoliyat yurituvchi xodimlarga ham hurfikir g'oyalar olib keldi: ishga hozirda odat tusiga kirgan jinsi shim va shippakda kelishdan boshlab to sinfxonaga yuragi urib turuvchi jonli dargoh sifatida qarashgacha. Ular muhokamani ma'ruzadan, amaliyotni nazariyadan ustun qo'ya boshladi. Ular inson huquqlari to'g'risidagi loyihalar ustida ishlayotgan talabalarni janubiy shtatlarga, amaliyotchi talabalarni esa katta shaharlarning nochor qismlariga yuborishdi. Ular norozilik namoyishlarida ishtirok etish uchun Vashingtonga borishar; Morri, ko'pincha, talabalar to'la avtobusni o'zi haydab borardi. U shunday safarlarning birida bo'yinlariga rang-barang munchoqlar taqib olgan ayollar etaklarini hilpiratib, askarlarning miltiqlariga gul qo'ygani, keyin esa maysazorga o'tirib, qo'l ushlab, Pentagonni fikr kuchi bilan havoga ko'tarishga urinishganini mayin tabassum bilan tomosha qildi.

– Uni qo'zg'ata olishmadi, – dedi Morri, keyinchalik shu voqeani yodga olarkan, – lekin, muhimi, urinib ko'rishdi.

Kunlarning birida bir guruh qora tanli talabalar Brandeys universitetining Ford korpusini egallab olishdi va unga "Malkolm X universiteti" deb yozilgan baner ilib qo'yishdi. Ford korpusida kimyo laboratoriyalari joylashgani sababli ayrim ma'muriyat vakillari bu radikallar yerto'lada bomba tayyorlayapti degan xavotirga ham bordi. Morri gap nimadaligini yaxshi bilardi. U muammoning asl mohiyati – o'zlarining qandaydir ahamiyatga ega ekanligini his

qilishga urinayotgan oddiy insonlar ekanini ko'rib turardi.

Qo'zg'olon bir necha hafta davom etdi. Morri binoning yonidan o'tib ketayotganida, qo'zg'olonchilardan biri sevimli ustozini tanib qolib, derazadan kirishga undamaganida, qo'zg'olon uzoqroq davom etishi ham mumkin edi.

Bir soatdan keyin Morri qo'zg'olonchilarning istaklari aks etgan ro'yxat bilan derazadan emaklab qaytib chiqdi. U ro'yxatni universitet prezidentiga yetkazgach, muammo hal etildi.

Morri har doim muammolarni tinch yo'l bilan hal qilishning uddasidan chiqardi.

Brandeys universitetida u ijtimoiy psixologiya, ruhiy xastaliklar va ruhiy salomatlik, jamoada shaxsning axloqi kabi fanlardan dars berardi. Darslar hozirda "kasbiy ko'nikmalar" deb ataluvchi jihatlarga ko'p ham urg'u bermasdan, asosiy e'tiborni "shaxsiy rivojlanish"ga qaratardi.

Shu sababli ham, bugunning huquqshunoslik va tadbirkorlik yo'nalishi talabalari uning darslarini o'ta sodda va befoyda deb hisoblagan bo'lardi, balki. Uning talabalari universitetni bitirgach, qancha pul topdi? Necha marta sudda katta ishlarni yutib chiqdi?

Biroq, shu bilan bir qatorda, universitetni tamomlagach, ushbu huquqshunos va tadbirkor talabalarning nechtasi o'zlarining keksa professoridan xabar oladi? Morrining talablari har doim uni ko'rgani kelib turishardi. Umrining oxirgi kunlarida unikiga yuzlab talabalari tashrif buyurdi: Boston, Nyu-York, Kaliforniya, London va Shveysariyadan; yirik kompaniyalar va nochor tumanlar maktablarida faoliyat yuritayotganlar. Unga qo'ng'iroq qilishdi, xatlar yozishdi. U bilan uchrashish, suhbatlashish, uning tabassumini ko'rish uchun yuzlab mil yo'l bosib kelishdi.

– Boshqa sizga o'xshagan birorta o'qituvchi topmadim, – deya ta'kidlardi kelgan talabalarning har biri.

Morri bilan suhbatlarimiz davom etarkan, men o'lim haqida o'qiy

boshladim: turli madaniyat vakillarining hayotdan ko'z yumishga qarashlari haqida. Masalan, Shimoliy Amerikaning Arktikaga yaqin qismida istiqomat qiluvchi bir qabila yer yuzidagi barcha narsaning ichida o'zining mitti shakli yashaydi, ya'ni kiyikning ichida mitti kiyikcha, odamning ichida esa mitti odamcha yashaydi. Tashqi – katta mavjudot vafot etganida, ichki – mitti mavjudot yashashda davom etadi. U yaqin-atrofdagi dunyoga kelgan boshqa mavjudotga aylanishi yoki buyuk ayol ruh qornida samodagi vaqtinchalik hordiq maskaniga ko'tarilib, oy uni yerga qayta yuborishini kutadi.

Ba'zida oy dunyoga kelgan yangi ruhlar bilan shu qadar band bo'ladiki, osmonda ko'rinmay qoladi, deyishadi. Shu sababli oysiz tunlar bo'lib turadi. Ammo, oxir-oqibat, oy har doim qaytadi, xuddi biz qaytganimizdek.

Mana nimaga ishonadi bu qabila.

Yettinchi seshanba: keksayishdan qo'rqish haqida suhbatlashamiz

Morri jangni boy berdi. Endi kimdir uning ketini artib qo'yadigan bo'ldi.

U buni odatiy dovyuraklik bilan qabul qildi. Hojatdan keyin qo'li orqasiga yetmayotganini anglagach, yana bir imkoniyati cheklanganidan Konnini xabardor qildi.

– Mening o'rnimga bu ishni qilishga uyalmaysizmi?

– Yo'q, — javob berdi u.

Dastlab insonning o'zidan so'rab olish – Morri uchun xos xislat edi.

Bu holat qaysidir ma'noda xastalikka to'liq taslim bo'lish hisoblangani sababli Morri unga ko'nikish bir oz vaqt olganini tan oldi. U endilikda eng oddiy va o'ta shaxsiy ishlarni bajarish imkoniyatidan ham mahrum bo'lgandi: hojatxonaga borish, burnini

artish, avratini yuvish. Nafas olish va ovqatini yutishdan tashqari, u deyarli barcha narsada boshqalarga qaram bo'lib qolgandi.

Men Morridan qanday qilib shu vaziyatda ham nekbin kayfiyatda yashashni uddalayotganini so'radim.

– Mich, bu qiziq, — dedi u. – Men mustaqil odamman, demak, bularning barchasi – mashinadan tushishda bironing yordamiga tayanish, kimdir meni kiyintirib qo'yishi kabi ishlarga qarshi kurashishim zarur, degan fikrda edim. Boshida bir oz uyaldim ham, chunki jamiyatimiz bizga ketimizni o'zimiz arta olmasak, bundan uyalishimiz kerakligini uqtiradi. Keyin o'ylab qoldim: “Jamiyat nima deyishini esingdan chiqar. Umrinning ko'p qismini jamiyat me'yorlariga amal qilmay o'tkazdim. Bu safar ham uyalib o'tirmayman. Shu ham muammomi?” Bilasanmi nima? Juda g'alati narsa sodir bo'ldi shunda.

– Nima bo'ldi?

– Boshqalarga qaramligimdan *rohatlana* boshladim. Hozir meni yonboshga yotqizib, og'riqlarni oldini olish uchun orqamga malham surib qo'yishlaridan rohatlanaman. Peshonamni artib qo'yishganida yoki oyoqlarimni uqalashganda ham. Men bundan zavqlanaman. Ko'zlarimni yumib, xursandchilikni qalbimga singdiraman. Bu juda tanish tuyg'udek tuyuladi menga. Xuddi bolalikka qaytib qolgandek sezaman o'zimni. Kimdir cho'miltiradi. Kimdir ko'taradi. Kimdir artib qo'yadi. Bola bo'lishni hammamiz bilamiz. Bu narsa barchamizning ich-ichimizda bor. Men uchun bu, shunchaki, bola bo'lishdan rohatlanishni qayta yodga olish, xolos. Haqiqat shundaki, hammamiz ham onamiz bizni qo'llariga olishi, tebratishi, boshimizni silashidan zavqlanib to'yamaganmiz. Har birimiz qaysidir darajada o'sha kunlarni – parvarishimiz butunlay o'zgalarning zimmasida bo'lgan paytlarga, bizga beminnat mehr, shartsiz e'tibor ko'rsatilgan davrlarni qo'msaymiz. Ko'pchiligimiz shu mehrga to'yamay qolganmiz. Menga shu narsalar yetishmagan.

Men Morriga qaradim va birdaniga nega u tomonga egilib, mikrofonni to'g'rilashim, yostiqlarini ko'tarib qo'yishim yoki mijjalarini artib qo'yishimdan bunchalar xursand bo'lib ketishini tushundim. Inson tafti. Yetmish sakkiz yoshida u kattalar kabi berib, bolalarcha qabul qilayotgandi.

Shu kuni kechga yaqin keksayish haqida suhbatlashdik. Ehtimol, keksayish qo'rquvi desam to'g'riroq bo'lar. Bu mavzu bizning avlodimizni qiynayotgan savollar ro'yxatidagi masalalardan biri edi. Boston aeroportidan kelgunimcha yo'ldagi yosh va chiroyli odamlar aks ettirilgan reklama taxtalarini sanadim. Bittasida kelishgan yigit, kovboylar shlyapasi kiyib, tamaki chekib turibdi, keyingisida ikkita yosh, chiroyli ayol shampun idishiga qarab jilmaymoqda, yana biridan jinsi shimining tugmalari qadalmagan o'smir qiz nozli nigoh tashlamoqda, boshqasida esa qora chiyduxoba ko'ylakli jozibali ayol kostyum-shim kiyib olgan erkakning yonida turibdi, qo'llarida bir qadah shotland viskisi.

Yo'lga o'rnatilgan reklamalarda birorta ham yoshi o'ttiz beshdan oshgan kishini ko'rmadim. Morriga qanchalik cho'qqida qolishga urinmay, bari bir dovonni oshib, yana pastlay boshlaganimni his qilayotganimni aytdim. Muntazam jismoniy mashqlar qilardim. To'g'ri kelgan narsani yeb ketavermasdim, parhezli ovqatlar iste'mol qilardim. Oynaga tikilib, sochimning farqini tekshirardim. Avvallari yosh bo'lishimga qaramay, ko'p yutuqlarga erishganim sababli yoshimni aytishdan faxrlanardim, endi esa qirq yoshga, demak, kasbiy tanazzulga ham, juda yaqinlashib qolganimdan qo'rqib, yosh haqida gapirishdan qochaman.

Morri keksayishga ijobiy tomondan qarardi.

– Yoshlikni madh etishlariga men laqqa ishonib ketavermayman, — dedi u. – Quloq sol, yoshlik qanchalar og'ir kechishini bilaman, shuning uchun menga yoshlikni maqtab ovora bo'lma. Oldimga ruhiy parokandalik, ichki ziddiyatlar, o'zidan qoniqmaslik hissidan

shikoyat qilib kelgan bolalarning barchasi hayotni g'am-hasratga to'la deb bilib, shu qadar tushkunlikka tushganidan o'zlarini o'ldirishni xohlardi... Shuncha badbaxtliliklar kamdek, yoshlarga donolik ham yetishmaydi. Ular hayot haqida juda sayoz tushunchaga ega. Nimalar sodir bo'layotganini tushunmagach, kim ham har kuni yashagisi keladi? Odamlar istaganicha qarashlaringga ishlov beradi, "Mana bu atirni sotib olsang, go'zal bo'lasan" yoki "Mana bu jinsi shimni olsang, jozibador ko'rinasan" deyishadi va sen ularga ishonasan! G'irt bema'nilik!

– Hech keksayishdan qo'rqmaganmisiz? — so'radim men.

– Mich, men keksalikni quchoq ochib kutib olaman.

– Quchoq ochib?

– Bu juda oddiy. Yoshing o'tgani sari hayotiy tajribang ham oshib boraveradi. Agar yigirma ikki yoshligingcha qolganingda, bir umr yigirma ikki yoshingdagi kabi johil bo'lib yasharding. Bilasanmi, keksayish bu faqatgina so'lish degani emas. Bu o'sish degani. Ajaling yaqinlashayotgani yomon, albatta, ammo o'lim muqarrarligini anglab yetishing va shu sababli ham mazmunliroq hayot kechirishing – keksayishning ijobiy tomoni.

– To'g'ri, — dedim men. – Lekin keksayish shuncha afzalliklarga ega bo'lsa, nega odamlar doim "Qaniydi, yoshligimga qaytib qolsam!" deydi? Kimningdir "Oltmish besh yosh bo'lib qolsam edi!" deganini hech eshitmaysiz.

U jilmaydi.

– Bilasanmi, bu nimadan darak beradi? O'z hayotidan qoniqmaslik. Behuda kechgan umr. Mazmuni topilmagan hayot. Sababi, agar sen hayoting mazmunini topgan bo'lsang, ortga qayting kelmaydi. Olg'a intilging keladi. Yana-da ko'prog'ini ko'rishni, kattaroq ishlarni amalga oshirishni xohlaysan. Oltmish besh yoshingni orziqib kutasan. Quloq sol. Sen bir narsani tushunishing kerak. Barcha yoshlar buni bilishi kerak. Agar nuqul keksayishga qarshi kurashish

bilan band bo'lsang, bir umr baxtsizligingcha qolaverasan, chunki keksalikdan qochib qutula olmaysan. Ha, yana bir gap, Mich, — u ovozini pastlatdi. — Haqiqat shuki, sen ham oxir-oqibat o'lasan.

Men bosh irg'atdim.

– O'zingni nimalar deb ovutishingdan qat'iy nazar.

– Bilaman.

– Biroq, umid qilamanki, — dedi u, — ungacha hali juda, juda ko'p vaqt bor.

U yuzida xotirjam ifoda bilan ko'zlarini yumdi, keyin esa mendan boshining orqasidagi yostiqlarni to'g'rilab qo'yishni so'radi. U o'zini qulay his qilishi uchun tana holatini muntazam o'zgartirib turish zarur edi. U oppoq yostiqlar, sariq porolon va ko'k sochiqlar bilan yasatilgan kresloda yastanib yotardi. Bir qarashda Morri yuk sifatida jo'natishga tayyorlanib, qadoqlanayotgandek tuyulardi.

– Rahmat, — dedi u, yostiqlarni surib qo'yar ekanman.

– Arzimaydi, — dedim men.

– Mich, nima haqida o'ylayapsan?

Javob berishdan oldin bir oz o'ylanib turdim.

– Mayli, — dedim keyin. – Qanday qilib yosh, sog'lom kishilarga hasad qilmasligingiz mumkinligi haqida bosh qotiryapman.

– Xah, albatta, hasad qilaman, — u ko'zlarini yumdi. – Ularning sport klublari yoki suzishga borish imkoni borligiga hasad qilaman. Yoki raqs tushishiga. Asosan, raqs tushish imkoni hasadimni keltiradi. Lekin hasad kirib keladi, men uni his qilaman, keyin esa ko'nglimdan chiqarib yuboraman. Voqelikdan uzilish haqidagi gaplarim esingdami? Qo'yib yubor. “Bu hasad, hozir men undan ajralib chiqaman”, deb ayt o'zingga. Keyin esa undan uzoqlash.

Morri yo'taldi: uzoq, tomoqni yirtadigan darajada qattiq yo'tal. Sochiqchani og'ziga bosib, zaifgina tupurdi. Uning qarshisida o'tirar ekanman, o'zimni undan ko'ra ancha kuchli, kulgili darajada kuchliroq, his qildim, go'yoki uni bir qop undek ko'tarib, osongina

yelkamga ortib oladigandek. Bu ustunligimdan uyalib ketdim, chunki boshqa hech bir jabhada undan ustun jihatim yo'q edi.

– Hasad qilishdan qanday tiyilasiz?

– Kimga?

– Menga.

U jilmaydi.

– Mich, qarilarning yoshlarga hasad qilmasligi ilojsiz. Hamma gap o'zingni boringcha qabul qilib, bundan quvona bilishingda. Hozir o'ttiz yosh bo'lish navbati seniki. Men ham bir paytlar o'ttiz yoshli bo'lish gashtini surganman, endi esa yetmish sakkiz yoshli bo'lish vaqtim keldi. Ayni paytdagi hayotingning ijobiy, go'zal va asl tomonlarini ko'ra bilishing zarur. Ortga boqish odamda raqobat ruhini uyg'otadi. Yosh esa raqobatlashadigan masala emas.

U nafas chiqarib, go'yoki yoyilib ketayotgan havoni tomosha qilmoqchidek, pastga qaradi.

– Rostini aytsam, menda barcha yoshlar mujassam. Men uch yoshdaman, besh yoshdaman, o'ttiz yetti yoshdaman, ellik yoshdaman. Men ularning barchasini boshimdan kechirganman, demak, muayyan yoshda bo'lish qandayligini bilaman. Bola bo'lish joiz bo'lsa, o'zimni boladek tutishdan zavqlanaman. Dono qariya bo'lishning o'rni kelganda, dono qariyaligimdan quvonaman. Tasavvur qilib ko'rgin, a, nechta insonga aylana olaman! Hozirgi paytingacha bo'lgan barcha yoshda bo'la olaman. Nima deyayotganimni tushunyapsanmi?

Men bosh irg'atdim.

– Qanday qilib sening hozirgi holatingga hasad qilishim mumkin, o'zim ham shu yo'lni bosib o'tgan bo'lsam?

Sakkizinchi seshanba: pul haqida suhbatlashamiz

“Aksariyat mavjudotlar taqdir hukmiga bo‘ysunadi, faqat insongina ongli ravishda o‘z hayotini xatarga qo‘yadi”.

V. H. Oden, Morrining sevimli shoiri.

Men gazetani Morrigha ko‘rinarli qilib tutib turdim:

Qabrtoshimda “Men hech qachon telekompaniyalar tarmog‘iga egalik qilmaganman” degan yozuv bo‘lishini xohlamayman

Morri kuldi, so‘ng bosh chayqatdi. Tongi quyosh uning ortidagi derazadan mo‘ralar, uning nurlari deraza tokchasidagi hibiskus butasi gullariga tushib turardi. Iqtibos yirik muzokarada CBS teleradio tarmog‘ini o‘zlashtirib ololmaganidan nolib yurgan media magnat, milliarder, CNN telekanali asoschisi Ted Turnerga tegishli edi. Bu hikoyani Morrinikiga ko‘tarib kelganimning sababi meni bir savol qiziqtirardi: agar hozir Turner keksa professorimning holiga tushib qolib, nafas olishi qiyinlashib, tanasi toshdek qotib, qolgan sanoqli kunlarini birma-bir taqvimdan o‘chirib yashayotgan bo‘lganida o‘zining telekompaniyalar tarmog‘i yo‘qligi sababli dod-voy qilayotgan bo‘larmidi?

– Bularning bari o‘sha bitta muammoga borib taqaladi, Mich, — dedi Morri. – Biz qadriga yetishimiz zarur bo‘lgan narsalarni chalkashtirib qo‘yganmiz. Bu esa odamlarning hayotdan ko‘ngli sovishiga sabab bo‘ladi. Menimcha, shu haqida suhbatlashishimiz kerak.

Morri bugun bor diqqatini bir yerga jamlagandi. Hozirga kelib, uning kunlari yaxshi va yomonga ajralgan, bugun yaxshi kunlardan biri edi. O‘tgan oqshom Morrinikiga bir mahalliy musiqiy guruh tashrif buyurib, u uchun musiqiy asboblarsiz xor ijro etib berishibdi va u menga bu haqida go‘yoki mashhur “Ink Spots” guruhining o‘zi unikiga mehmonga kelgandek to‘lqinlanib gapirib berayotgandi. Xastalikka chalinishidan oldin ham Morrining musiqaga ishqiq baland edi, biroq hozir uning musiqaga bo‘lgan muhabbati shunchalar

otashin ediki, kuy eshitganida ko'ziga yosh kelardi. Ba'zan tunlari ko'zlarini yumgancha opera tinglar, ijrochilarning sohir ovozlariga hamohang xayolan ko'kda parvoz qilardi.

– Kechagi guruhning ijrosini eshitib ko'rganingda edi, Mich! Mana buni ovoz desa bo'ladi!

Morri har doim kuylash, raqs tushish va kulish kabi oddiy narsalardan zavq olishga ishqiboz edi. Hozir esa moddiy narsalarning qadri har qachongidan ham pasaygan yoki ular o'z ahamiyatini butunlay yo'qotgandi. Odamlar vafot etganida, ko'pincha, "Buni go'ringga orqalab keta olmaysan" degan iborani eshitamiz. Morri bu hikmatni ancha oldin anglab yetgandek edi.

– Bizda miyani yuvishning bir shakli shiddatli tus olmoqda, — xo'rsinib qo'ydi Morri. – Bilasanmi, odamlar miyasini yuvish qanday amalga oshiriladi? Bir narsani qayta va qayta takrorlayverish orqali. Mamlakatimizda hozir aynan shu narsa sodir bo'lmoqda. Moddiyatga egalik qilish yaxshi. Puling ko'p bo'lgani yaxshi. Mol-mulkning ko'proq bo'lishi ham yaxshi. Qancha ko'p foyda kelsa, shuncha yaxshi. Ko'proq bo'lgani yaxshi. Ko'proq bo'lgani yaxshi. O'zimiz ham shuni takrorlaymiz va toki hech kimning o'zgacha fikrlashga hafsalasi qolmagunicha, boshqalar ham takror va takror shu narsani miyamizga quyishadi. Bu tushuncha oddiy insonlarning miyasiga shu qadar o'tirib qolganki, ular aslida hayotda nima muhimligini ham farqlay olmay qolgan. Umrim davomida qayerga bormay, men uchratgan odamlarning barchasi birorta yangi narsani qo'lga kiritish ishtiyoqida yonardi. Yangi mashinani qo'lga kiritish. Yangi uyni qo'lga kiritish. So'nggi chiqqan o'yinchoqni qo'lga kiritish. Keyin esa ular, albatta, senga yangi o'ljasi haqida aytishni xohlaydi. "Bilasanmi, nima sotib oldim? Nima olganimni top-chi?". Bilasanmi, men buni qanday talqin qilardim? U odamlar shu qadar mehrga tashna ediki, uning o'rnini bosuvchi har qanday narsani qabul qilaverardi. Moddiyat bizni o'z bag'riga oladi, degan umidda odamlar

quchoq ochib, o'zlarini moddiy narsalar tomon otardi. Ammo bu harakat hech ish bermaydi. Do'stlik, muhabbat, mehr yoki ezgulik o'rnini moddiy buyumlar bilan to'ldirib bo'lmaydi. Pul ham, kuch-qudrat ham mehr o'rnini bosa olmaydi. Mana-mana o'laman deb turgan inson sifatida aytishim mumkin, qanchalik boy bo'lma, mehrga eng muhtoj paytingda pul ham, kuch-qudrat ham sen izlayotgan tuyg'uni bera olmaydi.

Men Morrining kabinetini ko'zdan kechirdim. Xona men kelgan birinchi kunda qanday bo'lsa, hozir ham xuddi shunday edi. Kitoblar javondagi o'rnidan siljimagan, eski yozuv stoli ustida o'sha-o'sha qog'ozlar uyumi. Boshqa xonalarda ham hech bir yaxshilanish yoki yangilanish sezilmaydi. Uzoq vaqtdan beri, ehtimol, bir necha yillardan beri, Morri, tibbiy jihozlardan tashqari, chindan ham boshqa hech narsa sotib olmagan edi. Bedavo dardga chalinganidan xabar topgan kuniyoq uning yangi xaridlarga qiziqishi o'lgandi.

Uyda o'sha eski rusumdagi televizor, Sharlotta hali ham o'sha eski rusumdagi avtomobilni haydaydi, idishlar, kumush oshxona anjomlari va sochiqlar – hammasi o'sha-o'sha. Biroq uydagi muhit keskin o'zgargandi. Uy mehr-muhabbat, ilm va qizg'in muloqotlar bilan to'lgandi. Do'stlar, qarindoshlar, samimiy suhbatlar va ko'z yoshlar bilan to'lgandi. Uyidan hamkasblar, talabalar, meditatsiya murabbiylari, davolovchi shifokorlar, hamshiralalar va musiqiy guruhlarning oyog'i uzilmasdi. Morrining bank hisobidagi mablag'lar jadallik bilan kamayib borayotgan bo'lsa-da, uyi asl ma'noda boy xonadonga aylangandi.

– Bizda odamlar nimani xohlashlari va aslida nimaga muhtojliklarini doim chalkashtirib yuboradi, – ta'kidladi Morri. – Sen oziq-ovqatga muhtojсан, shokoladli muzqaymoqni esa xohlaysan. Buni ochiq tan ola bilish kerak. Eng so'nggi rusumdagi sport avtomobiliga ehtiyojning yo'q, eng katta uyga ega bo'lishing ham zaruriyat emas.

Haqiqat shundaki, bu kabi narsalar senda qoniqish hissini uyg'otmaydi. Bilasanmi, nima odamga chindan ham qoniqish hissini beradi?

– Nima?

– Berishing kerak bo'lgan narsalarni boshqalarga taqdim qilish.

– Xuddi boy-skautga o'xshab gapirasiz, a.

– Pulni nazarda tutmayapman, Mich. Vaqtni nazarda tutyapman. G'amxo'rlikni. Suhbatni. Bu unchalik qiyin emas. Yaqinimizda qariyalar markazi ochilgan. U yerga har kuni o'nlab qari kishilar boradi. Biror ko'nikmaga ega yoshlardan esa u yerga borib, o'z ko'nikmalarini qariyalarga o'rgatish so'raladi. Aytaylik, sen kompyuterga yaxshi tushunasan – borasan va kompyuterdan foydalanishni o'rgatasan. Ular sendan juda ham xursand va minnatdor bo'lishadi. Shu tarzda o'zing ega bo'lgan narsalarni boshqalarga berish orqali hurmat qozona boshlaysan. Bu kabi joylar anchagina. Va sendan favqulodda iste'dod talab qilinmaydi. Shifoxona va boshpanalarda ko'plab yolg'iz insonlar bor, ular xohlaydigan yagona narsa – hamsuhbat, hamroh. Ular senga muhtoj – yolg'iz qariyalar bilan karta o'ynash orqali o'z-o'zingni hurmat qila boshlaysan. Hayot mazmunini topish haqida nima deganim esingdami? Men uni yozib qo'ygandim, lekin hozir yoddan aytib bera olaman: O'zingni boshqalarga mehr ulashishga bag'ishla, o'zingni atrofingdagi insonlarga bag'ishla, hayotingga maqsad va mazmun taqdim etuvchi nimadir yaratishga o'zingni baxshida et. Sezdingmi, – qo'shimcha qildi u jilmayib, – maosh haqida hech narsa tilga olinmadi.

Morrining ba'zi gaplarini sariq yon daftarchamga yozib borardim. U nigohimdan nimalar haqida o'ylayotganimni, oliygohni bitirganimdan beri hayotimning katta qismini aynan u tanqid qilayotgan narsalar – kattaroq o'yinchoqlar, hashamdorroq uylar ortidan quvib o'tkazganimni bilib qolmasligi uchun ham yozish bilan mashg'ul

bo'ldim. Boy va mashhur sportchilar orasida ishlaganim sababli ehtiyojlarim haqiqiy ekanligi, mening ochko'zligim ularniki bilan solishtirganda hech narsa emasligiga o'zimni ishontirgandim.

Morri bir harakat bilan bularning bari xomxayol ekanini anglatib qo'ydi.

– Mich, agar sendan yuqorida turgan kishilarga o'zingni ko'z-ko'z qilishga urinayotgan bo'lsang, buni esingdan chiqar. Ular senga bari bir past nazar bilan qarashadi. Agar o'zingdan quyi odamlarga o'zingni ko'z-ko'z qilishga urinayotgan bo'lsang, buni ham esingdan chiqar. Ular senga faqat hasad qilishadi. Mansab hech narsani o'zgartirmaydi. Faqatgina ochiqko'ngillik seni boshqa istalgan kishi bilan tenglashtirishga qodir.

U bir oz tin oldi, keyin menga qaradi:

– Men o'lyapman, to'g'rimi?

– Ha.

– Nima deb o'ylaysan, nega boshqalarning muammolarini tinglash men uchun shunchalik muhim? O'zimning dardim, og'riqlarim kammi menga? Albatta, yetarli. Lekin kimgadir nimadir berish orqali tirikligimni his qilib turaman. Mashinam yoki uyimni emas. Ko'zgdagi aksimni ham emas. Vaqtimni berib, hozirgina g'amga botib turgan kishini tabassum qildirishga muvaffaq bo'lganimda, o'zimni xuddi sog'lom kishidek his qilaman. Qalbing buyurgan ishlarni qil. Shunday qilsang, qoniqmaslik hissini tuymaysan, hasad qilmaysan, boshqalarda bor narsalarga ega bo'lish ishtiyoqida kuymaysan. Aksincha, qilgan ishlaring natijasidan huzurlanasan.

U yo'taldi va kursisida turgan kichik qo'ng'iroqchaga qo'l uzatdi. Bir necha bor uni qo'lga olishga urindi, uddasidan chiqa olmadi; nihoyat, men uni olib, Morrining kaftiga qo'ydim.

– Rahmat, – deb shivirladi u. Konnini chaqirish uchun qo'ng'iroqni holsizgina siltadi. – Anavi yigit, Ted Turner, qabr toshiga yozdirish uchun boshqa narsa o'ylab topa olmabdimi? – dedi Morri.

To'qqizinchi seshanba: mehr barhayot qolishi to'g'risida suhbatlashamiz

“Har tun uyquga ketganimda, o'laman. Ertasi kuni tongda uyg'onganimga esa, qayta tug'ilaman”.

Mahatma Gandi.

Daraxtlar bargi sarg'ayib, G'arbiy Nyuton shaharchasi oralab o'tgan yo'l oltin va zang tusini olayotgan palla. Detroytda kasaba uyushmasi va nashriyotlar o'rtasidagi mojaro boshi berk ko'chaga kirib qolgan, tomonlar bir-birini murosa qilishdan bosh tortayotganlikda ayblash bilan ovora. Televideniye orqali uzatilayotgan xabarlar esa undan battar yurakni ezadi. Kentukki qishloqlaridan birida uch erkak qabrtosh bo'laklarini ko'prikdan pastga uloqtirib, ko'prik tagidan o'tayotgan mashinaning old oynasini sindirgan, mashinada oilasi bilan ziyoratga ketayotgan o'smir qiz esa voqea joyida vafot etgan. Kaliforniyada O. J. Simpsonning sud ishi yakuniga yetay deb qolgan va butun aholining fikr-u xayoli shu ishga qaratilgandi. Hattoki aeroportlarda ham zallarga o'rnatilgan televizorlar CNN kanaliga to'g'rilangan bo'lib, to parvozingizga chiqish uchun yo'lakdan kirib ketguningizcha O.J. Simpsonning ishiga taalluqli yangiliklardan boxabar bo'lishingiz mumkin edi.

Ukamning holini so'rash uchun bir necha marta Ispaniyaga qo'ng'iroq qildim. Chindan ham u bilan suhbatlashishni juda xohlashimni, so'nggi paytlarda munosabatlarimiz haqida ko'p o'ylayotganimni aytib, telefon avtojavobbergichida xabarlar goldirdim. Bir necha hafta o'tib, ukamdan ishlari joyida ekani, lekin xastaligi haqida umuman gaplashishni istamasligi va bundan afsusdaligi aytilgan qisqa xabar oldim.

Keksa professorimni esa xastalik to'g'risidagi suhbatlar emas, balki

xastalikning o'zi domiga tortib ketayotgandi. Oxirgi tashrifimdan beri hamshira uning olatiga peshobni naycha orqali tortib olib, kursi poyida turgan plastik qopga bo'shatuvchi kateter o'rnatibdi. Uning oyoqlarini muntazam to'g'rilab turish zarur edi (ALSning shafqatsiz hazillaridan biri – professor oyoqlarini qimirlata olmasa-da, hali ham og'riq his qilardi), chunki oyoqlar penoplast to'shamadan aynan ma'lum dyuymga osilib turmasa, kimdir ularga sanchqi tiqib olayotgandek azob berardi. Naq suhbatning o'rtasida Morri mehmonlardan uning oyoqlarini ko'tarib, bir dyuymginaga surish yoki rang-barang yostiqlarga qulayroq joylashish uchun boshini to'g'rilab qo'yishni so'rardi. O'z boshingizni qimirlatishga ham qurbingiz yetmay qolishini tasavvur qila olasizmi?

Har tashrifimda Morri kursisiga tobora chuqurroq singib, uning umurtqa pog'onasi ham kursi shakliga kirayotgandek tuyulardi. Shunga qaramasdan, har tong uni yotoqdan olib, aravachasiga o'tqizib, kitoblar va qog'ozlarga to'la, deraza tokchasida hibiskus guli o'sayotgan shaxsiy kabinetiga eltib qo'yishlarini so'rardi. Odatdagidek, Morri shu harakatdan ham falsafiy ma'no topardi.

– Oxirgi yozilgan hikmatli so'zlarim shu haqida, — dedi u.

– Qani, eshitaylik-chi.

– Yotog'ingdan turmabsan, demakki, sen – murdasan.

Morri jilmaydi. Faqatgina Morri shu holatida ham bu kabi hazillarga kula olardi.

“Tungi xabarlar” ko'rsatuvi xodimlari va hattoki Ted Koppelning o'zi ham unga bir necha marta qo'ng'iroq qilishdi.

– Uyga kelib, men haqimda yana bitta ko'rsatuv olishmoqchi, — dedi u. – Lekin yana bir oz kutaylik, deyishdi.

– Nimani kutadi? So'nggi nafasingizni kameraga muhrlashnimi?

– Qaydam. Bari bir unga ham ko'p qolmadi.

– Unday demang.

– UZR.

– Joningiz uzilishini kutayotganliklari g‘ashimni keltiryapti.
– Menga joning achigani uchun ham bu seni g‘ashingga tegyapti, — jilmaydi Morri. – Mich, balki ular tomoshabinlarga qayg‘uli tomosha ko‘rsatish maqsadida mendan foydalanmoqchidir. Qarshiligim yo‘q. Ehtimol, men ham ulardan foydalanayotgandirman. Ular fikrlarimni millionlab odamlarga yetkazishimga ko‘maklashmoqda. Ularsiz bu narsa qo‘limdan kelmasdi-ku, to‘g‘rimi? Shunday ekan, bu ikki tomonlama manfaatli bitim.

Uni yana uzoq, tomoqni qiruvchi yo‘tal tutib, oxiri quyuq balg‘am ko‘chishi bilan yakunlandi.

– Nima bo‘lganda ham, — dedi Morri. – Men ularga ko‘p kutmaslikni maslahat berdim, chunki yaqinda ovozimdan ham tamoman ayrilishim mumkin. Bu dard o‘pkamga yetib kelishi bilan tildan qolsam kerak. Hozir dam olmasdan uzoq gapirolmayman. Meni ko‘rgani kelmoqchi bo‘lganlarning ham ko‘pchiligiga rad javobini berdim. Mich, ular biram ko‘pki. Juda holdan toyganman. Ularga yetarlicha e‘tibor qaratmasdan yordam berolmayman.

O‘zimni aybdor his qilganicha, magnitofonga qaradim. Go‘yoki uning qimmatli so‘zlashish vaqtini o‘g‘irayotgandek edim.

– Buni qoldirib tursakmikan? — so‘radim men. – Sizni ancha charchatsa kerak?

Morri ko‘zlarini yumib, boshini chayqadi. U qayeridadir turgan sassiz og‘riq bosilishini kutayotgandek ko‘rindi.

– Yo‘q, — dedi u va nihoyat. – Biz davom etishimiz kerak. Axir bu bizning so‘nggi ilmiy ishimiz-ku.

– So‘nggi ishimiz.

– Uni qoyilmaqom qilib yozish istagidamiz-ku.

Universitetda diplom ishimni birgalikda yozganimiz yodimga tushdi. G‘oya Morridan chiqqandi, albatta. U menga a‘lo darajali diplom ishi yozish uchun bilimim yetarli ekanini aytgandi, ungacha men bu narsani xayolimga ham keltirmagandim.

Mana endi, xuddi o'sha ishni yana birgalikda bajaryapmiz. Yana barchasi bitta g'oyadan boshlandi. O'layotgan odam yashashda davom etayotgan odamga u nimalarni bilishi zarurligi haqida so'zlab bermoqda. Faqat bu safar men ishni yakunlashga oshiqmayotgandim.

– Kecha menga bir qiziq savol berishdi, — dedi Morri, yelkam osha devorga osig'liq turgan kiltni tomosha qilib. Do'stlari kiltni ezgu tilaklar bitilgan quroqlardan tikib, Morrining 70 yillik yubileyiga sovg'a qilishgan. Kiltning har bir qurog'ida turlicha tilaklar bildirilgandi: **Bardam bo'ling, Morri, eng katta yutuqlar hali oldinda! Ruhshunoslik sohasida birinchi raqamli mutaxassis!**

– Savol nima haqida edi? — so'radim men.

– Vafotimdan so'ng meni unutib yuborishlaridan qo'rqamanmi?

– Xo'sh? Qo'rqasizmi?

– Unutilaman deb o'ylamayman. Men bilan samimiy, o'ta yaqin munosabatda bo'lgan qalin do'stlarim juda ko'p. Mehr – bu dunyoni tark etganingdan keyin ham barhayot qolish vositasi.

– Qo'shiq so'zlariga o'xshaydi: mehr barhayot qolish vositasi.

Morri qiqirlab kuldi.

– Ehtimol, shundaydir. Qaragin, Mich, mana shu uzoq suhbatlarimiz-chi? Uyingga qaytgan paytlaring ovozim yozilgan tasmani hech eshitib ko'rsanmi? Yolg'iz qolganingda? Balki parvoz vaqtidadir? Ehtimol, mashinada ketayotganingda?

– Ha, — iqrar bo'ldim men.

– Demak, men bu dunyoni tark etganimdan keyin ham sen meni unutib yubormaysan. Ovozimni yodga olgan oningdayoq men sen turgan yerda bo'laman.

– Ovozingizni yodga olaman...

– O'sha lahzada ko'zing bir oz yoshlansa ham mayli, hechqisi yo'q.

Eh, Morri. Birinchi kursligimdan beri meni yig'latishni xohlaydi.

– *Bari bir bir kun yig'lataman, — derdi u nuqul.*

– Heh, qo‘ysangiz-chi, — deb javob berardim.

– Men qabrtoshimda qanday bitik bo‘lishini istashim to‘g‘risida bir qarorga keldim, — dedi u.

– Qabrtoshlar haqida eshitishni xohlamayman.

– Nega? Ularni eslasang, asabiylashasanmi?

Men yelka qisdim.

– Mayli, mavzuni o‘zgartiramiz.

– Yo‘q, gapiravering. Nima qarorga keldingiz?

Morri lablarini cho‘chchaytirdi.

– “So‘nggi nafasigacha dars bergan” deb yozdirish haqida o‘ylayapman.

Morri bu yangilikni hazm qilib olgunimcha bir oz kutdi.

– So‘nggi nafasigacha dars bergan.

– Bo‘ladimi? — dedi u.

– Ha, — dedim men. – Juda yaxshi.

Xonaga kirib kelishim bilan Morrining yuzi quvonchdan yorishib ketishini yaxshi ko‘raman. Bilaman, u kelganlarning ko‘pchiligini shunday kutib oladi, ammo Morri har bir mehmonda faqat u kelgandagina yuziga shunday tabassum yuguradigandek taassurot qoldirish qobiliyatiga ega edi.

– O-o, qadrdonim keldi-ku, — derdi u, meni ko‘rishi bilan, baland, xirildoq ovozda. Ushbu yoqimli holat faqat salomlashish bilan tugamasdi. Morri yoningizda o‘tirganida chindan ham siz bilan bo‘lardi. U nigohini ko‘zingizdan uzmay, so‘zlaringizni go‘yoki siz dunyoda mavjud yagona insondek tinglardi. Agar odamlarning har tongi, ofitsiant, avtobus haydovchisi yoki boshliqlarining javrashini eshitish bilan emas, balki mana shunday insonni uchratishdan boshlanganida edi, jamiyatdagi munosabatlar qanchalar iliqlashgan bo‘lardi deysiz?

– Tamomila faqat bir yerda hozir bo‘lish mumkinligiga ishonaman, — dedi Morri. – Bu butun vujuding va fikr-u xayoling bilan

suhbatdoshing yonida bo'lishni anglatadi. Masalan, sen bilan suhbatlashayotgan bo'lsam, Mich, men bor diqqatimni faqat ikkimizning o'rtamizda borayotgan muloqotga qaratishga harakat qilaman. O'tgan hafta gapirgan gaplarimiz to'g'risida o'ylamayman. Kelasi jumaga qanday rejalarim borligi haqida ham o'ylamayman. Koppel bilan keyingi ko'rsatuvni olish yoki qaysi dorilarni qabul qilayotganim haqida ham o'ylamayman. Men sen bilan gaplashyapmanmi, demak, fikrim faqat sen bilan band.

Morrining Brandeysda "Guruhlardagi jarayon" darsida bizga ushbu g'oyani uqtirishga uringani yodimga tushdi. O'sha paytlar "shu ham universitetda o'tiladigan dars bo'ldi-yu", deb ensam qotgan. E'tibor qaratishni o'rganish? Nimasi muhim buni? Hozir esa shu ko'nikma universitetda o'rgatilgan narsalarning deyarli barchasidan ahamiyatliroq ekanini tushunib yetganman.

Morri qo'limga ishora qilib imladi va qo'limni unga uzatar ekanman, ichimni aybdorlik hissi qamrab oldi. Qarshimda, agar xohlasa, har lahzasini o'ziga achinish, yemirilib borayotgan jismini kuzatish va har nafasini sanash bilan o'tkazishi mumkin bo'lgan inson o'tirardi. Ko'plab kishilar arziyas muammolar girdobida yashaydi, gapingiz o'ttiz soniyadan uzoqroq davom etsa, nigohidan ularning xayoli sizdan chalg'iganini kuzatish mumkin. Ularning fikri allaqachon boshqa ish bilan band bo'ladi: qaysidir do'stiga qo'ng'iroq qilish, kimgadir faks yuborish yoki suyuklisi haqida xayol surish bilan. Faqat gapingizni tugatganingizdagina, ularning bor e'tibori sizga qaytadi va "Ha, ha" yoki "Yo'g'-e, rostdanmi?" kabi jumalar bilan o'zini xuddi sizni diqqat bilan tinglagandek ko'rsatadi.

– Qisman muammoning sababi shundaki, Mich, kishilar nuqul qayergadir shoshadi, — dedi Morri. – Odamlar hali hayot mazmunini topmagan va shu sababli, ular doim uni topishga oshiqadi. Ular mazmun keyingi mashina, keyingi uy, keyingi ishda deb o'ylaydi. Keyin esa bular ham hayotga mazmun berolmasligini tushunib,

yana qidirishga kirishadi.

– Bu poygaga kirishgach, – dedim men, – odam o‘zini to‘xtatishi qiyin.

– Unchalik qiyin emas, – dedi u bosh chayqab. – Bilasanmi, men nima qilaman? Mashina hayday olgan paytlarim, yo‘lda kimdir meni quvib o‘tmoqchi bo‘lsa, qo‘limni ko‘tarardim...

U shu harakatni ko‘rsatmoqchi bo‘ldi, lekin qo‘li bor-yo‘g‘i olti dyuymga zo‘rg‘a ko‘tarildi.

– ...Qo‘limni yo‘q demoqchidek ko‘tarardim, keyin esa jilmayib, haydovchiga qo‘l silkitardim. O‘rta barmog‘ingni ko‘rsatish o‘rniga, ularga tabassum bilan yo‘l berasan. Bilasanmi nima? Aksariyat hollarda ular ham senga qarab jilmayadi. Haqiqat shundaki, mashinamda qayergadir oshiqishim shart emas. Buning o‘rniga, quvvatimni insonlarga kayfiyat ulashishga sarflashni afzal ko‘raman. Bu ishni men taniganlar ichida undan yaxshiroq bajaradigan kishi yo‘q edi. Agar Morriga qandaydir ko‘ngilsiz hodisa haqida gapirishsa, uning ko‘zi namlanar yoki o‘xshamagan hazil qilinsa ham, ko‘zlari quvonchdan chaqnab ketardi. Mening yoshimdagi avlod vakillaridan farqli ravishda, u har doim o‘z hissiyotini ochiq ifoda etishga tayyor edi. Biz yuzaki suhbatlargagina ustamiz: “Nima ish qilasiz?” “Qayerda yashaysiz?” Biroq hozirgi kunda hamsuhbatimizga nimadir o‘tkazish, o‘zimizga og‘dirish, biror ish qildirish yoki evaziga qandaydir manfaat olishga urinmasdan, hech uni chin dildan tinglaymizmi? Ishonchim komilki, oxirgi bir necha oy davomida Morrini ko‘rgani keluvchilar unga e‘tibor ko‘rsatish uchun emas, balki Morri ularga ko‘rsatgan e‘tibor tufayli unikiga serqatnov edi. Tanidagi og‘riq va yemirilishga qaramasdan, ushbu mitti chol ularni o‘zlari xohlagandek diqqat bilan tinglardi.

Men Morriga u hammaning orzusidagi ota ekanini aytdim.

– Nima ham derdim, – dedi u ko‘zlarini yumib, – bu borada bir oz tajribam borligi rost...

Morri o'z otasini oxirgi marta shahar morgida ko'rgandi. Charli Shvarts Bronksdagi Termont xiyobonida ko'cha chirog'i ostida yolg'iz gazeta o'qishni yoqtiradigan kamgap kishi edi. Morri bolaligida Charli har oqshom kechki ovqatdan so'ng piyoda sayr qilishga otlanardi. U kichik jussali, kulrang sochli va qizg'ish yuzli rus kishi edi. Morri va uning ukasi Devid derazadan termilib, uning chiroq ustuniga suyanib turishini kuzatishardi. Morri otasining uyga kirishini va ular bilan gaplashishini juda ham xohlardi, lekin u deyarli hech qachon bunday qilmasdi. Shuningdek, otasi ularni uxlashga yotqizmas va uyquga ketishdan oldin o'pib ham qo'ymasdi.

Morri o'z-o'ziga, agar farzandli bo'lsa, ularni bu narsalardan, aslo, mahrum qilmaslikka va'da bergandi. Yillar o'tib farzandli bo'lganida o'z va'dasini bajardi.

Morri o'z farzandlarini katta qilayotgan paytda Charli hali ham Bronksda yashardi. U hali ham piyoda sayr qilishga chiqardi. Hali ham gazeta o'qirdi. Bir oqshom u kechki ovqatdan so'ng sayrga chiqdi. Uyidan bir oz uzoqlashgach, ikki talonchi unga yaqinlashdi. "Chiqar bor-budingni", – dedi ulardan biri to'pponchasini o'qtalarkan. Qo'rqib ketgan Charli hamyonini ularga uloqtirib, qocha boshladi. U to qarindoshlaridan birining uyiga yetgunicha ko'cha oralab to'xtovsiz yugurdi. Shundoqqina ayvonga yetganida, holsiz quladi.

Yurak xuruji. Shu tun u olamdan o'tdi.

Morri murdaning shaxsini aniqlash uchun chaqirtirildi. U samolyotda Nyu-Yorkka yetib bordi va morgga yo'l oladi. Uni yerto'ladagi o'liklar saqlanadigan sovuq xonaga olib kirishdi.

– Bu sizning otangizmi? – so'radi morg xodimi.

Morri o'zini so'kkan, urishgan, o'ziga ishlashni o'rgatgan, suhbatlashishni xohlagan vaqtlari og'iz ham ochmagan, onasining xotiralarini kim bilandir bo'lishishni istaganida, onasini xotirlashga yo'l qo'ymagan shaxsning jasadiga oyna ortidan ko'z tashladi.

Boshini irg'atdi-da, nari ketdi. Keyinchalik Morri xonaning dahshati

uning butun vujudini egallab olgani va boshqa hislarga o‘rin qoldirmaganini aytgandi. U ancha kungacha yig‘lay olmadi.

Shunday bo‘lsa-da, otasining o‘limi Morrini o‘z o‘limiga tayyorgarlik ko‘rishida dastak bo‘ldi. Bir narsaga uning ishonchi komil edi: quchoqlashishlar, o‘pichlar, uzoq suhbatlar va kulgi bo‘ladi va rozi-rizolik so‘ramagan odam qolmaydi; otasi va onasining vafotida nasib etmagan barcha amallar bajariladi.

Hayotining so‘nggi daqiqalari yaqinlashganda, Morri o‘z yaqinlari uning atrofida bo‘lishlari va uning hayoti uzilayotganini anglashlarini istardi. Ulardan hech biri telefon yoki telegramma orqali xabardor qilinmaydi yoxud ularning hech biri sovuq va yoqimsiz yerto‘lada oyna ortidan unga tikilishga majbur bo‘lmaydi.

Janubiy Amerikaning tropik o‘rmonlarida yashovchi Desana nomli qabila dunyo barcha mavjudotlararo harakatlanuvchi o‘zgarmas miqdordagi quvvatdan iborat, deb hisoblaydi. Shu sababli, har bir tug‘ilish boshqa bir o‘limga va har bir o‘lim yangi hayotga sabab bo‘lishi lozim. Shu tarzda, dunyodagi quvvat o‘z holicha saqlanadi.

Desana qabilasi a‘zolari ov qilayotganida o‘zlari o‘ldirgan jonzot ruhiy olamda bo‘shliq hosil qiladi, deb bilishadi. Ammo ushbu bo‘shliqni vafot etgan Desana qabilasi ovchilarining ruhlari to‘ldirishiga ishonishadi. Birorta ham inson o‘lmaganida edi, birorta ham qush yoki baliq tug‘ilmagan bo‘lardi. Menga bu fikr yoqadi. Morriga ham. Vidolashish oni yaqinlashgani sari, u barchamiz bitta o‘rmondagi mavjudotlar ekanimizni ko‘proq his qilayotgandek tuyuladi. Nimani olmaylik, albatta, uning o‘rnini to‘ldirib qo‘yishimiz lozim.

– Shunisi adolatli, – deydi u.

O'ninchi seshanba: oilaviy hayot haqida suhbatlashamiz

Morrinikiga mehmon olib keldim. Rafiqamni.

U ilk tashrifimdan beri rafiqam bilan tanishtirishimni so'raydi. "Qachon endi Janin bilan tanishtirasan?". "Qachon Janinni ham olib kelasan?". Bir necha kun avval Morrining holidan xabar olish maqsadida uyiga qo'ng'iroq qilgunimga qadar rafiqamni olib bormayotganimga doim bahonalarim tayyor bo'lardi.

Morrining telefon yoniga kelishiga ancha vaqt ketdi. Go'shakni ko'targanida esa shig'illagan tovushdan go'shakni boshqa birov uning qulog'iga tutib turganini sezdim.

– Saa-looom, — dedi u, go'yoki nafas yetishmayotgandek.

– Yaxshimisiz, murabbiy?

Uning nafas chiqarishini eshitdim.

– Mich...bugun.... murabbiyningning ahvoli... bir oz yaxshi emas.

Tunlari uning ahvoli tobora og'irlashib borayotgandi. Deyarli har tun kislorod uskunasi ulashlariga to'g'ri kelar, yo'tal xurujlari esa odamni qo'rqitardi. Bir yo'tal tutsa, soatlab davom etar va u to'xtaydimi, yo'qmi Morrining o'zi ham bilmasdi. U har doim dard o'pkasini mahv etganida o'lishini ta'kidlardi. Ajali naqadar yaqin qolganini o'ylab vujudimni titroq bosdi.

– Seshanba kuni boraman, — dedim men. – Ungacha tetiklashib qolasiz.

– Mich?

– Labbay?

– Rafiqang hozir sen bilanmi?

Janin yonimda o'tirgandi.

– Go'shakni unga ber. Ovozini eshitmoqchiman.

Tan olishim kerak, Xudo ayolimni mendan ancha rahmdilroq qilib yaratgan. U Morri bilan biror marta ham ko'rishmagan bo'lsa-da, go'shakni qo'lga oldi va bir daqiqaga ham qolmay u keksa

professorim bilan talabalik yillaridan beri tanish kishidek iliq suhbatga kirishdi. Eshitganim faqat “Ha, ha...Mich aytib bergandi... Voy, rahmat” jumalari bo‘lsa ham, ular dildan suhbatga kirishganini ich-ichimdan his qilib turardim.

U go‘shakni joyiga qo‘ygach:

– Kelasi safar birga boramiz, — dedi. Tamom.

Mana endi ikkalamiz Morrining ikki yonida o‘tiribmiz. Morri xotinboz bo‘lmasa-da, ayollarga suyagi yo‘q kishi edi. Buni o‘zi ham tan olardi. Hozir ham yo‘tal xuruji yoki hojatga chiqish ehtiyoji muloqotni bo‘layotganiga qaramasdan xonada Janinning borligi professorimga yangidan kuch bag‘ishlayotgandek edi. U to‘yda tushgan suratlarimizni tomosha qildi: Janin albomimizni ko‘tarib kelibdi.

– Detroytlikmisiz? — so‘radi Morri.

– Ha, — javob berdi Janin.

– Qirqinchi yillar oxirida bir yilcha Detroytda dars berganman. Qiziq voqea bo‘lgan o‘shanda.

Morri burun qoqishga to‘xtadi. Qog‘oz sochiqchani olishga urinayotganini ko‘rib, o‘zim sochiqchani oldimda, unga tutib turdim. U ojizgina burun qoqdi. Sochiqcha bilan burnini yengilgina siqib, artib qo‘ydim, xuddi mashinada ketayotgan ona bolasiga qilgani kabi.

– Rahmat, Mich, — Morri Janinga qaradi. – Mening tengi yo‘q dastyorim.

Janin jilmaydi.

– Ha, mayli. Voqeaga qaytsak. Universitetda jamiyatshunoslar jamoasi bor edi. Boshqa fan o‘qituvchilari bilan poker o‘ynardik. Bir jarroh yigit bo‘lardi. Bir oqshom o‘yindan so‘ng u yonimga kelib, “Morri, ish jarayoningizni ko‘rsam degandim”, dedi. Rozi bo‘ldim. Ma‘ruzalarimdan birida qatnashib, dars berishimni kuzatdi. Dars tugagach, “Endi meni ish jarayonida kuzatishga nima deysiz? Bugun oqshom bir bemorni operatsiya qilaman”. Ko‘ngli og‘rimasin

deb, borishga rozi bo'ldim. U meni shifoxonaga olib bordi. Kirishimiz bilan, "Qo'lingizni yaxshilab yuving, niqobni taqing va ustingizga xalatni ilib oling", dedi. Hash-pash deguncha u bilan birga operatsiya stoli yonida turardim. Stolda ayol bemor yotar, uning belidan pastki qismi yalang'och edi. Tanishim qo'liga pichoqni olib, ayolning tanasini xotirjam kesa boshladi. Shunday...

Morri barmog'ini ko'tarib, havoda aylantirdi.

– Mana shunday boshim aylana boshladi. Hushimni yo'qotay deyapman. Hamma yoq qon. Uh! Yonimda turgan hamshira, "Doktor, sizga nima bo'ldi?", deb so'radi. Men esa, "Men hech qanaqa doktor emasman! Meni bu yerdan olib keting!" dedim.

Biz kuldik. Bazo'r nafas olayotgan Morri ham baholi qudrat kulishga harakat qildi. Morri ancha vaqtdan beri bunday hikoyalar aytmay qo'ygandi. Vo ajab, boshqa birovning xastaligini ko'rib, hushini yo'qotay degan odam o'z dardini shunday mardona qarshi ola bilsa-ya, degan fikr o'tdi xayolimdan.

Konni eshikni taqillatib, Morrining tushligi tayyor bo'lganini aytdi. Men ertalab "Non va tomosha" do'konidan keltirgan sabzi sho'rva, sabzavotli pishiriqlar va yunoncha pishirilgan makaron tushlikka yaramasdi, albatta. Eng yumshoq yeguliklarni olib kelishga qanchalik harakat qilmay, bari bir ular nimjonlashib qolgan Morrining chaynab yutishiga qattiqlik qilardi. Endi u asosan suyuq bo'tqa va sho'rvada ivitib, ezilgan keks yerd. Charlotta deyarli barcha yeguliklarni blenderda maydalab, ezib berardi. Morri ovqatni somoncha yordamida iste'mol qilardi. Men haligacha har hafta bozorlik qilib, uning huzuriga xaridlar bilan to'la paketlarni ko'tarib kelardim. Uning yuzidagi ifodani ko'rish uchun ham bozorlik qilishda davom etardim. Har gal muzlatgichni ochganimda, u ovqat solingan qutilarga to'lib ketganini ko'rardim. Ehtimol, hali yana avvalgidek birgalikda haqiqiy tushlik qilamiz, men uning og'zidan ovqat sachratib, to'la og'iz bilan gapirishini tomosha qilaman, deb umid

qilgandirman. Naqadar ahmoqlik.

– Shunaqa gaplar... Janin, — dedi Morri.

Rafiqam jilmaydi.

– Juda latofatlisiz. Qo'lingizni bering.

Rafiqam qo'lini uzatdi.

– Michning aytishicha, professional xonanda ekansiz.

– Ha, shunday — dedi Janin.

– U yana betakror ovozingiz borligini ham aytgandi.

– Voy, — kuldi u. – Yo'q, u og'izda shunday deydi, xolos.

Morrining qoshlari ko'tarildi.

– Men uchun kuylab berasizmi?

Rostini aytganda, Janinni taniganimdan beri odamlar undan biror qo'shiq kuylab berishni so'raydi.

Odamlar qo'shiq aytib tirikchilik qilishingizni eshitishlari bilan doim "Nimadir kuylab bermaysizmi?" deb so'rashadi. Tortinchoqligi va sharoitga talabchanligi bois Janin hech qachon bunday iltimoslarni bajarmasdi, xushmuomalalik bilan rad etardi. Hozir ham u shunday qiladi deb o'ylab turganimda, u kuylay boshladi:

Xayolimga kelganing hamon

Bu dunyoda har nimaki bor

Unutaman barin batamom,

Voqelik ham etilar inkor...

Janin matni Rey Nobl qalamiga mansub, 30-yillarda mashhur bo'lgan qo'shiqni Morrining ko'zlariga tikilganча betakror nafislik bilan kuylardi. Men yana bir bora Morrining odatda tuyg'ularini pinhon tutuvchi odamlarning ham hissiyotlarini namoyon qildirish mahoratiga tan berdim. Morri qo'shiq ohangiga mahliyo bo'lganча ko'zlarini yumdi. Rafiqamning nafis ovozi xonani to'ldirar ekan, Morrining yuzidagi tabassum yarim oy shaklini olardi. Vujudi bir qop qumdek jonsiz bo'lsa-da, ichida raqsga tushayotgani yaqqol sezilib turardi.

Har chechakda sening jamoling,
Nigohlaring – ko'kda yulduzlar.
Faqat senda fikr-u xayolim –
Faqat senga tomon yo'l izlar,
Sevgilim...

Qo'shiq tugagach, Morri ko'zlarini ochgan edi, yonoqlari uzra yosh dumaladi. Yillar davomida rafiqamning kuylashini ko'p marta eshitgan bo'lsam ham, hech qachon o'sha lahzada Morri uni tinglaganichalik chin dildan, kuyni his etib tinglay olmaganman.

Turmush. Tanishlarimning hech biri oilaviy muammolardan holi emasdi. Ayrimlari turmush qurolmay halak, boshqalari esa undan qutulolmay ovora. Mening yoshimdagi avlod turmush majburiyatlarini zimmasiga olishdan xuddi loyqa botqoqdagi timsoh hujumidan qo'rqqandek qochardi. To'ylarida qatnashib, kelin-kuyovlarni tabriklab, bir necha yil o'tgach esa kuyovto'rani biror restoranda yoshroq ayol bilan uchratish meni hayratga solmasligiga ko'nikib qolgandim. Odatda ular yonidagi ayolni do'stim deb tanishtirar va "Bilasan-ku, falonchi bilan ajrashib ketdik", deya izohlardi vaziyatni.

– Nega shu kabi muammolardan boshimiz chiqmaydi? — so'radim Morridan turmush mushtlarini nazarda tutib.

O'zim ham yetti yil uchrashib yurganimizdan keyingina Janinning qo'lini so'raganman. Muammo nimada? Mening yoshimdagi avlod oldingilardan ehtiyotkorroq bo'lib qolganmikan yoki, shunchaki, xudbinroqmizmikan?

– Sizning yoshdagi avlodga achinaman, – dedi Morri. – Kim bilandir muhabbatga asoslangan munosabat o'rnatish juda muhim, chunki hozirda hayotimizda muhabbat yetishmaydi. Biroq zamonamizning bechora yoshlari birovga chindan ko'ngil berishga o'ta xudbinlik qiladi, yoki aksincha, shosha-pisha turmush qurishlari oqibatida yarim yil o'tmasdanoq ajrashishadi. Ular o'zlariga umr

yo'ldoshi sifatida qanday insonni xohlashini ham bilmaydi. Ular hatto o'zlari qanday inson ekanligi haqida ham tushunchaga ega emas, shunday ekan, kim bilan hayotini bog'layotganini qayerdan ham bilsin?

Morri xo'rsindi. U universitetda dars berib yurgan yillari ko'plab baxtsiz oshiqlarga maslahat berishiga to'g'ri kelgan.

– Bu qayg'uli holat, chunki yoningda suyukli insoning bo'lishi juda ham muhim. Bu, ayniqsa, meni yoshimga yetganingda – kuching ketib, sog'lig'ing yomonlashganida juda bilinadi. Do'stlarning bo'lgani yaxshi, albatta, ammo ular yo'talingni to'xtata olmay, uyqusizlikdan qiynalganingda tuni bilan yoningda parvona bo'lib, mijja qoqmasdan senga g'amxo'rlik qilib chiqishga yaramaydi.

Morri va Sharlotta talabalik paytlari tanishishgan, turmush qurganlariga qirq to'rt yil bo'lgandi. Oxirgi paytlarda ularni tez-tez kuzatardim: Sharlotta kelib goh unga dori qabul qilish kerakligini eslatadi, goh sekingina bo'ynini uqalab qo'yadi, ba'zan esa o'g'illari haqida gapirib beradi. Ular bir tan-u bir jondek umr kechirishar, biri ikkinchisi nima haqida o'ylayotganini tushunishi uchun bir qarashning o'zi kifoya edi. Sharlotta, Morridan farqli ravishda, tabiatan ancha vazmin inson edi. U rafiqasini qanchalar qattiq hurmat qilishini bilardim, chunki ba'zida “Bu narsani aytishim Sharlottaga yoqmasligi mumkin”, deb biror mavzudagi suhbatimizga nuqta qo'yardi. Morri faqat Sharlotta boshqalar bilishini lozim topmagan voqealarnigina pinhon saqlardi. Rafiqasini noqulay ahvolga qo'yishni yoki xafa qilishni istamasdi.

– Oilaviy hayot davomida turmush – musht deb bekorga aytilmasligini anglab yetganman, – davom etdi u. – Ketma-ket sinovlarni boshdan o'tkazasan. Bunda o'zingning kimligingni, turmush o'rtog'ing qanday insonligini va bir-biringiz bilan murosa qilib yashashga qodirmisiz yoki yo'q – hammasini bilib olasan.

– Turmush qurgach, ahil yashab keta olishni oldindan bilishning

biror yo'li bormi?

– Bu oson ish emas, Mich, – jilmaydi Morri.

– Ha, bilaman.

– Shunday bo'lsa-da, – dedi Morri, – tajribamdan aytishim mumkinki, muhabbat va oilaviy hayotga oid ayrim qoidalar mavjud: umr yo'ldoshingni hurmat qilmasang, muammolar girdobida qolasan. Murosa qilishni bilmasang, muammolar girdobida qolasan. Munosabatlaringiz haqida ochiqchasiga gaplasha olmasang, muammolar girdobida qolasan. Va agar hayotiy qarashlaringiz turlicha bo'lsa, muammolar girdobida qolasan. Qarash va qadriyatlarinigiz bir xil bo'lishi lozim. Bu qadriyatlarning eng asosiysi nima ekanini bilasanmi, Mich?

– Nima?

– Turmushing sen uchun ahamiyatli ekanligiga bo'lgan ishonching.

U burnini torti-da, bir lahzaga ko'zlarini yumdi.

– Shaxsan men, – xo'rsindi u ko'zini yumganicha, – turmushning ahamiyati katta deb bilaman. Uning nimaligini o'z boshingdan o'tkazib ko'rmasang, juda ko'p narsa yo'qotasan.

Morri mavzuni o'zi uchun duodek yangrovchi she'rdan iqtibos keltirish orqali yakunladi: “Bir-biringizga mehr-muhabbat ko'rsating, yo'qsa halokatga yuz tutasiz”.

– *Bitta savolim bor, – deyman Morriga.*

Qoqsuyak barmoqlari bilan ko'zoynagini har nafas olganida ko'tarilib-tushayotgan ko'ksiga bosadi.

– *Qanday savol ekan?*

– *Ayyub kitobi yodingizdami?*

– *Injildagimi?*

– *Ha, o'sha. Ayyub – yaxshi inson, lekin Xudo unga azob yuboradi. E'tiqodini sinash uchun.*

– *Yodimda.*

– *Uni hamma narsasidan judo qiladi: uyi, mol-davlati, oilasi...*

- Sogʻligi.
- Ha, unga dard yuboradi.
- Eʼtiqodini sinash uchun.
- Ha, eʼtiqodini sinash uchun. Menga bir narsa qiziq...
- Nima?
- Shu haqida fikringiz qanday?

Morrini kuchli yoʻtal tutadi. Qoʻllari qaltirab, ikki yoniga sudralib tushadi.

– Menimcha, – deydi u jilmayganicha, – Xudo bir oz oshirib yuborgan.

Oʻn birinchi seshanba: jamiyatimizda mavjud anʼanalar haqida suhbatlashamiz

- Qattiqroq ur.
- Morrining orqasini qoqaman.
- Qattiqroq.
- Yana uraman.
- Yelkasiga yaqinroq qismiga...ha, sal pastrogʻiga.
- Pijama ishton kiyib olgan Morri yotoqda yonboshlab yotibdi, ogʻzini lang ochib, yuziga yostiq bosib olgan. Fizioterapevt menga oʻpkada yigʻilib qolgan zaharni qotishga ulgurmasidan oldin qanday qoqib tashlashni koʻrsatayotgandi. Morri nafas olishda davom etishi uchun endilikda ushbu muolajani muntazam bajarib turish zarur edi.
- Meni... urib-urib olish istaging... borligini doim... sezardim, — yutoqib nafas oldi Morri.
 - Boʻlmasam-chi, — hazillashdim men terisi boʻrdek oppoq tusga kirgan orqasiga mushtlashda davom etarkanman. – Mana bu ikkinchi kursda menga B qoʻyganingiz uchun! Qars!
- Xonada asabiy kulgi koʻtarildi – odatda tagi chin noxush hazillarga

shunday kulamiz. Agar hammamiz buning o'lim oldi jismoniy mashqlari ekanini bilib turmaganimizda, ushbu kichik sahna yoqimli tuyulishi mumkin edi. Bu paytga kelib, Morrining dardi so'nggi manzil – uning o'pkasiga yetib qolay degandi. U havo yetishmasligidan bo'g'ilib o'lishini bashorat qilardi: bundan dahshatliroq yakunni tasavvurimga sig'dirolmasdim. Ba'zan Morri ko'zlarini yumgancha og'iz va burun orqali ichiga havo tortishga urinar, tashqaridan qaragan odamga go'yoki u butun boshli langarni ko'tarishga chiranayotgandek ko'rinardi.

Oktyabrning ilk kunlari. Tashqarida sovuq tushib qolgan, butun G'arbiy Nyuton shaharchasini barg-xazonlar uyumi qoplagan. Morrining fizioterapevti erta tongda kelardi, men odatda hamshiralalar va boshqa mutaxassislar uni ko'rikdan o'tkazishga kelganida xonadan chiqib turardim. Ammo hafta ketidan hafta o'tib borarkan, vaqtimiz poyoniga yetib borayotgani sababli ortiq keksa professorimning yalang'och tanasini ko'rishdan uyalmay qo'ygandim. Uning yonida bo'lishni xohlardim. Butun jarayonni o'z ko'zim bilan ko'rishni xohlardim. O'zimga o'xshamasdim, lekin Morrining uyida so'nggi oylarda sodir bo'layotgan voqealar ham odatdagidan mutlaqo farq qilardi-da.

Shunday qilib, yotoqda yotgan Morrini tekshirib ko'rayotgan fizioterapevtning ishini kuzatdim: qovurg'alarining orqa qismiga qayta-qayta mushtlab, undan o'pkadagi tiqin yumshayaptimi, deb so'rardi. Shifokor bir oz nafas rostdash uchun to'xtaganida, mendan ham uning harakatlarini takrorlashga urinib ko'rishni so'radi. Rozi bo'ldim. Yuzini yostiqqa bosib yotgan Morri nim tabassum qildi.

– Juda qattiq urma, — dedi u. – Qarib qolganman, axir.

Men shifokor ko'rsatmasiga binoan yotoqni aylanib, Morrining orqasi va yon tomonlariga ura boshladim. Morrining yotoqqa mixlanib qolishi mumkinligi haqidagi fikr yuragimni tilka-pora qilar, qulog'im ostida uning so'nggi hikmatli so'zlari jaranglardi: “Yotog'ingdan

turmabsan, demakki, sen – murdasan”. Yonboshga g‘ujanak bo‘lib yotgan hoida uning kichrayib, zaiflashib qolgan nimjon jismi ko‘proq yosh bolaning gavdasiga o‘xshardi. Bo‘rdek oqarib ketgan terisi, to‘kilib ado bo‘lay degan oppoq sochlari, jonsiz osilib turgan qo‘llarini ko‘rdim. Shunda qomatimizga chiroyli shakl berish uchun qancha vaqtimizni tosh ko‘tarish-u o‘tirib-turishlarga sarflashimiz, tabiat esa, alaloqibat, bularning barini puchga chiqarishi xayolimdan o‘tdi. Shifokor aytganidek, Morrining orqasiga qattiq-qattiq urarkanman, barmoqlarim ostida uning suyaklarini o‘rab turgan shalviragan etini his qildim. Aslida Morri qo‘yib, uning o‘rniga devorni mana shunday mushtlagim kelardi.

– Mich? — dedi Morri yutoqib nafas olarkan. Men orqasiga mushtlashda davom etayotganim sababli uning ovozi uzilib-uzilib chiqardi.

– Ha?

– Qachon... men senga... B... qo‘ygandim?

Morri odamlar tabiatan ezgulikka moyil bo‘lishlariga ishonardi. Shu bilan birga ular nimalarga qodirligini ham anglardi.

– Kishilar faqat ularga nimadir xavf tug‘dirsagina xudbin bo‘lib qoladilar, – dedi u keyinroq, – jamiyatimiz esa doim xavf-xatarga to‘la. Iqtisodimiz ham. Hatto o‘z ishiga ega odamlar ham tahlika ostida yashaydi, chunki ular ishini yo‘qotishdan qo‘rqadi. Xavf ostida qolganingda esa, faqat o‘zing haqingda qayg‘ura boshlaysan. Va pulga sig‘inishni boshlaysan. Barchasining negizi jamiyatimizda mavjud an‘analarga borib taqaladi, – xo‘rsindi Morri. – Men buni qabul qilolmayman.

Men bosh irg‘atdim va uning qo‘lini siqdim. Biz endilikda tez-tez qo‘l ushlab o‘tirardik. Mendagi yana bir yangi o‘zgarish shu edi. Avvallari men qilishga uyaladigan yoki irganadigan ishlar endi odatiy holga aylangandi. Naychasi Morrining tanasiga ulangan va nosrang peshob bilan to‘lgan kateter qopchasi oyog‘im ostida, kursi yonida

turardi. Bir necha oy oldin, ehtimol, bundan jirkangan bo'lardim; lekin endilikda bu qopcha va, hattoki, Morri tuvakka hojat chiqarganidan keyin xonada anqiydigan hidga ham e'tibor bermay qo'ygandim. Morri bu vaqtga kelib bir joydan ikkinchi joyga harakatlanish, hojatxona eshigini yopish va hojatxonadan chiqishda hid ketkizuvchi spreyni sepish baxtidan mahrum bo'lgandi. Butun hayoti yotoq va kursida o'tayotgandi. Agar mening hayotim ham shu tarzda angishvonadek joyga zichlab joylab qo'yilganida, xonamda bundan yaxshiroq hid taralishiga ishonmayman.

– O'z an'analaringni yarat deyishim, – dedi Morri, – seni jamiyatdagi mavjud barcha qoidalarni nazar-pisand qilmaslikka undashimni anglatmaydi. Masalan, men ko'chaga yalang'och chiqmayman-ku yoki qizil chiroqda yo'lni kesib o'tmayman. Bu kabi kichik qoidalarga amal qilishim mumkin. Lekin kattaroq masalalarda – fikrlash tarzi, qadriyatlar – tanlov o'zimizniki bo'lishi lozim. Hech kimsa yoki hech bir jamiyat bu narsalarni sen uchun belgilab berishiga yo'l qo'yma. Misol sifatida, mening holatimni olib ko'r. Uyalishim kerak bo'lgan narsalar – yura olmasligim, ketimni artolmasligim, ba'zan tonglari uyg'onib, to'yib yig'lashni xohlashim – umuman uyaladigan yoki xijolat bo'ladigan narsalar emas. Xushbichim bo'lmagan ayollar yoki boy bo'lmagan erkaklar holati ham shunday. Aslida, faqat jamiyatimiz bizni bular uyatli ekaniga ishontirgan. Sen bunga laqqa tushma.

Men Morridan nega yoshroq payti boshqa biror yerga ko'chib ketmaganini so'radim.

– Qayerga?

– Bilmadim. Janubiy Amerikagami, Yangi Gvineyagami, xudbinlik AQSHdagidek chuqur tomir otmagan biror yerga-da.

– Har bir jamiyatning o'z muammolari bor, – dedi Morri qoshlarini ko'tarib, endilikda u yelka qismoqchi bo'lganida, qosh uchirardi. – Qochib ketish yechim emas, menimcha. O'z an'analaringni yaratish

ustida ishlashing kerak. Quloq sol, qayerda yashashimizdan qat'iy nazar, biz insonlarning eng katta kamchiligimiz kaltabinligimizdir. Biz nimalarga qodirligimizni ko'ra olmaymiz. Inson o'z imkoniyatlarini ko'ra bilishi, zabt etishi mumkin bo'lgan har qanday cho'qqiga tirmashib ko'rishi kerak. Lekin atrofing "Hoziroq hammasiga ega chiqishim kerak" deguvchi kimsalarga to'la bo'lsa, bu holat mamlakatda hamma narsaga ega bir to'da boylar hamda nochorlarni bosh ko'tarib, boylarning mulkini o'g'irlashdan tiyib turuvchi harbiylarning vujudga kelishi bilan yakunlanadi.

Morri ortimdagi derazadan uzoq-uzoqlarga tikildi. Ba'zan yo'ldan o'tayotgan yuk mashinasining shovqini yoki shamol g'uvullashi eshitilib qolardi. Bir lahza qo'shnilarining uylariga qarab turdi-da, so'zida davom etdi.

– Muammo shundaki, Mich, odamlar bir-biriga o'xshash tomonlari nihoyatda ko'pligini tan olgisi kelmaydi. Oq tanli va qora tanlilar, katoliklar va protestantlar, ayollar va erkaklar. Agar o'xshashliklarimizni ko'ra olganimizda edi, hammamiz bitta ulkan oilaga birlashgan va bu oila uchun o'z oilamiz uchun qayg'uranimiz kabi qayg'urgan bo'lardik, ehtimol. Ishon, joning uzilayotganida gaplarim haqiqatligini anglab yetasan. Hammamizning ibtidomiz bir xil – tug'ilish va intihomiz ham bir – o'lim. Shunday ekan, qanchalik bir-birimizdan farq qilishimiz mumkin? Insoniyat oilasiga o'z hissangni qo'sh. Insonlarga himmat ko'rsat. O'zing sevgan va senga muhabbat qo'yganlardan iborat kichik jamiyat yarat.

U sekingina qo'limni siqib qo'ydi. Men ham uning qo'lini siqdim – bir oz qattiqroq. Bayram musobaqalarida bolg'ani zarb bilan urib, diskning ustun bo'ylab ko'tarilishini kuzatganingiz kabi men ham jismimda taralgan iliqlik Morriga o'tib, uning ko'ksidan bo'yniga, keyin esa yonoqlari hamda ko'zlarigacha ko'tarilganini his qildim. U jilmaydi.

– Hayotimizning ilk kunlari – chaqaloqligimizda yashab qolishimiz

uchun boshqalar g'amxo'rligiga muhtoj bo'lamiz, to'g'rimi? Hayoting so'ngida ham, mening hozirgi holatimga tushganingda, yashab qolishing uchun boshqalar yordamiga ehtiyoj sezasan, to'g'rimi? – uning ovozi pasayib, shivirlashga o'tdi: – Senga bir sirni ochaman – shu ikki davr oralig'ida ham boshqalarga muhtojligimizcha qolaveramiz.

O'sha kuni tushdan keyin Konni bilan O. J. Simpson ustidan o'qiladigan hukmni tomosha qilish uchun yotoqxonaga o'tdik. Vaziyat o'ta tarang edi: voqeaning asosiy qahramonlari – o'zining advokatlari armiyasi qurshovidagi egniga ko'k kostyum-shim kiyib olgan Simpsonning ham, uni tezroq panjara ortiga tiqish ishtiyoqida yonayotgan prokurorlarning ham nigohi sud hay'atiga qadalgandi. Sud hay'ati a'zolaridan biri "Aybsiz deb topildi" hukmini o'qib eshittirganida, Konni "Yo Xudoyim!" deb qichqirib yubordi.

Simpson advokatlarini birma-bir quchoqlashini tomosha qildik. Sharhlovchilarning hukm nimani anglatishi, nimalar sodir bo'layotganini izohlashga urinishlarini tingladik. Sud binosi tashqarisidagi ko'chada qora tanilardan iborat olomon quvonch bilan hukmni nishonlayotgani, restoranlarda esa bo'layotgan voqealardan lol qolgan oq tanililar televizor ekranlaridan ko'zlarini uzolmasdi. Qotilliklar har kuni sodir bo'lsa-da, bu hukm butun mamlakatni larzaga solgandi. Konni koridorga chiqib ketdi. Shu ko'rgani yetarli bo'ldi unga.

Morrining kabineti eshigi yopilgani eshitildi. Televizorga mixlanib qolgandim. "Butun dunyo shuni ko'ryapti hozir" dedim o'zimga o'zim. Keyin esa qo'shni xonadan tanish taraqlash qulog'imga chalindi – Morrini aravachasidan ko'tarib olishayotgandi. Jilmaydim. "Asrning eng shov-shuvli sud ishi" o'z nihoyasiga yetayotgan bir paytda keksa professorim hojatxonada o'z ishini bajarardi.

1979-yil. Brandeys sportzalida basketbol o'yini o'tkazilmoqda. Jamoasining natijasi yaxshiligidan ruhlangan tomoshabinlar

o'rindig'idagi talabalar "Biz doim birinchimiz! Biz doim birinchimiz!" deb kuylashga kirishadi. Morri shu talabalarga yaqin joyda o'tiribdi. U talabalarning hayqiriqlaridan hayratda. Va birdan navbatdagi "Biz doim birinchimiz!" hayqiriqlari ostida o'rnidan turib, "Ikkinchi bo'lishning nimasi yomon?" deb baqiradi.

Talabalarning nigohi u tomonga qadaladi. Ular kuylashdan to'xtaydi. Morri esa yuzida g'olibona tabassum bilan joyiga qaytib o'tiradi.

Ko'rgazmali qurollar: uchinchi qism

"Tungi xabarlar" jamoasi Morrinikiga uchinchi va oxirgi marotaba tashrif buyurdi. Bu galgi ko'rsatuvdagi ruhiyat mutlaqo o'zgacha edi. Odatiy suhbatdan ko'ra ko'proq qayg'uli vidolashuv sahnasini eslatardi. Ted Koppel kelishidan oldin bir necha marta qo'ng'iroq qilib, Morridan qayta-qayta "Suratga olish jarayoni sizni charchatib qo'ymaydimi?" deb so'radi.

Morrining ko'rsatuv oxirigacha turib bera olishiga ishonchi komil emasdi.

– Hozirda har daqiqa o'zimni horg'in sezaman, Ted. Tez-tez nafasim bo'g'ilib qoladi. Agar ba'zi so'zlarni aytolmay qolsam, o'rnimga nima demoqchi bo'lganimni izohlab turasizmi?

– Albatta, — dedi Koppel. Keyin esa tabiatan qat'iyatli bo'lgan teleyulduz: – Agar ko'rsatuvda qatnashgizingiz kelmasa, ayting, buni xijolatli yeri yo'q, Morri. Har qanday holatda ham xayrlashgani boraman yoningizga, — deya qo'shib qo'ydi.

Go'shakni qo'ygach, Morri ayyorona jilmaydi.

– Va nihoyat, uning ham qalbini eritdim.

U haq edi. Koppel Morrini "do'stim" deb atay boshlagandi. Keksa professorim, hattoki, telebiznes vakillarining qalbida ham rahm-shafqat uyg'otishga muvaffaq bo'lgandi.

Juma kuni peshindan keyin o'tkazilgan suhbatda Morri bir kun oldin kiygan kiyimida o'tirdi. Bu paytga kelib, u ust-boshini har ikki kunda almashtirardi va hali ikki kun to'lmagani sababli belgilangan tartibni buzgisi kelmadi.

Avvalgi ikki Koppel-Shvarts ko'rsatuvidan farqli ravishda bu galgi tasvirga olish ishlari faqatgina Morrining kabinetida olib borildi. U xonada turgan kursiga bandi edi. Keksa professorim bilan o'pishib ko'rishgan Koppel kitob javoni yoniga qisilibgina joylashdi, aks holda, kadrga sig'may qolardi.

Suhbatni boshlashdan oldin Koppel Morrining dardi qanchalik og'irlashganini so'radi.

– Ahvolingiz qanday o'zi, Morri?

Morri bemajol qo'lini ko'tardi – zo'rg'a qornigacha ko'tarildi. Undan yuqoriga ko'tarishga madori yetmasdi. Koppel savoliga javob olgandi.

Tasvirga olish ishlari boshlandi: uchinchi va so'nggi suhbat. Koppel Morridan “o'limingiz yaqinlashgani sari qo'rquvingiz ortib boryaptimi?” deb so'radi. Morri “yo'q” deb javob qaytardi. Aslini olganda, hozir qo'rquv avvalgidan ancha kamaygandi. U tashqi olamdan tobora uzilib borayotgandi: avvalgidek gazeta o'qib berishlarini so'ramas, pochta orqali kelayotgan xatlarga ham uncha e'tibor bermas, bularning o'rniga ko'proq musiqa tinglar va derazadan barglar rangi o'zgarishini tomosha qilardi.

Morri ALSdan aziyat chekkan boshqa kishilar borligini ham bilardi; ulardan ayrimlari mashhur shaxslar edi, masalan, buyuk fizik, “Vaqtning qisqacha tarixi” kitobi muallifi Stiven Xoking. U tomog'idan ochilgan teshik bilan kun kechirar, kompyuter sintezatori yordamida gapirar va ko'z harakatlarini ilg'ab oluvchi sensor yordamida kiprik qoqish orqali harf terardi.

Morri uning matonatiga qoyil qolar, biroq o'zi bu tarzda yashashni xohlamasdi. U Koppelga hayot bilan xayrlashish vaqti qachon

kelishini bilishini aytdi.

– Ted, hayot men uchun muloqot degani. O‘z his-tuyg‘ularimni ifoda etish, boshqalar bilan suhbatlashish, qayg‘u va quvonchlariga sherik bo‘lish tirikligimni anglatadi. – Morri chuqur nafas oldi. – Bular poyoniga yetganda, Morrining ham paymonasi to‘ladi.

Ular xuddi qadrdonlardek suhbatlashishdi. Oldingi ikki suhbatdagidek, Koppel “ketni artish sinovi” haqida so‘radi – aftidan, hazilomuz javob kutgandi. Biroq Morrining jilmayishga ham holi qolmagandi. U faqat bosh chayqab qo‘ydi:

– Hozir hatto tuvakda ham qaddimni tik tutib o‘tirolmayman. Har yonga og‘ib ketaveraman, shu sababli meni ushlab turishadi. Ishimni tugatgach, ketimni artib qo‘yishadi. Ahvolim shu darajaga kelib qolgan.

U Koppelga osoyishtalikda jon berishni xohlashini aytdi. Va o‘zining yangi yozilgan hikmatli so‘zi bilan bo‘lishdi: “Juda erta ketishga oshiqma, lekin juda uzoq ham qolib ketma”.

Koppel tushkun kayfiyatda bosh irg‘atdi. “Tungi xabarlar”ning dastlabki soni olinganidan beri atigi olti oy o‘tgan bo‘lsa-da, hozirgi Morri Shvarts deyarli murdaga aylangandi. Ko‘rsatuv tomoshabinlari o‘lim haqidagi miniserial ko‘rayotgandek edi, Morri ularning ko‘z o‘ngida so‘lib borardi. Biroq uning jismi nurab borgani sari, shaxs sifatida oldingidan-da yorqinroq porlardi.

Suhbat oxirlab qolganda, tasvirda Morrining bir o‘zini qoldirishdi, Koppelning esa faqat ovozi eshilib turardi. Koppel kekxa professorimdan “sizning muxlisingizga aylangan millionlab teletomoshabinlarga aytadigan biror so‘zingiz bormi?” – deya so‘radi. Koppel buni xayoliga ham keltirmagan bo‘lsa-da, uning savoli o‘limga hukm qilingan shaxsga so‘nggi so‘zini aytishga imkon berayotgandek yangradi.

– Mehr-shafqatli bo‘ling, – shivirladi Morri. – Bir-biringizga tayanch bo‘ling. Agar shu narsalar bizga saboq bo‘lganida edi, dunyo

yashash uchun yaxshiroq joyga aylangan bo'lardi. – So'ng bir nafas tin olib, qo'shimcha qildi – "Bir-biringizga mehr-muhabbat ko'rsating, yo'qsa halokatga yuz tutasiz".

Suhbat yakunlandi. Lekin negadir tasvirchi video-kamerani o'chirmadi va oxirgi sahna ham tasvirga tushdi.

– Barakalla, suhbatni yaxshi o'tkazdingiz, Morri, – dedi Koppel.

Morri bazo'r jilmaydi.

– Qo'ldan kelgancha harakat qildim, – dedi keyin.

– Har doimgidek.

– Ted, xastalik ruhimga chang solmoqda. Lekin uni sindirolmaydi. Jismimni barbod qilishi mumkin. Ruhimni emas.

Koppelning ko'zlari yoshga to'ldi.

– Juda yaxshi insonsiz, Morri.

– Shunday deb o'ylaysizmi? – Morri ko'zini shiftga tikdi. – Hozir U bilan muzokara olib boryapman. Undan qayta-qayta: "Farishtalaringdan biriga aylanamanmi yoki yo'q?" deb so'rayapman.

Morri Xudoga murojaat qilishiga ilk bora iqror bo'ldi.

O'n ikkinchi seshanba: kechirimlilik haqida suhbatlashamiz

– Joning uzilmasidan avval o'zingni, keyin esa boshqalarni kechir.

"Tungi xabarlar" ko'rsatuvi tasvirga olinganidan bir necha kun o'tgandi. Osmonning qovog'i soliq, yomg'irli kun bo'lgani sababli Morri ko'rpaga burkanib olgandi. Men esa kursi poyiga o'tirib, uning yalang oyoqlarini uqalayotgandim. Ular burushib, qadoq bo'lib ketgan, tirnoqlari esa sarg'ayib qolgandi. Kaftimga yonimda turgan kichik idishdan bir oz malham olib, Morrining to'piqlarini uqalay boshladim.

Bu oylar davomida hamshiralar ishini kuzatib, o'rganib olgan

muolajalarimdan yana biri bo'lib, Morri haqida imkon qadar ko'proq xotira qolsin, deb uqalashni ham bo'ynimga oldim. Xastalik tufayli Morri oyoq barmoqlarini qimirlatish qobiliyatidan ham mosuvo bo'lgandi, biroq oyoqlari hali ham og'riq sezar, uqalash esa og'riqni yengillashtirardi. Shuningdek, Morri insonlarning unga teginishini yoqtirardi. Bu paytgga kelib, uni xursand qiladigan har qanday ishni bajarishga tayyor edim.

– Mich, – dedi u kechirimlilik mavzusiga qaytar ekan, – kek saqlash va o'jarlikdan foyda yo'q. Bu narsalardan, – Morri xo'rsindi, – bu narsalardan qanchalik pushaymon ekanimni bilsang edi. Mag'rurlik. Manmanlik. Nega bizni afsuslantiradigan ishlarga qo'l uramiz?

Kechirimlilikning ahamiyati haqida savol bergandim. Filmlarda o'lim to'shagida yotgan oila boshlig'i bu dunyoni tark etish oldidan o'zaro yarashib olish maqsadida oq qilingan o'g'lini chaqirish sahnasini ko'rgandim. Morri ham o'limi oldidan “meni kechir” deyishni xohlovchi biror kim bormikan deb qiziqdim.

Morri bosh irg'atdi:

– Anavi haykalchani ko'ryapsanmi? – kabinetidagi javonning eng ustki tokchasida turgan byust tomonga boshi bilan ishora qildi.

Hech unga e'tibor bermagan ekanman. Bu bo'yniga bo'yinbog' taqilgan, bir tutam kokili peshonasiga tushib turgan qirq yoshlardagi erkakning bronzadan yasalgan byusti edi.

– Bu men, – dedi Morri. – Bir do'stim yasagan, 30 yillar oldin. Ismi Norman edi. Bir paytlar u bilan ajralmas do'st edik. Cho'milishga borardik. Birga Nyu-Yorkga borardik. Kembrijdagi uyiga mehmonga borganimda, yerto'lada shu byustni yasagandi. Bir necha hafta shu byust ustida ishlagan – uni mukammal chiqishini xohlagandi.

Haykalchani yuzini diqqat bilan o'rganib chiqdim. Yosh, sog'lom, uch o'lchamli Morrining suhbatimizni kuzatib turishini ko'rish juda g'alati edi. Hatto bronzada ham uning nigohida injiqlik aks etib turardi; do'sti uning ruhini ham haykalda ifodalay olibdi, degan fikr

xayolimdan o'td.

– Endi hikoyaning ko'ngilsiz qismini aytsam, – dedi Morri. – Norman rafiqasi bilan Chikagoga ko'chib o'tdi. Bir oz vaqt o'tib, xotinim Sharlotta jiddiy operatsiyani boshidan o'tkazdi. Norman ham, uning rafiqasi ham hech bir og'iz xabar olay demadi. Ular bu haqida bilishardi. Sharlottaning ahvolini so'rab biror marta ham qo'ng'iroq qilishmaganidan juda ko'nglimiz og'ridi. Shundan keyin ular bilan aloqani uzdik. Yillar o'tib Norman bilan bir necha marta ko'rishdik va u har safar yarashishga harakat qildi, lekin men buni rad etdim. Uning izohlaridan ko'nglim to'lmadi. Mag'rurligim tufayli uni ko'ksidan itardim.

Uning ovozi bo'g'ildi.

– Mich... bir necha yil oldin... u saratondan vafot etdi. O'ylasam, dilim xun bo'ladi. U bilan ko'risholmadim. Shu sababli kechira olmadim ham. Hozir bunday qilganimdan juda azoblanaman.

U yana yig'lay boshladi – jimgina, sassiz. Boshi orqaga suyab qo'yilgani uchun ko'z yoshlari labiga yetib kelmay, yuzining yon tomoniga yumalardi.

– Afsusdaman, – dedim men.

– Hammasi joyida, – pichirladi u. – Yig'lash uyat emas.

Uning oyoq barmoqlariga malham surishda davom etdim. U esa xotiralarga cho'mganча, yana bir necha daqiqa ko'z yosh to'kdi.

– Biz kechirishimiz kerak bo'lganlar faqat boshqalar emas, Mich, – nihoyat shivirladi u. – O'zimizni ham kechirishimiz kerak.

– O'zimizni?

– Ha, vaqtida qilmagan ishlarimiz uchun. Qachonlardir amalga oshirishimiz lozim bo'lgan, lekin bajarilmay qolib ketgan ishlar uchun. Amalga oshirilmagan ishlar uchun pushaymonlik girdobida qolib ketmaslik kerak. Mening yoshimga yetib, hozirgi holatimga tushganingda, pushaymonlikdan foyda yo'q. Doim o'z mutaxassisligim bo'yicha kattaroq natijalarga erishishni xohlardim;

ko'proq kitob yozgim kelardi. Avvallari bunday qilolmaganim uchun o'zimni koyirdim. Bu befoydaligini end-endi anglab yetyapman. Murosa qil. O'zing va atrofingdagilar bilan murosa qil.

U tomonga engashib, yoshlarini sochiqcha bilan artdim. Morri to'satdan ko'zini ochdi, so'ng yana yumdi. Uning nafas olishi atrofga eshutilib turardi, xuddi xurрак otayotgandek.

– O'zingni kechir. Boshqalarni ham kechir. Kutma, Mich. Hammaga ham rozi-rizolik so'rash uchun menga berilgani kabi yetarli muhlat berilmasligi mumkin. Omad hammaga ham kulib boqavermaydi.

Sochiqchani chiqindi qutisiga tashladim va yana uning poyiga qaytdim. Omad? Bosh barmog'imni uning qotib qolgan etiga bosdim, u buni sezmedi ham.

– Qarama-qarshiliklar tortishuvi yodingdami, Mich? Seni turli tomonlarga tortuvchi kuchlar?

– Esimda.

– Men vaqtim tugab borayotganiga achinaman, lekin u menga xatolarimni tuzatish imkonini berayotganidan quvonaman.

Bir oz muddat ikkalamiz ham jim qoldik. Yog'ayotgan yomg'ir tomchilari derazaga urilardi. Morrining orqasidagi hibiskus butasi hali ham so'lmagandi – kichrayib qolgan, lekin hali baquvvat edi.

– Mich, – shivirladi Morri.

– Labbay? – O'z mashg'ulotimga sho'ng'ib, uning oyoqlarini uqalashda davom etdim.

– Menga qara.

Boshimni ko'tarib, u tomon yuzlandim: ko'zlarida keskin ifoda aks etgandi.

– Nega yonimga qaytganingni bilmayman. Lekin bir narsani aytishni xohlardim... – U jimib qoldi, nafasi bo'g'ildi. – Agar menda yana bir o'g'il farzandli bo'lish imkoni bo'lganida, u sen bo'lishingni istardim.

Barmoqlarim bilan jonsizlanib borayotgan oyoqlar barmog'ini ezg'ilagancha, nigohimni olib qochdim. Biz lahzada dilimni qo'rquv

egalladi: uning iqrorini qabul qilish o'z otamga xiyonat qilishdek tuyuldi. Biroq boshimni ko'tarib Morriganing qaraganimda, uning yosh to'la ko'zlari bilan jilmayib turganini ko'rdim va angladimki, bunday lahzalarda xiyonatga o'rin qolmaydi.

U bilan vidolashishga to'g'ri kelishi yuragimga qo'rquv solgandi.

– Men dafn uchun o'zimga joy tanladim.

– Qayerda ekan u joy?

– Bu yerdan uzoq emas. Hovuz yaqinidagi tepalikda, daraxtlar ostida. Sokin. Fikrlash uchun yaxshi joy.

– O'sha yerda xayol surmoqchimisiz?

– U yerda o'lib yotmoqchiman.

Morri qiqirlab kuladi. Men ham unga qo'shilaman.

– Meni ko'rgani kelib turasanmi?

– Ko'rgani?

– Shunchaki, suhbatlashgani kelib tur. Seshanba kunlari. Har doim seshanba kuni kelasan-ku.

– Ha, biz seshanba odamlarimiz.

– Shunday. Seshanba odamlari. Suhbatlashgani kelasanmi, shunday qilib?

Oxirgi kunlarda u shu qadar tez zaiflashib borayotgandiki.

– Menga qara, – deydi u.

– Qarab turibman.

– Qabrimga ko'rgani kelasanmi? Muammolaring haqida so'zlab bergani?

– Muammolarim?

– Ha.

– Unda siz ham muammolarimga yechim topib berasizmi?

– Qo'limdan kelgancha harakat qilaman, albatta. Har doimgidek.

O'zimni hovuz yonidagi tepalikda – uning qabri yonida tasavvur qilaman. Morri joylashtirilib, ustiga tuproq tashlab ko'milgan va qabrtoshi o'rnatilgan bir parcha yer. Ehtimol, bir necha haftadan

keyindir? Yoki bir necha kundan keyinmikan? U yerda qo'llarim bilan tizzalarimni quchoqlaganicha, bo'shliqqa tikilib o'tirganimni ko'z oldimga keltiraman.

– Bari bir u hozirgidek bo'lmaydi-da, — deyman. – Gaplaringizni eshitolmayman.

– Qanday gapiraman...

U ko'zlarini yumib, jilmayadi.

– Kel, bunday qilamiz. O'lganimdan keyin sen gapirasan. Men esa eshitaman.

O'n uchinchi seshanba: mukammal kun haqida suhbatlashamiz

Morri o'limidan so'ng jasadi kuydirilishini xohlardi. U bu haqida Sharlotta bilan maslahatlashib, shu eng maqbul usul degan qarorga keldi. Morri dafn marosimini o'tkazishni qadrdon do'sti – Brandeys universiteti ravvini Al Akselrodga ishonib topshirdi. Al Akselrod Morrini ko'rgani kelganda, Morri unga o'z jasadining kuydirilishi to'g'risidagi rejasini aytdi.

– Keyin Al...

– Labbay?

– Meni haddan ortiq kuydirib yubormasliklariga ko'z-quloq bo'lgin, a. Ravvin hang-mang bo'lib qoldi. Endi Morri o'z jasadi haqida hazil qilishga o'tgandi. O'limi yaqinlashgani sari, u o'z jismiga, shunchaki, arzimas qobiq, ruh saqlanadigan oddiy idish sifatida qaray boshlagandi. Bari bir, tanasi qurib, faqat foydasiz teri va ustuxonga aylanib borayotgani sababli undan voz kechish u qadar qiyin emasdi.

– Biz o'lim bilan yuzma-yuz kelishdan juda qo'rqamiz, – dedi Morri uning yoniga joylashganidan keyin.

Uning yoqasidagi mikrofonni to'g'rilab qo'ydim, lekin u yana tushib ketaverdi. Morrini yo'tal tutdi. Hozirga kelib u deyarli to'xtovsiz yo'talardi.

– O'tgan kuni bir kitob o'qigandim. Unda yozilishicha, shifoxonada bemor vafot etishi bilan uni darhol choyshabga o'rab, lyukka o'xshash narsaning yoniga olib borib, pastga tashlab yuborisharkan. Ular murdani tezroq ko'zdan yo'qotish haqidai o'ylaydi. Odamlar o'limga yuqumli kasallikdek qarashadi.

Men mikrofonni uning yoqasiga qotirish bilan ovora edim. Morri qo'l harakatlaringa bir qarab oldi.

– O'lim yuqumli emas. U ham hayot kabi tabiiy hodisa. U – biz tuzgan kelishuvning bir qismi.

Morri yana yo'tala boshladi, men ortga tisarilib, doimgidek har qanday jiddiy falokatga tayyor holda kutib turdim. Oxirgi paytlarda Morri tunlarni ming azobda o'tkazayotgandi. Dahshatli tunlar. U atigi bir necha soat orom olar, keyin esa kuchli yo'taldan nafasi bo'g'ilib uyg'onardi. Hamshiralar yotoqxonaga yugurib kelib, yelkasiga urar va o'pkasidagi balg'amni ko'chirishga urinardi. Hamshiralar uni odatdagidek nafas oldirishga muvaffaq bo'lganida ham (bu endi faqat kislorod yuboruvchi uskuna orqali amalga oshirilardi), bunday kurash Morrining tinka-madorini quritar va u kuni bilan behol yotardi. Uning burniga kislorod naychalari o'rnatilgandi. Ularni ko'rgani ko'zim yo'q edi. Menga naychalar chorasizlik ifodasidek tuyulardi. Ularni yulib olgim kelardi.

– O'tgan kecha... – Morri sekingina shivirladi.

– Xo'sh, xo'sh? O'tgan kecha?

– Meni kuchli yo'tal xuruji tutdi. Soatlab davom etdi. O'lib qolsam kerak deb o'yladim. Nafas ololmayman. Bo'g'ilib qolgandim. Bir payt boshim aylana boshladi... shunda qalbimda qandaydir bir osoyishtalik hissi paydo bo'ldi va men ketishga tayyorligimni his qildim.

Morri ko'zlarini katta-katta ochdi.

– Mich, bu betakror tuyg'u edi. Sodir bo'layotgan hodisani qabul qilish hissi, qalb osoyishtaligi. O'tgan hafta ko'rgan tushim haqida o'yladim – unda qandaydir ko'priktan noma'lum tomonga o'tayotgandim. Manzil qanday bo'lishidan qat'iy nazar, u tomon borishga tayyor edim.

– Lekin bormadingiz.

Morri bir lahza tin oldi. So'ng sekingina bosh chayqadi:

– Yo'q, bormadim. Lekin bora olishimni aniq his qildim. Tushunyapsanmi? Barchamiz izlayotgan narsa aynan shu. O'lim haqligini xotirjam qabul qilish. Agar oxir-oqibat o'limni xotirjam qarshi olish qo'limizdan kelishini bilsak edi, ana undan keyin chindan qiyin ishni qilishni ham bir amallardik.

– Qaysi ish?

– Hayot bilan murosa qilish.

U orqasidagi deraza tokchasida turgan hibiskus butasini olib kelishimni so'radi. Butani kaftimga qo'yib, uning yuziga yaqin keltirdim. U jilmaydi.

– O'lish – tabiiy jarayon, – takrorladi u. – Biz o'zimizni tabiatning bir qismi sifatida ko'rmasligimiz sababli o'lim bizni sarosimaga soladi. Biz insonmiz, demak, tabiatdan ustunroqmiz deb o'ylaymiz.

Morri butaga qarab jilmaydi.

– Aslida unday emas. Dunyoga kelgan har bir narsa, vaqti kelib o'ladi. – U menga qaradi: – Fikrimga qo'shilasanmi?

– Ha.

– Yaxshi, – shivirladi u, – inson bo'lishning mukofoti ham bor. Shu g'aroyib o'simlik va hayvonlardan farqimiz mana nimada. Toki bir-birimizni yaxshi ko'rib, mehr-muhabbat hissini xotiramizda saqlar ekanmiz, o'lganimizdan keyin ham butunlay yo'qlikka g'arq bo'lmaymiz. Sen qoldirgan mehr-muhabbat o'lmaydi. Sendan qolgan xotiralar o'lmaydi. Hayotligingda mehr-muhabbat va

g'amxo'rligingdan bahramand bo'lganlarning qalbida yashashda davom etasan.

Uning ovozi titradi. Bu, odatda, u bir oz tin olishi kerakligini anglatardi. Butani deraza tokchasiga qaytib olib borib qo'ydim-da, o'chirish uchun magnitofon tomonga yurdim. O'chirishimdan oldin Morrining so'nggi so'zlari tasmaga muhrlanishga ulgurdi: "O'lim – hayotning intihosidir, munosabatlarning emas".

ALSni davolashda bir oz olg'a siljish kuzatilayotgandi: hali sinov bosqichida bo'lgan yangi dori chiqarilishi kutilayotgandi. Dori xastalikni butunlay davolamasa-da, uning rivojlanishini bir necha oyga sekinlashtirardi. Morrining yangilikdan xabari bor edi, ammo uning dardi sekinlashadigan bosqichdan allaqachon o'tib ketgandi. Bundan tashqari dorining sotuvga chiqarilishiga hali yana bir necha oy bor edi.

– Men uchun emas, — qat'iyon rad etdi u.

Shu dardga chalinganidan beri Morri biror marta ham tuzalib ketish umidida yonmadi. U ashaddiy realist edi. Bir marta undan:

– Kimdir sehrlı tayoqchasini silkitib, sizni tuzatib qo'ysa, vaqt o'tib yana avvalgi Morrıga aylanarmidingiz? — deb so'radim.

U bosh chayqadi.

– Ortga qaytishim haqida gap bo'lishi mumkin emas. Men hozir tamomila o'zga odamga aylanganman. Hayotga butunlay boshqacha ko'z bilan boqaman. Jismimning qadriga yetishni o'rganganman, oldinlari unga jiddiy e'tibor qaratmasdim. Insonga tinchlik bermaydigan muhim savollarga, hayot-mamot jumboqlariga javob topishga bo'lgan munosabatim ham o'zgargan. Bilasanmi, hamma gap shunda. Muhim savollarning javobini topishga bir kirishdingmi, tamom, ularni shunchaki qoldirib ketolmaysan.

– Qaysi savollarni muhim deyapsiz?

– Mening tushunishimcha, ular muhabbat, burch, ma'naviyat, hayot mohiyatini anglash to'g'risida. Agar bugunning o'zida sog'ayib

golsam ham, ana shu savollar fikrimni band etgan masalaligicha qolaveradi. Butun umrim davomida shunday bo'lishi kerak edi.

Morrini sog'lom ko'rinishda tasavvur qilishga urindim. Ustidagi choyshablarni itqitib, dast kursidan turishini va ikkalamiz tashqariga sayrga chiqishimizni ko'z oldimga keltirishga harakat qildim. Xuddi bir paytlar universitet hovlisida birga sayr qilganimizdek. Uni oxirgi marta tik oyoqda ko'rganimga o'n olti yil bo'lgani yalt etib xayolimdan o'tdi. O'n olti yil, a?

– Agar bir kunga soppa-sog' bo'lib qolsangiz, — so'radim men. — nima qilardingiz?

– Yigirma to'rt soatgami?

– Yigirma to'rt soatga.

– O'ylab ko'rish kerak... Ertalab o'rnimdan turardim, badantarbiya mashqlarini bajarardim, o'rama shirin kulcha va choy bilan yoqimli nonushta qilardim-da, suzishga borardim, keyin esa do'stlarimni mazali tushlikka taklif qilardim. Ularni bitta-bittadan yoki juft-juft bo'lib kelishga chaqirardim, shunda har birining oilasi, muammolari va qadrdon do'stligimiz haqida bemaolol suhbat qurardik. Keyin biror chorbog'da sayr qilishga chiqardim, daraxtlar rangini, qushlarni tomosha qilardim. O'zim anchadan beri ko'rolmagan tabiat go'zalligidan bahra olardim. Oqshom tushgach, hammamiz birgalikda kechki ovqatga makaronli taomlar yoki o'rdakni totli pishiradigan birorta tamaddixonaga borardik – o'rdakni yaxshi ko'raman. Ovqatdan so'ng tuni bilan raqs tushardik. Holdan tovgunimcha, u yerdagi mohir raqqosalarning hammasi bilan maza qilib o'yinga tushardim. Keyin esa uyga borib, miriqib uxlardim.

– Bor-yo'g'i shumi?

– Ha, shu.

Uning istaklari shu qadar jo'n, shu qadar oddiy ediki. Rostini aytsam, bir oz hafsalam pir bo'ldi. U Italiyaga borishni, Prezident bilan ovqatlanishni, dengiz sohilida chopqillab o'ynashni yoki xayoliga

kelgan har qanday ekzotik narsalarni tatib ko'rishni xohlaydi, deb o'ylagandim o'zimcha. Oylab yotoqda qolib, hatto oyog'ini ham qimirlatolmay yotgandan keyin qanday qilib shunchalik oddiy kundan lazzat topish mumkin?

Keyin esa hamma gap shunda ekanini angladim.

O'sha kuni ketishim oldidan Morri mendan "Bir mavzuni ko'tarsam maylimi?" deb so'radi.

– Ukang haqida gaplashmoqchi edim, — dedi u.

Vujudimni titroq bosdi. Shu mavzu fikr-u xayolimni band etganini Morri qanday sezdi ekan, bilmayman. Bir necha haftadan beri Ispaniyaga qo'ng'iroq qilib, ukam bilan bog'lanolmay yurgandim; bir do'stining aytishicha, u Amsterdamdagi shifoxonaga qatnayotgan ekan.

– Yaxshi ko'rgan insoning yonida bo'lolmaslik og'irligini bilaman, Mich. Lekin uning istaklarini ham tushunishing kerak. Balki u sen o'z ishlaringni tashlab, uning yoniga borishingni xohlamas. Balki bu narsa unga og'ir yukdek tuyular. Men hamma tanishlarimga odatiy hayot tarzingizni davom ettiring, men o'layotganim tufayli behalovat bo'lmang, deyman.

– Lekin u ukam-ku, — dedim men.

– Bilaman, — dedi Morri. — Shunisi og'riqli-da.

Jingalak malla sochlari boshida koptokdek shishib turgan sakkiz yoshli Piter ko'z oldimga keldi. Hovlidagi maysazorda jinsi shimlarimiz tizzasini o't dog'lariga bulg'ab kurash tushayotganimiz yodimga tushdi. Piterning taroqni mikrofondek tutib, ko'zgu oldida qo'shiq aytayotgani, bolaligimizda uydagilar bizni kechki ovqatga topisholmasin deb cherdakda berkinib, qisilib o'tirganlarimiz ko'z oldimdan o'tdi.

Keyin esa oilamizdan uzoqlashib ketgan, kimyoviy muolajalardan yuz chanoqlari bo'rtib, ozg'in va nimjon ko'rinishga kelib qolgan yigit ko'z oldimda gavdalandi.

– Morri, — so‘radim men, — nega u meni ko‘rgisi kelmayapti ekan, a?

Keksa professorim xo‘rsindi.

– Munosabatlar ma‘lum bir formula asosida qurilmaydi. Ular mehr bilan muzokara olib borish, har ikkala tomonning istak-xohishlari, ehtiyojlari, imkoniyatlari va turmush tarzini inobatga olish orqali shakllantiriladi. Biznesda muzokaralar g‘olib chiqish uchun olib boriladi. Tadbirkorlar o‘zlari uchun manfaatli bo‘lgan shartlarga erishish maqsadida muzokaraga kirishadi. Balki shu narsa miyanga o‘tirib qolgandir. Muhabbat esa boshqacha. Muhabbat bu o‘zganing ahvoli haqida xuddi o‘zingniki kabi qayg‘urishingdir. Bir paytlar ukang bilan munosabatlaring juda iliq bo‘lgan, endi esa yo‘q. Sen o‘sha damlarni qaytarishni xohlaysan. Munosabatlaring uzilib ketishini istamaysan. Lekin odamzodning qismati shu. Rishtalar uziladi, tiklanadi, uziladi, tiklanadi.

Men Moriga qarab, ajal naqadar yaqin ekanini angladim. O‘zimni butunlay chorasiz his qildim.

– Ukangning ko‘ngliga yana yo‘l topasan hali, — dedi Morri.

– Siz buni qayerdan bilasiz?

Morri jilmaydi.

– Meni topib kelding-ku, to‘g‘rimi?

– *Bir necha kun oldin ajoyib bir hikoya eshitgandim, — deydi Morri. U ko‘zlarini yumib, bir lahza tin oladi; men uning gapida davom etishini kutaman.*

– *Xo‘sh, hikoya ummonda mavjlanib suzib, farahli umr kechirayotgan kichik to‘lqin haqida. U shamol va musaffo havodan rohatlanib suzib yurgandi, biroq oldidagi boshqa to‘lqinlarning qirg‘oqqa zarb bilan urilayotganini ko‘rgach, ko‘ngliga g‘ulu tushdi.*

– *Ey, Xudoyim, bu qanday dahshat, — o‘yladi to‘lqin. — Mana qanday falokat kutib turibdi meni!*

Uning ortidan boshqa bir to'liqin yetib keldi. U birinchi to'liqinni g'amgin holatda ko'rib, undan so'radi: "Nimadan buncha xafasan?" Birinchi to'liqin unga javoban dedi: "Hech narsani tushunmayapsan, shekilli! Hammamiz qirg'oq bilan to'qnashib, parcha-parcha bo'lamiz! Bizdan asar ham qolmaydi! Bu dahshat emasmi?"

Ikkinchi to'liqin unga javob qiladi: "Yo'q, hech narsaga tushunmayotgan sensan. Sen to'liqin emassan, ummonning bir bo'lagisan".

Men tabassum qilaman. Morri yana ko'zlarini yumadi.

– Ummonning bir bo'lagi, – takrorlaydi u, – ummonning bir bo'lagi, xolos.

Uning nafas olishini kuzataman: nafas oladi – chiqaradi, nafas oladi – chiqaradi.

O'n to'rtinchi seshanba: xayrlashamiz

Havo sovuq va nam edi. Zinapoyalardan Morrining uyiga ko'tarilayotib, avvalgi tashriflarimda ilg'amagan mayda-chuydalarga ham e'tibor berayotganimni sezdim. Tepalik shakli. Uyning tosh urilgan devorlari. Pastak, hamisha yashil butalardan iborat yo'lak chetidagi devordaraxtlar. Men shoshmasdan, oyog'im ostida tekislanib qolayotgan ho'l xazonlarni bosib, sekin yurib borardim.

Bir kun oldin Sharlotta qo'ng'iroq qilib, Morrining ahvoli og'irlashganini aytgandi. Bu bilan u "so'nggi kunlar yetib keldi" demoqchi edi. Morri hamma uchrashuvlarini bekor qilib, juda ko'p vaqtini uyquda o'tkazayotgandi: bu hecham Morriga o'xshamasdi. U hech qachon uxlashga ishtiyoqmand bo'lmagan, ayniqsa, gaplashish uchun tayyor suhbatdoshlar bo'lganda.

– U sizni kelsin deyapti, — dedi Sharlotta. – Lekin, Mich...

– Labbay?

– U juda darmonsizlanib qolgan.

Kirish eshigiga olib chiquvchi zinapoyalar. Eshikning oynali qismi. Men bu narsalarni sekin, kuzatuvchan nigoh bilan xotiramga singdirib borardim, go'yoki ularni ilk marta ko'rayotgandek. Yelkamga osilgan sumkadagi magnitofonni paypaslab ko'raman, keyin esa tasmalarni ham olganimga ishonch hosil qilish maqsadida sumkaning ichini ochib ko'raman. Nega bunday qildim – bilmayman. Tasmalarni doim yonimda olib yuraman-ku.

Eshikni Konni ochdi. Tabiatan xushchaqchaq Konni bugun g'amgin ko'rinardi. Deyarli shivirlab salomlashdi.

– Uning ahvoli qanday? — so'radim men.

– Unchalik yaxshimas, — deya labini tishladi u. – Bu haqida o'ylashni ham xohlamayman. Shunday yaxshi odam, a?

– Bilaman.

– Kulfat-ku bu!

Sharlotta koridordan chiqib kelib, meni quchoqladi. Soat ertalabki 10 bo'layotgan bo'lsa-da, Morri hali uyg'onmabdi. Oshxonaga o'tdik. Stol ustida qatorlashib turgan oq telpakli jigarrang plastik askarchalar – dori idishchalarini ko'rib, unga oshxonani yig'ishtirishga ko'maklashdim. Keksa professorim nafas olishni yengillashtirish uchun morfiy qabul qilardi.

O'zim bilan olib kelgan oziq-ovqatlarni muzlatgichga joyladim: sho'rva, sabzavotli pishiriq, tuna salati. Yana ovqat ko'tarib kelganim uchun Sharlottadan uzr so'radim. Morri bu kabi yeguliklarni chaynolmay qolganiga ancha bo'lganini ikkalamiz ham bilardik, ammo bozorlik qilib kelish odat tusiga kirib qolgandi-da. Ba'zan kimingnidir yo'qotayotganingda, mayda-chuyda odatlarga ham cho'kayotgan odam xasga yopishganidek amal qilarkansan.

Morri va Ted Koppelning ilk suhbatini tasvirga olingan mehmonxonada kutib o'tirdim. Stolda yotgan gazetani o'qiy boshladim. Minnesotada ikki bolakay otasining qurollari bilan o'ynay

turib, bir-birini otib qo'yibdi. Los-Anjeles ko'chalaridan biridagi axlat qutisidan chaqaloq topilibdi.

Gazetani joyiga qo'yib, bo'm-bo'sh kaminga tikildim. Poyabzalim bilan parket polni ohista depsiya boshladim. Va nihoyat, eshik ochilib-yopilgani, keyin esa Sharlottaning men tomon kelayotgan qadam tovushlari qulog'imga chalindi.

– Bo'ldi, — dedi u mayin ovozda. – U seni ko'rishga tayyor.

Men o'rnimdan qo'zg'alib, odatiy joyimizga tomon yurarkanman, koridor oxirida, yig'ma kursida oyoqlarini chalishtirib o'tirgancha kitob o'qiyotgan begona ayolga ko'zim tushdi. U o'lim to'shagida yotgan bemorlar kasalxonasidan kelgan hamshira bo'lib, Morridan yigirma to'rt soat boxabar bo'lib turuvchi navbatchi jamoa a'zosi edi. Morrining kabinetida hech kim yo'q edi. Bundan bir oz gangib qoldim. Keyin ikkilanibgina yotoqxonaga qayrildim, ha, mana u, yotoqda choyshablarga o'ranib yotibdi. Men uni bu holda oldin faqat bir marta ko'rgandim: u uqalash muolajasini olayotganida. Yana uning “Yotog'ingdan turmabsan, demakki, sen – murdasan” degan hikmatli so'zlari miyamda aks-sado berdi.

Yuzimda zo'raki tabassum bilan xonaga kirdim. U tepasiga sariq rangli tungi ko'ylak kiyib olgan, ko'krigidan pastki qismiga esa ko'rpa yopib qo'yilgandi. Uning ko'rpa ostidagi tanasi shu qadar ozib-to'zib ketgandiki, menga bir nafas u yerda nimadir yetishmayotgandek tuyuldi. Uning kichrayib ketgan jussasi yosh bolanikidek kelardi.

Morrining og'zi ochiq, yuzi terisi oqarib, yonoq suyaklariga yopishib turardi. Nigohi menga tushib, gapirishga urindi, ammo bo'g'zidan faqat xirillagan tovush eshitildi.

– Mana, qayerda ekansiz! — dedim men bo'm-bo'sh ichimda qolgan bor kuchimni to'plab.

U nafas chiqardi, ko'zlarini yumdi, keyin esa jilmaydi. Shu jilmayish ham uni holdan toydirayotgandek edi.

– Qadrdon... do'stim, — dedi u va nihoyat.

– Ha, do'stingizman, — dedim men.

– Bugun ahvolim... uncha yaxshimas.

– Ertaga o'zingizga kelib qolasiz.

U qiyinchilik bilan yana nafas chiqardi va zo'rg'a bosh irg'atdi. Choyshab tagidan nimadir qilishga qattiq urinayotgani ko'rib, qo'lini chiqarmoqchiligini angladim.

– Qo'limdan tut, — dedi u.

Ko'rpani tortib, uning barmoqlarini mahkam ushladim. Ular qo'llarim orasida yo'q bo'lib ketdi. U tomonga engashdim, yuzim yuziga tegay deb turardi. Birinchi marta uni soqoli olinmagan holda ko'rishim edi. Endi o'sib kelayotgan oppoq mo'ylari Morrining yuzida shu qadar begona tuyulardiki, xuddi birov uning yonoqlari va iyagiga bir tekis qilib tuz sepib chiqqandek edi. Jon hamma a'zolarini tark etayotgan bir paytda yangi hayot boshlashga quvvatni qayerdan oldi ekan bu soqol?

– Morri, — chaqirdim men.

– Murabbiy, — meni to'g'riladi u.

– Murabbiy, — dedim men.

Vujudimni titroq bosdi. U to'xtab-to'xtab gapirdi: nafas olishi – havo, chiqarishi – so'zlar. Ingichka, titroq ovozda so'zlardi. Undan malhamlarning hidi kelardi.

– Sen... yaxshi odamsan.

– Yaxshi odam.

– Mana bu yerimdan, — dedi u shivirlab, qo'limni yuragi tomonga olib borarkan. – joy olgansan.

Bo'g'zimga nimadir tiqildi.

– Murabbiy?

– A-a?

– Men qanday xayrlashishni bilmayman.

U hali ham ko'ksida turgan qo'limni ohistagina urib qo'ydi.

– Mana... shunday... xayrlashamiz.

Morri ohistagina nafas olar, men uning ko'krak qafasi ko'tarilib-tushishini his qilib turardim. U ko'zimga tik qarab:

– Seni... yaxshi ko'raman, — dedi xirildoq ovozda.

– Men ham sizni yaxshi ko'raman, murabbiy.

– Yaxshi ko'rishingni bilaman... Yana boshqa... bir narsani ham bilaman.

– Yana nimani bilasiz?

– Har doim... yaxshi ko'rganingni...

Uning ko'zlari qisildi, keyin esa u yig'lay boshladi. Yuzi xuddi hali qanday yig'lashni bilmaydigan chaqaloqnidek bujmaydi. Men bir necha daqiqa uni bag'rimga bosib turdim. Osilib qolgan terisini, sochlarini siladim. Kaftlarimni uning yuziga bosdim, qurigan eti ostida yonoq suyaklari yaqqol sezilib turardi. Doritomizg'ichdan siqib chiqarilayotgan tomchilardek mayda ko'z yoshlaridan kaftim namlandi.

Nafas olishi bir maromga tushgach, tomog'imni bir qirib oldim-da, uning holdan toyganini, shu sababli keyingi seshanba kelishimni va ungacha ahvoli bir oz yaxshilanib qolishiga umid qilishimni aytdim.

– Rahmat, — dedi Morri va kulishga urinib, yengil pixillab qo'ydi. Bari bir kulgisi ham g'amgin chiqdi.

Kelganimdan beri yopiqligicha turgan, magnitofon solingan sumkamni qo'limga oldim. Buni nega olib keldim o'zi? Undan foydalanmasligimizni bilgandim-ku. Morri tomonga egilib, uni o'pib qo'ydim. Zora unga bir lahza bo'lsa-da zavq bag'ishlasa, degan umidda yuzimni uning yuziga odatdagidan uzoqroq bosib turdim.

– Bo'пти, unda, — dedim qaddimni roslar ekanman.

Namlangan ko'zlarimdan yosh chiqmasligi uchun kiprik qoqqanimni ko'rib, uning lablari siqildi va hayratdan qoshlari ko'tarildi. O'sha lahzada keksa professorim o'z g'alabasidan mamnun edi, deb o'ylagim keladi: va nihoyat, u meni yig'lashga majbur qilgandi.

– Bo‘pti, – shivirladi u.

Bitiruv oqshomi

Morri shanba kuni tongda olamdan o‘tdi.

Barcha yaqin qarindoshlari uning yonida edi. Rob Tokiodan uchib keldi – otasini so‘nggi manzilga kuzatish uchun, Jon va, albatta, Sharlotta ham Morri bilan birga edi. Sharlottaning jiyani – “norasmiy dafn marosimi”da o‘qib bergan she‘rida Morrini navqiron sekvoyyaga mengzab, uni to‘qinlantirib yuborgan Marsha ham o‘sha yerda edi. Ular tunlari navbatma-navbat Morrining yonida o‘tirib chiqardi. So‘nggi uchrashuvimizdan ikki kun o‘tib, Morri komaga tushib qoldi; shifokor uning istalgan payt joni uzilishi mumkinligini aytdi. Biroq u hech ketolmadi, tuni bilan o‘lim bilan kurashib chiqdi.

Va nihoyat, to‘rtinchi noyabr kuni – yaqinlari birinchi marta uni yolg‘iz qoldirib, bir finjon qahva uchun oshxonaga chiqishganida, u nafas olishdan to‘xtadi.

Morri bu dunyoni tark etdi.

O‘ylashimcha, Morri atay shu tarzda jon berdi. U boshqalarni qo‘rqitib yuborishni xohlamadi. Kimdir uning joni uzishiliga guvoh bo‘lib, bir umr shu lahza ta‘qibi ostida yashashini istamadi. Xuddi uning o‘zini onasining vafoti haqida telegramma yoki otasining jasadini shahar morgida ko‘rganidagi dahshat bir umr ta‘qib qilganidek.

Menimcha, u o‘z yotog‘ida yotganini, kitoblari, qaydlari va kichik hibiskus butasi uning yonginasida ekanini his qilib turgan. U bu dunyoni xotirjam tark etishni xohlagandi – xuddi shunday bo‘ldi.

Dafn marosimi tongida shamol esib turar, havo nam edi. O‘t-o‘lanlar ho‘l, osmon qaymoqrang tusda edi. Biz tepalikdagi yangi qazilgan qabr yonida turardik, hovuz suvining qirg‘oqqa urilayotgani eshitilib

turar, o'rdaklar qanotlarini qoqib suzib yurardi.

Yuzlab kishilar marosimda ishtirok etishni xohlagan bo'lsa-da, Sharlotta marosim ixcham o'tishini xohladi: faqat bir necha yaqin do'stlari va qarindoshlari keldi. Ravvin Akselrod bir nechta she'r o'qidi. Bolaligida poliomiyelit bilan og'rigani tufayli hali ham oqsoqlanib yuradigan Morrining ukasi Devid, an'anaga ko'ra, belkurakda qabrga tuproq tashladi.

Morrining kuli qabrga joylashtirilgach, yon-atrofni ko'zdan kechirdim. Morri haq edi – ajoyib joy. Daraxtlar, o't-o'lanlar va qiya tepalik.

“Sen gapirasan, men esa eshitaman”, – degandi u o'shanda.

Morri aytganidek, u bilan xayolan suhbatlashib ko'rdim. Bu xayoliy suhbat rostdan ham tabiiydek tuyuldi. Beixtiyor bilagimga qarab, qo'l soatimga ko'zim tushdi va buning sababini angladim: kun seshanba edi.

“Tark etar onda ham kuyladi otam,

Xonish kurtaklarga hadya etdi jon.

(Bilardik bahor ham aylashin xirom

Otamning qo'shig'in eshitgan hamon)...”

Dafn marosimida Morrining o'g'li Rob tomonidan o'qilgan she'r, muallifi – E. E. Kammings.

Xotima

Ba'zan o'tmishga boqib, keksa professorimni qayta uchratishimdan oldingi “men”imni – tamomila o'zgacha insonni ko'z oldimga keltiraman. O'sha inson bilan suhbat qurgim keladi. Unga nimalarni qidirish va qaysi xatolardan qochish kerakligini aytgim keladi. Unga qarata, “Bag'rikeng bo'l, jamiyat tomonidan targ'ib qilinadigan qadriyatlar vasvasasiga uchma, yaqinlaring so'zlayotganida, go'yoki ular bilan so'nggi marta suhbatlashayotgandek diqqat bilan tingla”,

degim keladi.

Eng muhimi, men unga samolyotga o'tirib, Massachusetts shtatidagi G'arbiy Nyuton shaharchasida yashayotgan nuroniyini ertaroq – u xastalanib raqsga tushish qobiliyatini yo'qotmasidan oldin borib ko'rishi kerakligini aytgim keladi.

Bilaman, bu qo'limdan kelmaydi. Hech birimiz o'tgan ishlarni o'zgartira olmaymiz, allaqachon tasмага muhrlangan hayotimizni ham qayta yashash imkonsiz. Ammo Professor Morri Shvarts menga bergan eng muhim saboq bu – hayotda “endi juda kech” degan tushunchaning mavjud emasligi. U so'nggi nafasigacha o'zini tarbiyalashda davom etdi.

Morrining o'limidan ko'p o'tmay, Ispaniyadagi ukam bilan suhbatlashishga muvaffaq bo'ldim. Uzoq gaplashdik. Uning ma'lum masofa saqlash istagini hurmat qilishimni, men bor-yo'g'i o'tmish xotiralari bilan yashash o'rniga, aynan hozir xabarlashib turishni va u imkon berganicha munosabatlarimizni tiklashni xohlashimni aytdim.

– Sen mening yakka-yu yolg'iz ukamsan, – dedim men. – Seni yo'qotishni xohlamayman. Seni yaxshi ko'raman.

Shu paytgacha unga bunday gaplarni hech aytmagandim.

Bir necha kun o'tib, faks orqali xabar oldim. Xabar matni bosh harflar bilan yozilib, tinish belgilari pala-partish qo'yilganidan u ukamdan kelgani bilinib turardi.

“SALOM VA NIHOYAT TO'QSONINCHI YILLARGA QADAM QO'YDIM!”, deb boshlanardi xabar. U hafta davomida nimalar qilgani haqida yozib, bir juft latifa ham qo'shib qo'ygandi.

Xabar shunday yakunlangandi:

Shu kunlarda jig'ildonim qaynab, ichim ketib yotibdi – megajin hayot.

Keyinroq gaplasharmiz? Bemor Dumba

Kulaverib, ko'zlarimdan yosh chiqib ketdi.

Ushbu kitob g'oyasi asosan Morriganing tegishli edi. U kitobni “so'nggi

ilmiy ishimiz” deb atardi. Eng yaxshi loyihalarda bo‘lgani kabi bu ish ikkimizni ancha yaqinlashtirdi. Morri bir necha noshirlar kitobga qiziqish bildirganini eshitib, juda quvongandi, biroq ularning hech biri bilan uchrashish unga nasib etmadi. Kitob uchun to‘langan bo‘nakning Morrining ulkan tibbiy xarajatlarini qoplashda foydasi tegganidan ikkalamiz ham mamnun edik.

Aytgancha, kitob nomini Morrining kabinetida o‘tirib, bir kundayoq o‘ylab topganmiz. U nom tanlashni yoqtirardi. Morri bir nechta nomlarni taklif qildi. Lekin men ““Morrining seshanba darslari”ga nima deysiz?” deb so‘raganimda, uning yuziga tabassum, yonoqlariga qizillik yugurganini ko‘rib, shu nomda to‘xtalishimizni angladim.

Morrining vafotidan so‘ng universitet davridan qolgan kitob-daftarlarim joylangan qutilarni birma-bir ko‘zdan kechirdim. Ular orasidan Morrining darslaridan biri uchun yozgan yakuniy nazorat ishimni topib oldim. Yozilganiga ham yigirma yil bo‘libdi. Muqovasining old tomonida mening Morri uchun qalam bilan qing‘ir-qiyshiq yozilgan mulohazalarim, uning ostida esa Morrining mulohazalari qoldirilgan edi.

Meniki “Qadrli murabbiy...” deb boshlangan.

Uniki esa “Qadrli o‘yinchi...” deb.

Negadir har safar shu bitiklarni o‘qiganimda, uni yanada ko‘proq sog‘inaman.

Hayotingizda hech haqiqiy ustozingiz bo‘lganmi? Siz hali ishlov berilmagan tosh bo‘lsangiz-da, donolik bilan sayqallansa, noyob olmosga aylanishingizga ishonchi komil bo‘lgan ustoz? Agar omadingiz kulib, shunday ustozni uchratib qolsangiz, vaqt o‘tib, albatta, uning yoniga qaytasiz. Ba‘zan, shunchaki, xayolingizda. Ba‘zida esa shundoqqina u yotgan yotoq yoniga.

Keksa professorim hayotining so‘nggi darslari uning uyida, u mittigina hibiskus butasining pushti gullari to‘kilishini tomosha qilishi

mumkin bo'lgan kabinet derazasi yonida, haftada bir marta o'tilardi. Sinf seshanba kunlari yig'ilardi. Hech qanday darslikdan foydalanilmasdi. Fanimiz "Hayot mazmuni" deb atalardi. Unda professor boshdan kechirgan hayotiy saboqlar o'qitilardi. Saboqlar davom etadi.